

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

## **GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



### **TABIY FANLAR FAKULTETI BIOLOGIYA KAFEDRASI**

### **BIOTEXNOLOGIYA fanidan o'quv - uslubiy majmua**

Bilim sohasi:

100000-Gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi:

140000 – Tabiiy fanlar

Ta'lif yo'nalishi:

5140100 - Biologiya

**GULISTON - 2022**

Biotexnologiya fanidan o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan \_\_\_\_\_ yil tasdiqlangan "\_\_\_"-sonli buyrig'i bilan tasdiqlangan Biotexnologiya fani namunaviy dasturi (№ БД \_\_\_\_\_) talablari asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchi:**

**K.Ismoilova**

**GulDU Biologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD**

**Taqrizchi:**

**H.Qo'shiev**

**GuLDU Biologiya kafedrasi professori,  
biologiya fanlar doktori.**

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o'quv metodik Kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan. (\_\_\_\_\_yil dagi "\_\_\_" sonly bayonnomasi).

## MUNDARIJA

|       |   |    |
|-------|---|----|
| I.    | <b>Kirish.....</b>  | 4  |
| II.   | <b>MODUL-1:Kirish.Biotexnologiuа fanining ivojlanishi,ahamiyati, maqsad va vazifalari O'zbekistonda biotexnologiya fanining rivojlanishi.....</b> | 5  |
| III.  | <b>MODUL-2: Fermentlar muxandisligi. ....</b>   | 9  |
| IV.   | <b>MODUL-3: Fermentlarni immobillash</b>  | 20 |
| V.    | <b>MODUL-4: Fermentlar ishtirokidagi texnologik jarayonlar.....</b>   | 24 |
| VI    | <b>MODUL-5: Gen muxandisligi.....</b>   |    |
| VII.  | <b>MODUL-6: O'simlik gen muxandisligi.....</b>  |    |
| VIII. | <b>MODUL-7: Hayvon gen muxandisligi.....</b>  |    |
| IX    | <b>MODUL-8. Hujayra muhandisligi.....</b>   |    |
| X     | <b>Laboratoriya mashg'ulotlari.....</b>   |    |
| 1     | <b>Amilolitik ferment faolligini aniqlash</b>   | 35 |
| 2     | <b>Chiqindisiz texnologiya yaratish</b>   | 38 |
| 3     | <b>Fermentni kovalent immobillash</b>   | 50 |
| 4     | <b>Fermentlarni fizik-kimyoviy xususiyatini o'rghanish</b>  | 57 |
| 5     | <b>Chiqindilar asosida sorbent sintezlash</b>   | 60 |
| XI    | <b>GLOSSARIY.....</b>   | 63 |
| XII.  | <b>ADABIYOTLAR<br/>RO'YXATI.....</b>  | 68 |
| XIII. | <b>Ilovalar.....</b>  | 69 |

## **Kirish**

Biotexnologiya – bu umumiy biologiyaning amaliy sohasi hisoblanib, mikroorganizmlar, o’simlik va hayvonlar hujayralarining biosintetik potentsiallaridan foydalangan holda yangi ishlab chiqarish jarayonlarini yaratishdir. Biotexnologiyada inson uchun zarur bo’lgan mahsulot va materiallar biologik ob’ektlar (hujayra protoplasti va organoidlari, fermentlar, biologik aktiv moddalar) yordamida sun’iy oziqa muhitida o’stirish orqali ishlab chiqariladi.

Biotexnologiya fanini hozirgi vaqtida jadal sur’atlar bilan rivojlanishi bevosita biologiya fanining taraqqiyoti bilan uzviy bog’liqdir. Biotexnologiya fanlar ichida hozirgi kunda etakchi o’rinni egallamokda. Sababi, biologiyaning molekular darajaga ko’tarilishi, hozirgi kunda bir qator masalalarni biotexnologiya fanisiz echish imkonini bermaydi. SHu sababdan ham biotexnologiya turli yunalishlari inson hayoti uchun kerakli bo’lgan oziq-ovkat mahsulotlarini, shuningdek energiya muammosi, turli ekologik muammolarni, biologik faol va dorivor moddalar ishlab chiqarish muammolarini hal qilishi mumkin. Biotexnologiya avvalo, ekologik jihatdan katta istiqbolga ega, uning yordamida energiya kam darajada sarflanadigan chiqindisiz texnologiyalar yaratish amalga oshiriladi. Biotexnologiya turli preparatlar: jumladan insulin, interferon, turli gormonlar, vaksinalar, biologik faol moddalar olishda, biotexnologik jarayonlarni qo’llash har jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Manzilimiz: 120100. Guliston shahri, IV mavze, Universitet,  
«Biologiya» kafedrasи

## 1-MODUL

### Mavzu: Kirish. Biotexnologiya fanining rivojlanishi, ahamiyati, maqsad va vazifalari.

#### REJA

1. Biotexnologiya fanining maqsad va vazifalari.
2. Biotexnologiya fanining rivojlanishi.

**Tayanch iboralar:** biologik ob'ekt va material, mikroorganizmlar, achitqi, bakteriya biokonversiyasi, biotexnologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, genetik injeneriya,

Biotexnologiya fanining maqsad va vazifalari. Biotexnologiya - bu biologiyaning amaliy qismi bo'lib, mikroorganizmlar, o'simlik va hayvon hujayralarining biosintetik potentsiali asosida yangi ishlab chiqarish usullarini yaratishdir. Biotexnologiya inson uchun zarur bo'lib, mahsulot va materiallarni biologik ob'ekt yoki moddalar yordamida ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Биотехнология сўзи грекча сўзлар йигиндиси бўлиб, «биос» - ҳаёт, «техне» - санъат, техника ва «логос» – тушунча, таълимот маъноларини билдиради. Катлинский А.В., Сазыкин Ю.О., Орехов С.Н., Чакалева И.И. КУРС ЛЕКЦИЙ ПО БИОТЕХНОЛОГИИ

**Biotexnologiya yo'nalishlarining vazifalari** quyidagilardir:

- Sog'liqni saqlash sohasida turli kasallikkarni davolash, diagnostikasi va profilaktikasi uchun yangi biologik aktiv moddalar va dorivor preparatlarni yaratish;
- Qishloq ho'jaligi o'simliklarini kasallik qo'zg'atuvchilar va zararkunandalardan himoyalashning biologik vositalarini, bakterial o'g'itlar va o'simlik va hayvonlarning o'sish reguluatorlarini; noqulay atrof-muhit omillariga chidamli yangi o'simlik navlarini hamda foydali xususiyatga ega bo'lgan yangi hayvon zotlarini (transgen hayvonlar)ni yaratish;
- Qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorligini oshirish uchun qimmatli ozuqa qo'shilmalarini (ozuqaviy oqsil, aminokislotalar, vitaminlar, ozuqalarni hazm qilishga yordam beruvchi fermentlar va b.) yaratish;
- Qishloq ho'jaligi va veterinariyada turli maqsadlarda qo'llanadigan yuqori samarali preparatlarni bioinjenerlik metodlari yordamida yaratish;
- Oziq-ovqat, kimyoviy va mikrobiologik sanoat uchun qimmatli mahsulotlarni yaratish va ularni olishning yangi texnologiyalarini yaratish;<sup>1</sup>

Qishloq xo'jaligi, xususan dehqonchilik va chorvachilik inson uchun mahsulot va materiallarni yaratish, bularning hammasini biotexnologiya deb nomlash mumkin.

Hozirgi biotexnologiyaning boshlang'ich davri mikroorganizmlar yordamida antibiotiklar, aminokislotalar, vitaminlar, fermentlar, ozuqa oqsillar va boshqa qator moddalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu moddalarni mikroorganizmlar (bakteriya, achitqi bakteriya va boshqalar) biokonversiya natijasida va o'simliklarning yashil barglari fotosintez jarayonida uglevodlar bilan ozuqlanib sintezlaydi. Biokonversiya natijasida tabiiy resurslar asosida ko'pgina turli moddalar energetika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, sog'liqni saqlash uchun turli tuman mahsulotlar ishlab chiqiladi.

Hozirgi vaqtida insoniyat ko'pgina materiallarni – neft, gaz, toshko'mir kabi qimmatli xom ashyoni qayta ishlash natijasida oladi. Ammo bunday qazilma boyliklar miqdori cheklangandir. Shunga ko'ra tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirish maqsadida biotexnologiya fani yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Biotexnologiyaning hozirgi asosiy muammolaridan biri-oziq ovqat muammosini hal etishdir. Er shari aholisining doimiy ravishda o'sib borishi natijasida ocharchilik havfi tug'iladi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda.

---

<sup>1</sup>Катлинский А.В., Сазыкин Ю.О., Орехов С.Н., Чакалева И.И. КУРС ЛЕКЦИЙ ПО БИОТЕХНОЛОГИИ

Biotexnologiya oziq-ovqat muammosini yechishga bevosita ishtirok etadi. Oqsilli moddalarni mikroblti sintezi nafaqat chorvachilikni yuqori sifatl oziq moddalari bilan ta'minlaydi, balki oqsil manbai ham hisoblanadi. O'simliklar va hayvonlar selektsiyasi, o'simliklarni zararkunandalardan, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishning biologik usullarini qo'llash, dehqonchilik va chorvachilikda garmonal preparatlarni qo'llash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini o'sishiga olib kelishi zarur.

Biotexnologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy sabablaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilishdir. 1981 yilda bo'lib o'tgan nazariy va amaliy ximiyaning xalqaro anjumanida "biotexnologiya" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: bu bioximiya, biologiya, mikrobiologiya va ximiyaviy texnologiyani sanoat asosida mahsulot (shuningdek, sog'lioni saqlash, energetika va qishloq xo'jaligidagi mahsulotlar) ishlab chiqarishda va atrof muhitni muhofaza qilishda foydalanishdir. Atrof muhitni muhofaza qilish deganda tuproqdan yaxshi foydalanish, havoni tozaligini ta'minlash, er osti va usti, oqar suvlarni tozalash, qattiq chiqindilardan foydalanish tushuniladi. Atrof muhitni muhofaza qilish biotexnologiyaning mustaqil bo'limi hisoblanadi.

Dunyodagi bir qancha davlatlarda biotexnologiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, Frantsiyada biotexnologiyaga ancha katta davlat mablag'i ajratiladi va biotexnologiya muammolarini echish bilan alohida ilmiy – tekshirish instituti shug'ullanadi, hamda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha vazirlik bilan hamkorlikda ishlar olib boriladi. Xuddi shunday biotexnologiya va tabiatni muhofaza qilish sohalari bo'yicha hamkorlik Kanada va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Yuqorida bayon etilganlardan ma'lumki, biotexnologiya hozirgi zamonning dolzarb masalalarini echishga qaratilgandir.

Bu fanning rivojlanishi biologiyaning qator tarmoqlari, eng avvalo, ba'zi fundamental fanlar (molekulyar biologiya, biologik va bioorganik kimyo, molekulyar genetika) ning yutuqlari hisobiga amalga oshadi.

Turli xil foydali mikroorganizmlarni olishning yangi usullarini genetik injeneriya ochib beradi. Genetik injeneriya usullari bilan yaratilgan mikroorganizmlar ularga xos bo'limgan moddalarni ishlab chiqara boshlaydi. Masalan insulin, interferon kabi biologik aktiv moddalarni ishlab chiqarishda bunday mikroorganizmlardan foydalanish kam xarajat sarflagan holda qimmatbaho preparatlar olish istiqbollarini ochadi.

O'simliklarning yangi nav va shakllarni yaratishda hujayra injeneriyasi katta ahamiyatga ega.

Biotexnologiya mikroorganizmlardan, o'simlik va hujayralardan foydalanish bo'yicha to'plangan tajribalarni sistematikaga solish va boyitishga qaratilgan.

Qator biotexnologik jarayonlardan insonlar ancha qadimdan foydalanganlar. Mesopotomiya va Misrning qadimgi tsivilizatsiya hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazilmalarda non yopish va pivo qaynatish joylarining qoldiqlari yaxshi saqlanganligini ko'rsatadi, bular 4-6 ming yillar avval qurilgandir. Qadimgi Gretsiya va Rimda vino iste'mol qilish keng yoyilgan. Besh ming yillar avval qurilgan qadimgi Misr piramidalarda uzum va undan vino ishlab chiqish tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Non yopish, pivo pishirish va vino tayyorlash asosida achituvchi bakteriyalarning faoliyati yotadi. Yuqorida ko'rsatilganlar biotexnologik jarayon natijasida amalga oshirilgan.

Odamlar qadimdan oziq-ovqat sifatida nordon sut mahsulotlari - qatiq, tvorog, qaymoqlardan foydalanib kelmoqda. Ularni tayyorlashda sut qandi -laktozani sut kislotasigacha parchalovchi bijg'ituvchi sut bakteriyalari ishtirok etadi, sut kislotalarini yig'ilishidan sut oqsili-kazeinning konservatsiya bo'lishi kuzatiladi. Gomerning ishlarida ham pishloq ishlab chiqarishning turli usullari eslatib o'tilgan.

Sut kislotalari bijg'ishi jarayoni asosida sabzavot va mevalarni kvaslash, ozuqalarni siloslash yotadi.

Yuqorida keltirilgan dalillar biotexnologiyaning yuzaga kelishi qishloq xo'jaligi, jumladan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bilan uzviy bog'langanligidan dalolat beradi. Biotexnologiyaning keyingi rivojlanishi agrosfera bilan ham uzviy bog'langan. Chet

ellarda XIX asrlarda chorvachilik va o'simlikshunoslik chiqindilaridan mikroorganizmlar ta'sirida metanga aylanuvchi biogaz qurilmalari qurildi, ulardan o'g'it va energiya sifatida foydalaniladi. "Biotexnologiya" termini XX asrning boshlarida non, yopish, pishloq pishirish, vinochilik va ozuqalarni siloslash kabi inson faoliyatlariga nisbatan qo'llanila boshlandi.

XX asrning 40-yillari oxirida antibiotiklarni yirik miqyosda ishlab chiqarishni tashkil etilishi bilan mikrobiologiya sanoati rivojiana boshlandi. Antibiotiklar nafaqat meditsinada, balki qishloq xo'jaligida hayvon va o'simliklarni davolash uchun, chorva mollarining o'sishni jadallashtiruvchi sifatida ishlatiladi.

Biotexnologiya mustaqil amaliy fan sifatida XX asrning 70- yillari o'rtalarida shakllandi. Bu vaqtida kelib insoniyat birinchi navbatda oziq-ovqat muammosini hal etish, energiya va tabiiy muhitni muhofaza qilish zarurligini tushunib etdi.

Hozirgi vaqtida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida biotexnologiyaning rivojlanishiga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Bu biotexnologiyaning boshqa texnologiyalardan, masalan ximiyaviy texnologiyalardan qator ustunlikka ega ekanligi bilan bog'liq. Birinchidan, biotexnologik ishlab chiqarish kam energiya talab qiladi, asosiy biotexnologik jarayonlar normal bosim (740-760 mm.s.u.) va 20-40 S ga yaqin haroratda kechadi

Ikkinchidan biotexnologik ishlab chiqarish standart asboblardan foydalanishga asoslangan. Bir xil tipdag'i fermenterlar aminokislotalar, vitaminlar, fermentlar, antibiotiklar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.

Uchinchidan, biotexnologik jarayonlarni chiqindisiz ishlab chiqarish jarayoniga o'tkazish murakkab emas. Chunki mikroorganizmlar turli xil substratlarni o'zlashtiradilar, shuning uchun birorta ishlab chiqarish chiqindisini tegishli mikroorganizmlar guruhi yoki shtammlari biotexnologik usullar yordamida qimmatli mahsulotga aylantirishi mumkin.

To'rtinchidan, biotexnologik ishlab chiqarish chiqindisiz bo'lganligidan, ularning ximiya sanoatiga nisbatan ekologik tozaligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, oqsil ishlab chiqishning biotexnologik usuli ancha foydali, chunki u ob-havo sharoitiga bog'liq emas. Bundan tashqari biotexnologik korxonalar qishloq xo'jalik korxonalariga nisbatan kam maydonni egallaydi.

Oltinchidan, biotexnologik usulda mahsulot ishlab chiqarish mexanik va ximiyaviy texnologiyalarga nisbatan yirik kapital mablag'lar talab qilmaydi. Ularni o'tkazish uchun yirik zamonaviy apparaturalar kerak emas.

Yuqorida aytilganlarning barchasi biotexnologiyaning boshqa texnologiyalardan va an'anaviy ishlab chiqarish usullaridan ustunlik qilishini ko'rsatadi.

### Nazorat savollari

1. Biotexnologiya fani nimani o'rganadi?
2. Biokonversiya deganda nimani tushunasiz?
3. Biotexnologiyaning hozirgi asosiy muammosi nimalardan iborat?
4. Oziq-ovqat muammosini hal qilishda oqsilli moddalarni mikrobl siynezining qanday ahamiyati bor?
5. Nazariy va amaliy ximiya xalqaro uyushmasida biotexnologiyaga qanday ta'rif berilgan?
6. Biotexnologiyaning atrof muhitni muhofaza qilish bilan qanday aloqasi bor?
7. Hujayra injeneriyasini nima maqsadlarda qo'llash mumkin?

### Test savollari

1. Ген мухандислигига ферментатив секвенирлаш ким томонидан таклиф этилган?
2. Сенгер, 1977 йил
3. Коэн, 1960 й
4. Уотсан, 1953 й
5. Бутенко, 1975 й

6. Ўсимликларни криосақлаш бу-
7. Ўсимликларнинг соматик ҳужайраларини суюқ азотда сақлаш
8. Ҳужайрани озукавий мухитда сақлаш
9. Ўсимлик уругини сақлаш
10. Ўсимликни генини сақлаш
11. Ген мұхандислигіда қўлланиладиган рестриктаза ферментлари неча типга бўлинади?
12. 3та
13. 4 та
14. 5 та
15. 2 та
16. Ўсимликлар геномига бегона генлар эксперсияси учун нималардан фойдаланилади ?
17. CaMB 35 С- РНК промотори
18. Эукариот РНК полимемиразиацияси
19. Эукариот промоторлар
20. Тўғри жавоб йўқ
21. Секвенирлашнинг 2 та асосий тамоили:
22. Кимёвий ва ферментатив
23. Физик ва кимёвий
24. Ҳеч қандай тамоил ишлаб чиқилмаган
25. Плазмидаларни клонлаш

## 2-MODUL

### Mavzu:Fermentlar muhandisligi

#### Reja:

1. Fermentlar injenerligining asosiy vazifasi.
2. Mikroorganizmlardan ferment preparatlarini ajratib olish usullari
3. Tozalanmagan, kompleks ferment preparatlarining olinishi.
4. CHo'ktirish usullari va uning nazariyasi.
5. Fermentlarni tozalash usullari.

**Tayanch so‘zlar:** ferment preparatlari, cho‘ktirish, tuzlar, tozalash metodlari, organik erituvchilar, dializ, baromeembrana.

**Fermentlar injenerligining** asosiy vazifasi – biologik sistema yoki tirik hujayralardan ajratib olingan fermentlarning katalitik xususiyatlaridan foydalangan holda biotexnologik jarayonlarni yaratishdir. U yangi mahsulotlarni olish, ularning sifatini yaxshilash va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni echadi. Hozirgi kunda amaliyotda fermentlar keng qo‘llanadi.

Ma’lumki, fermentlardan organik sintezlarni katalizatori sifatida foydalilanadi. SHunga qaramay, fermentlarning “nozik” tomoni ham bordir, ya’ni ularning buzilishidir. Ular kam chidamli moddalar bo‘lib, nozik makromolekulyar strukturali oqsillardir. Ular tashqi ta’sir ostida osongina o‘z xossasini yo‘qotadi.

Fermentlar katalizatorligida kechadigan reaksiyalar murakkab mexanizmga ega. Ularning aktivligini tashqi muhitning o'zgarishi, uning kislotaliligi, ularni aktivlashtiruvchi yoki susaytiruvchi qo'shimcha moddalar qo'shish bilan boshqarish mumkindir.

**Fermentlar manbai** turli hayvon, o'simliklarning to'qimalari, mikroorganizmlar bo'lishi mumkin. Fermentlar qaysi biri kerakligi va qaysi birini olish qulayligiga qarab tanlanadi.

YAqin davrlargacha amaliy maqsadlarda hayvon va o'simlik fermentlaridan foydalanib kelingan. Hayvonlardan olinadigan fermentlar go'sht sanoatining yo'ldosh mahsulotlari hisoblanadi. Barcha to'qima va hujayralar ichida fermentlarga boy organ oshqozon osti bezidir. Undan tarkibida bir qator gidrolitik fermentlar (amilaza, proteaza, lipaza va b.) tutgan kompleks preparatlari olinadi. Masalan, oshqozon osti bezidan pankreatin - quritilgan ekstrakt olinadi.

Hayvon xomashyolaridan ayrim fermentlarning tozalangan preparatlari - pepsin, tripsin, ximotripsin, rennin (ximozin), ribonukleaza, DNKaza, lipaza, gialuronidaza, katalaza ham ajratib olinadi.

O'simliklardan sanoat miqyosida proteolitik fermentlarning ayrim preparatlari - papain (qovun daraxti mevasining sharbatidan), fitsin (anjir bargi va *Ficus* oilasiga mansub o'simliklardan) ajratib olinadi.

SHu bilan birga o'simliklardan ferment ajratib olish iqtisodiy jihatdan samarali emas, chunki sarflanadigan o'simlikka nisbatan olinadigan mahsulot kam miqdorda bo'ladi. Undan tashqari har doim ham istalgan mintaqada kerakli o'simlikni o'stirish imkonini yo'q.

Hayvonlardan fermentlarni ajratib olishda ham ayrim qiyinchiliklar tug'iladi. SHuning uchun hozirda fermentlar manbai sifatida mikroorganizmlardan keng foydalanilmoqda.

**Mikroorganizmlar** – ferment olish uchun juda qulay manba hisoblanadi, chunki ularning hujayradagi konsentratsiyasini mikroorganizm o'sishini tezlatish yoki genetik manipulyasiya hisobiga oshirish mumkin. Mikroorganizmlar tez o'sadi, arzon muhitlarda o'sadi va turli fermentlarga boydir.

Mikrob fermentlari hozirda o'simlik va hayvon fermentlari o'rnni bosmoqda. Qator fermentlar meditsina diagnostikasida ham o'ziga xos o'r'in egallab kelmoqda. Masalan, xolesterinoksidaza qon zardobidagi xolesterin, ureaza esa siyidik kislotosi miqdorini miqdorini o'lchashda ishlataladi. Gen injenerligi tadqiqotlarida esa restriktatsion endonukleazalar va ligazalar ishlataladi.

Mikrobiologik usulda olingan fermentlar plastmassa ishlab chiqarishda ham o'r'in egallaydi.

Qattiq yoki suyuq ozuqa muhitlarida o'stirilgan mikroorganizmlarning kulturasи va ularning kultural suyuqliklari tarkibida juda ko'p miqdorda ballast moddalap bordir. Fermentlarni ajratish va tozalash - ko'p mehnat va harajat talab qiluvchi jarayondir, agarda ferment preparati mikroorganizm kulturasи ko'rinishida ishlatsa, u tozalanmaydi. Spirit va terini oshlash tarmoqlarida tozalanmagan mikroorganizmlar kulturasini ishlatalish maqsadga muvofiqdir va xuddi shunday mikroorganizmlarni qishloq xo'jaligida em-xashak tayyorlashda yoki fermalarda emlarni qayta ishslashda qo'llash mumkin.

Oziq-ovqat sanoatining bir qancha tarmoqlarida (non, pivo, vino, pishloq, kraxmal va sharbat ekstraksiya qiluvchi), hamda tekstil, mo'yna va mikrobiologik sanoatlarda, shu jumladan tibbiyotda ballast moddalardan qisman yoki to'liq tozalangan, ya'ni faqat toza ferment preparatlari ishlataladi.

Toza ferment preparatlarini olishning boshlang'ich materiali bo'lib filtrlangan kultural suyuqlik, produtsentning biomassasi yoki qattiq ozuqa muhitda o'stirilgan kulturaning suvli ekstrakti xizmat qiladi. Ferment preparatlari kukun yoki suyuq konsentrat ko'rinishida olinishi mumkin. Ajratish jarayonida preparatning ymumiyl massasida faol oqsilning nisbiy ulushi, ya'ni uning ulushiy faolligi optadi.

**Tozalanmagan, kompleks ferment preparatlarining olinishi.** Tozalanmagan ferment preparati - mikroorganizm kulturasini mo'tadil sharoitda namligi 8-12% ga olib kelingan va butun ozuqa muhiti goldiqlari bilan birgalikdagi massasidir.

Tozalanmagan ferment preparati kulturani qattiq yoki suyuq ozuqa muhitida o'stirish yo'li bilan olinishi mumkin. Suyuq muhitda o'sgan kultura quritishdan oldin biomassasi va ozuqa muhiti qoldiqlaridan qisman tozalangan yoki shundayligicha quritilgan bo'ladi.

Qattiq ozuqa muhitida o'stirilgan mikroorganizm kulturasini odatda 35 dan 58 % gacha namlikka zga bo'ladi. Bunday mahsulot chidamsiz bo'lganligi sababli uni tezda ishlab chiqarishga joriy qilish yoki namligini 10-12% gacha quritib olish kerak. Quritish jarayonidan oldin, o'stirish xonasidan olingen mikroorganizm maydalanadi va keyin quritiladi

Mikroorganizm kulturalarini quritish uchun tasmali, tonnelli, shaxtali, barabanli, javonli (shkafli) va tebranuvchan quritgichlardan foydalanish mumkin. Ishlab chiqarishda, yuqorida qayd qilinganlariga nisbatan ko'proq to'g'ri yo'naltirilgan baraban tipidagi quritgichlar ishlatiladi. Bunda xo'l kultura issiqlik beruvchi qurilma bilan birgalikda 80-85°S da quritgichga tushadi. Bunday yuqori haroratda quritiluvchi xo'l mikroorganizmlarning mayda bo'laklaridagi namni bug'lanishi hisobiga qattiq qizib ketish holati kuzatilmaydi va undagi fermentlarning faolligi to'liq saqlanadi. Ko'pchilik barabanli quritgichlarning ichki tomonida parraksimon kurakchalar mavjud bo'lib, bara6an 6-8 min<sup>-1</sup> tezlikda aylanishi hisobiga quritilayotgan materialni bir tekisda tarqalishini va quritilishini ta'minlaydi. SHuning uchun bunday tipdagi quritgichda quritilgan mahsulot butun massasi bo'ylab bir xil namlikka ega bo'ladi. Ushbu quritgichda mikroorganizm bo'lakchalari 3-7 min. davomida quritiladi, berilayotgan issiqlik tezligi 2-3 m/s, 80-85°S haroratda hamda chiqishda esa 60-65°S bo'ladi va quritilayotgan material harorati 40°Sdir. Quritish jarayonida atigi 3-10% gacha ferment faolligi yo'qotilishi mumkin.

Mikroorganizmlarni quritishda ishlatiladigan quritgichlarning yana bir turi – germetik berk bo'lgan lentali bug' konveyerli quritgichdir. Bunday qurilmalarda fermentning faolligi ko'p yo'qotiladi, lekin ular ixcham va yuqori samaradorlikka ega.

Qattiq ozuqa muhitida o'stirilgan mikroorganizmlarni quritish uchun har xil konstruksiyalı quritgichlardan foydalanish mumkin, qaysiki mahsulotning faolligi pasayishini minimumgacha tushirishni, uning quritgichda 5-8 min. davomida bo'lishi va chiqishida 40-42°S dan pastda bo'lishini ta'minlaydi.

Tayyor quruq mikroorganizmlar maxsus qoplash mashinalarida 25-40 kg qilib qoplanadi va tayyor mahsulotlar omboriga yuboriladi.

Ko'pchilik produtsentlar sintez qilgan fermentlarning asosiy qismini suyuq ozuqa muhitiga chiqaradilar va to'playdilar. Toza ferment preparatlarini produtsentning biomassasi bilan birgalikda filtrlarda, sentrifugalarda yoki separatorlarda ajratiladi.

Mikrobiologiya sanoatida asosan tashqi tomoni bilan filtrllovchi yacheykali-barabanli to'xtovsiz ishlovchi vakuum filtrlar ishlatiladi. Bu filtrlar yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan bo'lib, har xil suspenziyalarni bir xil tezlikda filrlash imkonini beradi. Barabanning sirti to'rsimon bo'lib, bo'z yoki filtrllovchi sun'iy gazlama bilan o'ralgan va u filrlanuvchi suyuqlikka cho'ktirilgan bo'ladi. Filrllovchi sirtda to'plangan har xil erimagan komponent va biomassa maxsus pichoq yordamida tozalanadi.

Baraban filtrlar biomassani ajratish uchun juda qulay, lekin ular past samaradorligi, qo'polligi va aseptika sharoitlarini ta'minlay olmasligi bilan ajralib turadi.

Ferment sanoatida ko'pincha ramali filtr-press ham ishlatiladi. Mahsulot qo'l ishiga asoslangan holda olinadi. Ramali filtr-presslarning filtrllovchi hajmi kichik bo'lganligi sababli barabanli vakuum-filtrga nisbatan ham kam samaradordir. Ramali filtrda filrlash jarayoni 0,6-0,4 Mpa bosim ostida olib boriladi. Odatda filtratning birinchi qismi tiniq bo'lmaydi va u qayta filrlanadi.

Filtr-pressning kamchiliklari gorizontal kamerali tipidagi FPAKM da birmuncha bartaraf etilgan. U ustma-ust joylashgan filtrllovchi plitalar va filtrllovchi gazlamadan iborat. Ushbu uskunaning ishi avtomatlashtirilgan va ish yuzasi 2,5 dan 50 m<sup>2</sup> hajmga zga. Nisbiy samaradorligi boshqalariga nisbatan b-8 marta yuqori va ferment faolligi 4-5% atrofida yo'qotiladi. Ularni ishlab chiqarishga joriy qilish juda istiqbolli va bakteriyalar kultural suyuqligini filrlashda juda qo'l keladi.

Ferment sanoatida 8SM tipidagi separatorlar ham keng qo'llaniladi. Ular ichiga baraban o'rnatilgan idish ko'rinishida bo'ladi. Barabanlarning ichida silindrik to'siqlar o'rnatilgan bo'lib, yuqori tezlikdagi markazdan qochma kuch hisobiga uning tagida cho'kma holida biomassa va boshqa komponentlar cho'kadi. Separatoring samaradorligi yuqori bo'lib, 2000-5000 l/s gacha etadi. Bizda ASE-3, ASI, ASE-B tipidagi separatorlar hamda "Alfa-Laval" (SHvetsiya) firmasining soploli separatorlari ishlatiladi.

Biomassani filtrlash samarasini ishlatilayotgan uskuna tipiga, ozuqa muhit tarkibiga, ajratilayotgan bo'lakchalar katta-kichikligiga, erimagan fraksiyalar miqdoriga, filtrlovchi materialning fizik-kimyoviy xususiyatlari, harorat rejimiga va boshqa omillarga uzbek bog'liqidir. Filtrlash jarayonini yaxshilash maqsadida kultural muhit kimyoviy qayta ishlanadi, ya'ni ishqoriyligi rN 8-8,5 ga keltirib 0,1% li  $\text{CaCl}_2$  eritmasi va har xil kizelgurlar (diatomit, radiolit, mikrozil, klargel va x.k.) qo'shiladi. Bu to'ldiruvchilar filtrlash samarasini oshiradi, lekin ferment faolligiga salbiy ta'sir qiladi. Olingan biomassa (bioshrot) sterilizatsiya qilinadi va quritilib chorva mollariga em sifatida ishlatiladi. Kultural suyuqlik filtrati esa toza ferment preparati olish uchun qayta ishlashga yuboriladi.

*Qattiq ozuqa muhitida o'stirilgan mikroorganizmlardan fermentlarni ekstraksiya qilish.* Barcha fermentlar asosan suvda eruvchandir. SHuning uchun eng yaxshi ekstragent bo'lib suv hisoblanadi. Mikroorganizmlardan fermentlarni olish uchun ular mayda qilinib hujayra devorlari mexanik yoki avtomatik holda buzilib, ekstraksiya jarayoniga jalb etiladi. Bu usulda ham xo'1 holdagi, ham quruq holdagi mikroorganizmdan ferment eritmasini olish mumkin. Biomassadan ferment ekstraksiyasini to'liq amalga oshirish uchun harorat, rN, jarayon davomiyligi, ekstraksiya uskunasining konstruktiv xususiyatlari, ajratilayotgan ferment tabiatini va boshqa bir qancha omillarga bog'liq. Bu omillar har bir produtsent misolida alohida tadqiqotlar yordamida aniqlanadi va tavsiya etiladi. Masalan, harorat ekstraksiya jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi, ya'ni juda ko'p fermentlar termolabil bo'lib, hattoki  $35-40^\circ\text{S}$  da inaktivatsiyaga uchraydi. SHuning uchun zavod sharoitida iloji boricha suvning harorati  $22-25^\circ\text{S}$  da ushlab turiladi va har bir mikroflora o'smasligi uchun antiseptiklardan (formalin, benzol, toluol, xloroform va x.k.dan foydalaniлади. Ko'pchilik holatlarda fermentlarni rN 5-7 ko'rsatkichida to'liq ajratib olish mumkin.

Bioshrot bilan fermentlarni kam isrof garchiligi asosida quyuqlashtirilgan ekstraktlar olish uchun maxsus ekstraksiya uskunalarini ishlatish kerak. Bu qurilmada ekstraksiya qilinayotgan mikroorganizm fermenti nisbatan ko'p faollikni yo'qotadi va qo'l ishiga asoslanadi.

*Vakuum-bug'glantirish usulida ferment eritmalarini quyuqlashtirish.* Qattiq va suyuq ozuqa muhitlarida o'stirilgan mikroorganizmlarning ekstraktlari saqlash uchun chidamsizdir. Tayyor texnik preparat formalarini (P2x va G2x) olish va ularni quyuqlashtirish kerak. Quruq texnik yoki toza ferment ppepapatlarini vakuum-bug'lantirish usuli ham bir bosqich bo'lib hisoblanadi.

Odatda fermentlar bug'lantirish haroratiga juda ta'sirchan bo'ladi. SHuning uchun quyuqlashtirishning asosiy sharti past haroratda qaynatish va jarayonni qisqa muddatda olib borish bilan birga, bug'lantirilayotgan suyuqlikni qizib ketishi va fermentlar inaktivatsiyaga uchrashini oldini olishdir. Agarda quyuqlashtirilayotgan eritma qanchalik toza bo'lsa, shunchalik kam miqdorda har xil moddalarni kam tutadi va undagi ferment yuqori haroratga juda ham ta'sirchan bo'ladi. Qattiq ozuqa muhitida o'stirilgan organizm ekstraktida juda ko'p miqdorda himoyalovchi birikmalar bo'ladi va ular quyuqlashtirish jarayonida ferment inaktivatsiyasini oldini oladi, lekin kultural suyuqlikni quyuqlashtirishda buning aksini kuzatish mumkin, ya'ni ferment ko'p miqdorda faolligini yo'qotadi. Quyuqlashtirish jarayonida ferment eritmalaridagi moddalarning miqdori va mineral tarkibi birmuncha o'zgaradi, quruq modda hisobiga esa 11-20 % ga kamayadi va quyuqlashgan ekstraktning rN ko'rsatkichi ham o'zgaradi. Produtsentning turiga qarab ularning kultural suyuqliklari ham har xil kimyoviy tarkibga va fermentlar kompleksiga ega bo'lganligi uchun, vakuum-bug'lantirishning harorat rejimlari tadqiqot yo'li bilan aniqlanadi.

Ferment faolligini quyuqlashtirish jarayonida yo'qotilishi nafaqat uni olib borilish rejimiga, balki uskuna yoki qurilmaning konstruksiyasiga ham bog'liqidir. Keyingi yillarda

vakuum-bug‘lantirish uskunalarini ancha takomillashtirilmoqda. Ushbu uskunalar trubka shaklida (gorizontal, vertikal va qiya) bo‘lib, jarayonni o‘tish muddatini 10 marotabaga yaqin qisqartirdi va fermentni faolligini yo‘qolishini bir mucha kamaytirdi. Bular jumlasiga «Alfa-Laval» (SHvetsiya), «Edinstvo» (YUgoslaviya), «Lyuva» (SHveysariya), «APV» (Fransiya) va b. bir qancha firmalar uskunalarini kiritish mumkin va ularning samaradorligi 200 dan 20000 l/s ni tashkil qiladi hamda fermentni faolligi 10% atrofida yo‘qotiladi.

*Ferment eritmalarini membranalar yordamida tozalash* Membranali tozalash usuliga dializ va elektrodializ, baromembranali usulga esa qaytariluvchi osmos, ultrafiltratsiya, mikrofiltratsiya va nozik filtratsiya kabilar kiradi.

Eritmadagi moddalarni dializ usulida ajratish – membranani modda massasiga qarab tanlab o‘tkazuvchanlik xususiyatiga asoslangan. Bu jarayon uchun yarimo‘tkazgich membrananing har ikki tomonida eritmalar konsentratsiyasini farqi vujudga kelishi kerak. Dializ jarayonini ushbu tenglik bilan ifodalash mumkin:

$$Q = DdS\Delta C$$

Bunda,  $Q$  – ma’lum vaqt ichida membranadan o‘tgan modda miqdori,  $Dd$  – dializ koeffitsienti,  $S$  – membrana sirtining yuzasi,  $\Delta C$  – membrananing har ikki tomonidagi moddalarning konsentratsiyasi farqi.

Dializdan ferment preparatlari kichik molekulali moddalardan tozalashda foydalaniladi. Masalan, ferment eritmalarini shakar, aminokislotalar, mineral tuzlar va boshqalardan 60-100% gacha bo‘lgan miqdorda tozalashga erishish mumkin. Ayniqsa, fermentlar yuqori konsentratsiyali tuzlar bilan cho‘ktirilganda dializdan va eletrodializdan unumli foydalanish kerak. Lekin to‘rtlamchi strukturaga ega bo‘lgan fermentlarni va metallofermentlarni ajratishda elektrodializdan foydalanish mumkin emas, ya’ni ferment ushbu jarayonda o‘z faolligini yo‘qotadi.

Dializ jarayoni juda sekin o‘tuvchi jarayondir, hamda eritmaning miqdori ko‘p bo‘lganda, juda ko‘p miqdorda membrana sarflanadi. Dializda quyidagi har xil ko‘rinishdagi yarimo‘tkazgich membranalar ishlatiladi, pergament, sellofanning har xil turlari, ultrafiltratsiyada ishlatiladigan membranalar va boshqalardir. Dializ usuli bir qancha kamchiliklarga ega bo‘lganligi sababli hozirgi kunda ishlab chiqarishda ishlatilmaydi. Ba’zan ilmiy laboratoriyalarda fermentlarni yuqori tozalikda olish uchun ishlatilishi mumkin.

Baromembrana usuli ishlatiladigan membranalar tirqishlarining katta-kichikligiga qarab sinflanadi. Masalan, qaytariluvchan osmos ( $\approx 3 \times 10^{-4}$  mkm); gelfiltratsiya ( $15 \times 10,5$  mkm); mikrofiltratsiya ( $0,2$  mkm) va nozik filtratsiya ( $10$  mkm) dir.

Quyuqlashtirish va tozalashning qaytariluvchan osmos va ultrafiltratsiya usullari kimyo, neftni qayta ishlash, oziq-ovqat, farmatsevtika va ferment sanoatlarida juda keng tarqalgan. Eng asosiysi, jarayonni juda ham kam harajatlar va energiya evaziga olib borilishidir. Ultrafiltratsiya jarayonida fermentlarni harorat ta’siridagi inaktivatsiyasi umuman bartaraf qilingan bo‘lib, birvarakayiga eritma bir qancha ballast birikmalardan xona haroratida tozalanadi. Ushbu jarayon yuqori bosim ostida o‘tganligi uchun samaradorligi ham yuqoridir. Bu usulning ham asosiy elementi bo‘lib membranalar hisoblanadi. Hozirgi kunda sellofandan, kauchukdan, polietilenden, polisteroldan, sellyulozadan va b. bir necha xil materiallardan tayyorlangan membranalar ishlatilmoqda.

Membranalar xususiyatiga qarab  $0,05$ - $0,2$  mkm li bir qavatli – izotrop va ikki qavatli – anizotrop turlariga bo‘linadi.

**CHO‘ktirish usullari va uning nazariyasi.** Sanoat uchun zarur bo‘lgan ko‘pchilik fermentlar suvda eruvchan oqsillardir. Ferment eritmalar olinish manbalariga qarab mikroorganizmlar lizatlari, ekstraktlari, kultural suyuqlik filtratlari, o‘simgilik yoki hayvon to‘qimalari gomogenatlari bulishi mumkin. Bu ferment eritmalar tarkibi juda murakkab sistemaga ega. Unda fermentlarni tashqari kolloid tabiatiga ega bo‘lgan har xil birikma va moddalar ham uchraydi. Bunday murakkab sistemalardan fermentlarni ajratib olish mushkul vazifadir.

Ma’lumki, oqsilning gidrofob guruhlari oqsil molekulasi ichida to‘planib harakat joylashadi. Oqsilning har xil erituvchilarda erish darajasi molekula sirtida gidrofob va hidrofil

qoldiqlarning tarqalishi bilan belgilanadi. Oqsillarni asosiy erituvchisi bo‘lgan suvning ba’zi xususiyatlarini (harorat, rN, ion kuchi, neytral tuzlar, organik erituvchilarni yoki inert birikmalarni qo‘shish yo‘li bilan) o‘zgartirish hisobiga oqsil molekulasingin gidrat yoki solvat qatlamiga ta’sir qilib agregatsiyaga uchratish va cho‘kmaga tushirish mumkin. Sanoatda asosan organik erituvchilar yoki tuzlar bilan cho‘ktirishdan foydalaniladi. Bu usullar bir-biridan cho‘ktirish mexanizmi bilan farqlanadi.

*Neytral tuzlar yordamida cho‘ktirish.* Bu jarayon asosan oqsil molekulasingin gidrofobligi darajasiga bog‘liq. Tipik oqsil molekulasi sirtida bir qator aminokislotalar (tirozin, triptofan, leysin, izoleysin, metionin, valin va fenilalanin) zanjiri shaklida yopishgan gidrofob qismlarga ega. Oqsil molekulasingin gidrofob qismi suv bilan to‘qnashganda suv molekulalari bilan orientirlangan qavat hosil bo‘ladi va shu joylar «muzlatilgan» holatda bo‘ladi. Bunday tartibli strukturalar termodinamik jihatdan chidamli emasdir. Agar suv molekulalarini oqsil tabiatiga o‘xshamagan moddalar bilan immobilizatsiya qilinsa, oqsil molekulalari o‘zaro ta’sirlashib aggregatlar hosil qila boshlaydi. Ma’lumki, tuzlarning ionlari gidratlanadi. Agar oqsil eritmasiga ma’lum miqdorda suv qo‘shilsa u suv bilan bog‘lanadi va suvdan bo‘shagan oqsil molekulalari aggregat hosil qiladi. Tuz ionlari qancha ko‘p bo‘lsa, oqsillarning aggregatlanishi ham shuncha kuchayadi va cho‘kmaga tushishi ortadi.

Tuzlar bilan cho‘ktirish jarayoni ta’siriga ko‘ra har xil oqsillarga har xil bo‘ladi. Bu birinchidan, oqsil molekulasi sirtidagi gidrofob qismlarning miqdori va razmeriga bog‘liq. Qancha shunday qismlar ko‘p bo‘lsa, oqsil shuncha tez cho‘kmaga tushadi. Ba’zi oqsillar borki, tuzlarning eng yuqori konsentratsiyalarida cho‘kmaga tushmaydi. Cho‘ktirish jarayonida oqsillar yonida turgan boshqa oqsillar bilan ham aggregat hosil qilib cho‘kmaga tushishi mumkin. Bunda bir qancha fermentlar kompleksini olish mumkin. Lekin fraksiyalarga bo‘lib cho‘ktirilsa bir muncha yuqori natijaga erishish mumkin.

Oqsillarni tuzli eritmada eruvchanligi Konning empirik tenglamasiga bo‘ysunadi:

$$\lg S = \lg S_o - k_s \mu$$

bunda  $S, S_o$  – oqsilning tuzli eritma va toza suvdagi eruvchanligi;  $k_s$  – tuzlash konstantasi,  $\mu$  – eritmaning ion kuchi.

Tuzlar bilan cho‘ktirish jarayonini unumli o‘tkazish uchun  $k_s \mu$  ko‘rsatkichi iloji boricha katta bo‘lishi kerak.  $k_s$  ko‘rsatkichi tuzning tabiatiga bog‘liq bo‘lib, vodorod ionlari konsentratsiyasiga bog‘liq emas. Ushbu jarayon gidrofob o‘zaro ta’sirga asoslangan bo‘lsada uning borishiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham mavjuddir. Ular: muhit rN i, harorat. Ferment eritmasi tozaligi darajasi, jarayonni o‘tkazish muddati va boshqalardir.

Tuz bilan cho‘ktirishda asosan ishqoriy metallarning neytral tuzlari ishlataladi. Har xil ionlarning cho‘ktirish effekti ularning ion kuchiga bog‘liq. Natriy tuzlari anionlarini tuzlash ta’siri kuchiga qarab quyidagicha joylashtirish mumkin:  $\text{SO}_4^{2-} > \text{CH}_3\text{COO}^- > \text{Cl}^- > \text{NO}_3^- > \text{Br}^- > \text{J}^- > \text{CNS}^-$ , hamda kationlarni esa quyidagicha  $\text{Li}^+ > \text{Na}^+ > \text{K}^+ > (\text{NH}_4)^+$ .

Ferment preparatlarini tuz yordamida cho‘ktirilganda ularning tarkibida 60-85% gacha har xil ballast qo‘shimcha moddalar uchrashi mumkin. Ushbu jarayonning eng qiyin bosqichi, bu – tuzni qo‘shish va uni eritishdir. Eritmada tuzning lokal konsentratsiyasini oshirib yubormaslik uchun u avval maydalanib, sekin astalik bilan ma’lum bir qismdan qo‘shib boriladi va tinmay aralashtirib turiladi. Aralashtirish davomida ko‘pik hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Jarayon erigan na aggregatlangan oqsillarning muvozanati hosil bo‘lguncha 20-40 min, ba’zida bir necha soat davom etadi.

Tuz bilan cho‘ktirish juda ham ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lgan murakkab texnologik jarayondir. SHuni esda tutish kerakki, tuz hech qachon fermentni butunlay cho‘ktirmaydi, balki uning eruvchanligini pasaytiradi, xolos. Agar eritmada 1 mg/ml oqsil bo‘lsa uning 90%ni cho‘kmaga tushishi mumkin, lekin zritmada bor-yo‘g‘i 0,1 mg/ml oqsil bo‘lsa hech qanday ferment preparatini olishning iloji bo‘lmaydi.

Neytral tuzlar bilan oqsillarni cho‘ktirib ferment preparatlarini olish usullari asosan chet ellarda keng tarqalgan.

*Organik erituvchilar yordamida cho‘ktirish.* Fermentlarni suvda eruvchan organik erituvchilar bilan cho‘ktirish usullari sanoat miqyosida keng ko‘llaniladi. Oqsillarni

cho'ktirish samarasi organik erituvchilar ta'sirida suvning faolligini kamayishi bilan uzviy bog'liqdir. Erituvchining konsentratsiyasi ortishi bilan fermentning zaryadlangan gidrofil molekulalarini suv ta'sirida solvatlanish qobiliyati pasayadi. Oqsilning gidrofob qismidagi suv molekulalari organik erituvchi tomoniga o'ta boshlaydi va natijada fermentning eruvchanligi pasayadi. Oqibatda oqsil molekulalari agregatlanadi va cho'kmaga tushadi.

Oqsillarni agregatlanishi elektrostatik va Van-der-Vaals kuchlari ta'sirida, alohida joylashgan oqsil molekulalari o'rtasida yuzaga keladi.

Oqsillarni agregatlanishi jarayoni va cho'kma hosil bo'lishi cho'ktirishning bir qancha omillariga bog'liqdir. SHulardan biri oqsil molekulasing razmeridir. CHo'ktirish jarayonida oqsil molekulasing razmeri qanchalik katta bo'lsa, erituvchining salbiy ta'sir qiluvchi konsentratsiyasi shunchalik past bo'ladi. Bu bog'liqlikka molekulaning gidrofoblik darjasи, solvat qavatiga chidamliligi na boshqa omillar ta'sir qilishi mumkin.

CHo'ktirish uchun ishlatiladigan organik erituvchi suv bilan to'liq aralashishi va ferment bilan esa aloqada bo'lmasligi kerak. Asosan bu jarayon uchun etil spirti, atseton va izopropil spirti keng qo'llanilsa, metanol, n-propanol, dioksan, 2-metoksietanol va boshqa spirtlar, ketonlar, efirlar va ularning aralashmalari kamroq ishlatiladi. Erituvchilarni tanlashda ularning toksikligiga, portlash xavfidan xolisligiga va pegeneratsiya bo'lish qobiliyatiga e'tibor berish kerak. Ishlab chiqarish uchun eng yaroqlilari bo'lib etil spirti va izopropanol hisoblansa, atsetonning ko'rsatkichlari esa sal pastroqdir. Bular orasida eng istiqbollisi izopropanoldir. Bu erituvchilar yordamida fermentlarni komplekslarga ajratish yoki fraksiyalar holida cho'ktirib olish mumkin.

Ferment preparatlarini cho'ktirish uchun nafaqat erituvchining tabiatи va konsentratsiyasi, balki elektrolitlarning ishtiroki, cho'ktirish harorati, muhit rN ko'rsatkichi, quruq moddalarning tarkibi na miqdori kabi bir qancha omillarga e'tibor berish kerak. CHo'ktirish eritmasida ba'zi ionlarning uchrashi ferment mo'tadilligiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan,  $Sa^{2+}$  ionlari amilaza, proteinaza, glyukoamilaza fermentlari faolligiga ijobjiy ta'sir qilsa, magniy, marganets, kobalt kabi metall ionlari himoya vazifasini bajaradi. SHular bilan birkalikda ba'zi metallarning ( $Fe^{2+}$ ,  $Pb^{2+}$ ,  $Si^{2+}$ ,  $Ag^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Al^{3+}$ ,  $Hg^{+}$  va x.k.) ionlari salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularning eritmada bo'lishi maqcadra muvofiq emasdir. Eritmada elektrolitlarning bo'lishi erituvchi sarfini kamaytirishga va cho'kma strukturasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ferment eritmasi va erituvchining harorati ferment cho'ktirish jarayonida past bo'lishiga harakat qilish kerak. Spirt va fermentning suvli eritmasi aralashtirilganda issiqlik ajralib chiqishi va aralashma harorati  $5-10^0S$  ga ko'tariladi. Agarda spirt oldindan sovutilgan bo'lmasa fermentlarning inaktivatsiyasini kuzatish mumkin. Bu hodisa nafaqat termoinaktivatsiyaga, hattoki ferment molekulasing denaturatsiyagacha olib keladi.

Ferment preparatlarini cho'ktirishda rN ko'rsatkichi juda katta ahamiyatga ega. Bir xil ferment eritmasidan har xil rN ko'rsatkichi ta'sirida bir-biridan cho'kmasi miqdori va ferment faolligi bilan farq qiluvchi preparatlar olish mumkin. Ma'lumki, fermentlar o'zlarining izoelektrik nuqtalarida oqsil aggregatlari hosil qilib to'liq cho'kmaga tushadilar. Oqsillarni izoelektrik nuqtalarida cho'ktiruvchi reagentlar ishlatmay cho'ktirish jarayoni izoelektrik cho'ktirish deyiladi. Organik cho'ktiruvchilarni izoelektrik nuqta rNiga yaqii rN da qo'llash fermentlarni oson cho'ktirish va erituvchini kam miqdorda sarflash uchun xizmat qiladi. rN ko'rsatkichi izoelektrik nuqtadan chetga chiqsa cho'kma unumi va ferment faolligi 30-50% gacha yo'qotiladi.

Faol fermentni preparat yoki mo'tadil strukturali cho'kma holida olish uchun eritmada 10-12% atrofida quruq modda miqdori bo'lishi kerak. Ko'p tadqiqotlardan ma'lumki, fermentlarni cho'ktirishda, ayniqsa proteolitik fermentlarni, quruq moddaning eng optimal miqdori 10% bo'lishi kerak.

YUqorida qayd qilingan omillar qatorida ferment zritmalarini erituvchi bilan aloqada bo'lish muddati ham katta ahamiyatga zga. Ferment sanoatida to'xtovsiz ishlaydigan cho'ktiruvchilarda ushbu vaqtini juda ham qisqartirishga erishilgandir, bu albatga ferment faolligini kamayishini oldini oladi.

Organik erituvchilar bilan cho'ktirish samaradorligi shu jarayonga mo'ljallangan uskunaga ham uzviy bog'liqdir. Bunday uskunalar asosan ferment zritmalarini qabul qilgich, to'xtovsiz aralashtirgich, ferment eritmasi va erituvchini to'xtovsiz ravishda uzatuvchi konturlar, separator va avtomatizatsiya tizimlaridan tuzilgan bo'ladi. Silindr shaklidagi aralashtirgichdan ferment eritmasi va erituvchi murakkab harakat yo'nalishi bo'ylab qisqa vaqt ichida aralashib o'tadi va natijada hosil bo'lgan aralashma separator qismiga uzatiladi. Separatorda cho'kmaga tushgan oqsil molekulalari ajratib olinadi. Bunday qurilmada ferment bilan erituvchining aloqa muddati o'n marotabagacha qisqartiriladi. Bunda fermentning cho'kmaga tushish unumi 15-20% gacha ortadi. Separatorda ajratilgan cho'kma har xil usullar bilan mo'tadil sharoitda quritib olinadi. CHO'kma tepasida qolgan suyuqlik tarkibida 50-75% gacha erituvchi ulushi bo'ladi va rektifikatsiya bo'limida regeneratsiya qilishga yuboriladi.

Organik erituvchilar bilan cho'ktirish unumi produtsent o'stirilgan ozuqa muhiti tarkibiga va ferment preparatini quyuqlashtirilganlik darajasiga ham bog'liqdir.

### Fermentlarni tozalash usullari.

Fermentlar va boshqa oqsil moddalari har xil erimaydigan adsorbsiya (surilish) qobiliyatiga ega. Bu xususiyat oqsil aralashmalarini birikmalarga ajratishda va ayniqsa fermentlarni laboratoriya sharoitida tozalashda, hamda gomogen bo'lgan ferment preparatlarini olishda ishlatiladi. Adsorbsiya usuli, shu bilan birga kolonkali xromatografiya usullari fermentlarni yuqori darajada toza va ko'p miqdorda olish imkonini beradi.

Oqsillarning muhim adsorbentlari bo'lib, hap xil ional mashuvchilar, ya'ni kalsiy fosfat, alyuminiy gidroksid gellari va ma'lum tipdag'i fermentlar uchun maxsus bo'lgan har xil affin adsorbentlar hisoblanadi. Fermentlarni tozalash va oqsillarni ajratish texnologiyasi qanday tipdag'i usulda bo'lishiga qaramay quyidagilarga asoslanadi. Ferment mahsulotini o'z tarkibiga olgan oqsillar aralashmasi ma'qul bo'lgan erituvchida (buferda) eritiladi va shu erituvchi bilan muvozanatlangan kolonkaga yuboriladi. Keyin shu kolonkadan ma'lum tarkibga ega bo'lgan buferni yoki konsentratsiyasi o'sib boruvchi gradientli yuvish eritmasi, yoki bo'lmasa ushbu ferment uchun maxsus bo'lgan bog'lovchi (ligand) yordamida oqsil bosqichma-bosqich yuvib olinadi. Kolonkadan yuvib olingan ferment preparatlari fraksiyalar to'plamida yig'iladi va fermentni toza preparatini olish uchun boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi.

*Ional mashuv xromatografiya usuli.* Bu usulda oqsillar elektrostatik kuch yordamida bog'lanadilar, ya'ni bu hodisa zaryadlangan oqsil sirtlari va zaryadlangan ionalmashuv birikma guruhlarining zich qatlami o'rtaida yuzaga keladi. Tipik ionalmashuvchi sifatida

bo'ktirilgan dietilaminoetil (DEAE-) yoki karboksimetil (KM) sellyulozani ko'rsatish mumkin. Ular bo'ktirilgan holatda zaryadli guruhlarning 0,5 M konsentratsiyasiga zga bo'ladi. Bu zaryadlap kolonkada qapama-qarshi bo'lgan ionlarni (metall ionlari, xlor ionlari, bufer va h.k. neytrallaydi. Odatda oqsilning umumiy zaryad belgisi ion almashuvchiga o'tirgan ion belgisi bilan bir xil bo'ladi va kolonkadan o'tish jarayonida aynan uni siqib chiqaradi. SHuning uchun ham bu jarayon xususiyatiga qarab "ion almashuv" jumlesi qo'llaniladi.

Kolonkada adsorbsiyalangan kepakli oqsilni yuvish uchun affin usulidan tashqari ikki usuldan foydalaniladi. Birinchi usul - buferning rN ko'rsatkichini ma'lum darajaga o'zgartirish bilan ion kuchini oshirib, adsorbent va oqsil o'rta sidagi elektrostatik o'zaro ta'sirni kamaytirishdir. Bu usul umuman yaxshi natija bermaydi. CHunki bufer hajmini kichik bo'lganligi uchun rN ko'rsatkichini birdaniga o'zgar-tirish oqsil aralashmalariga va boshqa birikmalarning yomon ajralishiga sabab bo'ladi. Keyingi yillarda bu usul L.L.Slyuyterman va boshqalar (1981) tomonidan xromatofokus usuliga o'tkazish yo'li bilan takomillashtirilmoqda. Bunda yuvish jarayonida amfolit tipidagi bufer hajmi yuqori bo'lgan buferlardan foylalaniladi va shu usul keyinchalik sanoat miqyosida o'z o'rmini topishi mumkin.

Ikkinci usul keng miqyosda foydalanilayotgan kaliy yoki natriy xlorid tuzlari yordamida gradient tuzishga asoslangan. Tuz ionlari ishtirokida mustaqil oqsil na adsorbentlar o'rta sidagi o'zaro tortish kuchi kamayadi. Tuz ionlari konsentratsiyasini oshishi bilan adsorbentga bog'langan oqsillar o'z o'rnlarini ularga bo'shatadilar va o'zlarini kolonkadan yuvilib chiq qoshlaydilar. SHu bilan birga tuz ionlari ta'sirida adsorbentlar o'zaro yaqinlashib oqsil harakati

uchun tor yo'lkalar hosil qiladi va bu hodisa fermentlarni kolonkadan chiqishida fraksiyalarga ajratib olish imkonini beradi.

Ion almashuvchiga bog'langan fermentni affinli yuvish yordamida ajratish mumkin. Buning uchun kolonkaga oqsil bilan bog'lanadigan maxsus ligand yuboriladi. Bunda oqsil ligand bilan birgalikda tezda kolonkadan yuvilib chiqadi. Lekin kerakli oqsilni taniydigan va uni sorbentdan ajratib oladigan ligandni topish juda mushkul vazifadir. SHu bilan birga ligandni qanday zaryadlanganligi va konsentratsiyasiga alohida e'tibor berish kerak. Bo'lmasa qarama-qarshi holatda ligand o'zi ionalmashuvchiga bog'lanib qolishi mumkin.

*Affinli xromatografiya usuli.* Bu usul oqsil va fermentlarni tozalash va ajratishning adsorbsiya hodisasiiga asoslangan usullari ichida alohida o'rinni egallaydi. Ko'pincha uni affinli xromatografiya yoki bioaffinli yoki bo'lmasa biospetsifik xromatografiya deyiladi.

Ma'lumki, barcha biologik faol birikmalar, xususan fermentlar ham ligandlar yoki affinli ligandlar deb nomlanadigan birikmalarga maxsus bog'lanish xususiyatlariga egadir. Agarda shunday ligandlarni inert matritsaga kovalent bog'lasa faqat kerakli fermentni ushlovchi va qolgan oqsil va moddalarni o'tkazib yuboruvchi maxsus adsorbentni olish mumkin.

Maxsus yuvuvchilardan yoki jarayon sharoitlari farqi asosida ligandni fermentga bo'lgan xususiyatini o'zgartirish yo'li bilan oqsilni desorbsiyaga uchratib, tozalash natijasida bitta yuqori tozalikka ega bo'lgan fermentni olish mumkindir. Lekin ligand va uni ushlab turuvchini tanlash juda qiyin vazifadir. Ko'pchilik hollarda affinli adsorbentlarni sintez qilishda tozalanayotgan fermentning xususiyatlarini e'tiborga olish kerak. Affinli xromatografiya uchun har xil turdag'i erimaydigan sorbentlardan foydalanadi, lekin eng ko'p tarqalgani ko'ndalang qilib ulangan agaroza donachalaridir. Ular yuqori bosimda o'z shaklini saqlaydi va buferlarni hamda erituvchilarni almashtirishga bardoshlidir.

Ligandlar esa matritsaga shunday bog'langan bo'lishi kerakki, oqsillar hech qiyinchiliksiz ularga kelib bog'lanishi va buning uchun matritsa bilan ligand o'rtasida ko'prikcha bo'lishi kerak. Bulardan tashqari ligand boshqa birikmalar bilan o'zaro bog'lanmasligi, fakat matritsaga bog'langan va yuvish, regeneratsiya jarayonlariga chidamli bo'lishi shartdir.

*Gelxromatografiya usuli.* Gelfiltratsiya jarayonini amalga oshirish uchun dekstran asosida olingan gellardan foydalaniladi va ular yordamida razmeriga qarab har xil makromolekulalarni tez ajratish mumkin. Gel ochiq holdagi ko'ndalang tikilgan uch o'lchamli molekula turi bo'lib, kolonkalarni oson to'ldirish uchun yumaloq donachalar (granula) ko'rinishida bo'ladi. Donachalarda kichik teshikchalari bo'lib, ularga faqat juda kichik molekulalari birikmalar kiradi va yirik molekulalar esa kirmaydi. Bu usul gellarning aynan shu xususiyatiga asoslangandir.

Bu usul fermentlarni tozalash va ajratishda nafaqat laboratoriya, balki sanoat miqyosida ham keng qo'llaniladi. Gelfiltratsiya uchun ko'ndalang tikilgan dekstran (sefadekslar va sefakrillar) gellaridan, ko'ndalang tikilgan poliakrilamid gellaridan (biogellar), akrilamid polimer zanjiri yopishtirilgan agaroza gellardan (ultragellar) va b. agaroza gellaridan foydalaniladi.

Kolonkada ferment eritmasining bir qismi gel donachalar orasida va bir qismi esa donachalarning teshikchalari ichida joylashadi. Gelfiltratsiya – bu tarqaluvchan xromatografiyaning bir shakli bo'lib, eritilgan moddalar eritmaning bir muncha yuzada joylashgan harakatchan va ichki tomonida joylashgan kam harakatli qismlarida tarqalgan bo'ladi. Kolonkada eritilgan moddaning ushlab qolinish darajasi uning gel teshikchalariga kira olish qobiliyatiga bog'liqdir. SHuning uchun gelfiltratsiya jarayonida kolonkadan avval yuqori molekulalari moddalar va keyin esa kichik molekulalilari birin-ketin chiga boshlaydi. Bunda gel molekulyar to'r vazifasini bajaradi. Bu jarayon ideal ravishda olib borilishi uchun gel tayyorlangan material erigan birikmalar ta'siriga juda ham inert bo'lishi kerak. Afsuski bugungi kunda ishlatalayotgan barcha gellar inert emas va ba'zan ma'lum pN ko'rsatkichida ular surish qobiliyatini namoyon qilishi mumkin, masalan, shunday gellarga sefakrillarni kiritish mumkin. Gelfiltratsiya usuli bilan mayda gel donachalarida yuqori bosim ostida juda ko'p har xil moddalarning, shu jumladan oqsillarning aralashmalari ajratilmoxda. Bu yangi yuqori bosim ostida suyuq xromatografiya uslubi qisqa vaqt ichida yuqori darajali ajratish imkonini beradi va u fermentlarni tozalashning oxirgi bosqichlarida juda ham unumlidir.

**Ferment induksiyasi** – kultura muhitida ma'lum bir kimyoviy birikmaning (induktor)ning paydo bo'lishiga ferment sintezining javobidir. Ko'p hollarda substratlarning sarflanmagan analoglari induktor bo'lib hisoblanadi. Masalan,  $\beta$ -galaktozidaza uchun laktozaning metabolizmda qatnashmaydigan izopropil  $\beta$ -D-tiogalaktopiranozid (IPTG) induktor sanaladi. Boshqa tomondan, substrat har doim ham o'ziga tegishli ferment sintezining induktori hisoblanavermaydi. Laktoza, induktor bo'lishi uchun avval o'zining izomeri allolaktozaga aylanishi kerak.

1961 yili F.Jacob va J.Monod *E.coli* bakteriyalari tomonidan laktozaning utilizatsiya jarayonini genetik va biokimyoviy o'rganishlari natijasida "operon modeli" nomli konsepsiyanı ishlab chiqqanlar. Bu modelga ko'ra, boshqarishning ushbu sistemasi 4 ta komponentdan iboratdir: **strukturali genlar, gen-regulyator, operator va promotor**. Gen-regulyator operator bilan bog'lana oladigan oqsil-repressor strukturasini aniqlaydi. Bu o'z navbatida uning yonidagi strukturali genlar faoliyatini nazorat qiladi. Promotor transkripsiya fermenti - RNK-polimeraza bilan bog'lanadigan qismni tashkil qiladi. Agar oqsil-repressor operator bilan bog'langan bo'lsa, u holda RNK-polimeraza promotorga joylasha olmaydi va informatsion RNK sintezlanmaydi. Buning natijasi esa tegishli fermentlar sintezining ro'y bermasligidir. Birinchi marta qamrovli o'rganilgan operon ichak tayoqchasining laktozali operonidir. Mualliflarning fikricha, repressor 2 ta o'ziga xos markazga ega bo'lgan allosterik oqsil hisoblanadi. Ulardan biri operatorning nukleotid ketma-ketligiga, ikkinchisi esa induktor molekulasiiga o'xshashdir. Induktor bilan repressoring o'zaro ta'siri repressorni operatorga o'xshashligini kamaytiradi, natijada operator ajraladi. Lac-operoni repressor toza horlda ajratib olingan va 4 ta bir xil sub'birlididan tuzilgan (umumiy mol. Massasi 150 000 D). Har bir sub'birlik induktorning 1 ta molekulasi bilan o'zaro ta'sirlashadi, ya'ni repressor inaktivlash uchun induktorning 4 ta molekulasi kerak bo'ladi. Repressor toza holda operatorga juda o'xshaydi va in vitro sharoitida Lac-operatorning nukleotid ketma-ketligi bilan bog'lanadi. Induktor bu bog'lanishni buzadi. Ushbu natijalar F.Jacob va J.Monod gipotezasini to'liq isbotlaydi.<sup>2</sup>

### Nazorat savollar

1. Ferment injenerligi deb nimaga aytildi?
2. Ferment injenerligini asosiy vazifasi nimadan iborat?
3. Ferment ajratib olishda qaysi biologik ob'ektlardan foydalilanadi?
4. Ferment ajratib olishda mikroorganizmlardan ko'proq foydalanishning asosiy sababi nimada?

### Test savollari

26. Ген мұхандислигіда ўсимлик хужайраларининг қайси хусусиятлари ҳайвон хужайраларига нисбатан афзал ҳисобланади?
27. Битта хужайрасидан яхлит ўсимлик олиш мүмкінлиги
28. Тез кўпайиши
29. Биологик ва морфологик белгилари
30. Репродуктив хусусиятлари
31. Ген мұхандислигіда қандай ферментлардан фойдаланилади?
32. ревертаза, лигаза, рестриктаза
33. амилаза, лигаза, каталаза
34. трипсин, пепсин, ревертаза

---

<sup>2</sup>Катлинский А.В., Сазыкин Ю.О., Орехов С.Н., Чакалева И.И. КУРС ЛЕКЦИЙ ПО БИОТЕХНОЛОГИИ

35. ферментлардан фойдаланилмайды
36. Сут кислотаси бижгиши асосида . . . маҳсулотларини олиш мумкин.
37. Силос
38. концентрат озука
39. күк озука
40. сифатсиз
41. Каллус тукималари качон регенерацияланиш кобилиятини йукотади
42. Кариганда
43. умуман йукотмайды
44. иккинчи марта кайта экилганда
45. сабаби хали аникланмаган
46. Сунъий озувакий мухитда цитокинин манбай сифатида ..... дан фойдаланилади
47. Кинетин
48. 2.4 Д
49. индолил сирка кислотаси
50. Браствостероид
51. Эндонуклеазаларнинг муҳим хоссаларидан бири.
52. ДНК ёпиқ халқасини бўлиш
53. Гормонлар активлигини ошириш
54. Оқсилиларни парчалаш
55. Жараённи тўхтатиш
56. Генетик инженериянинг асосини . . . ташкил этади.
57. керакли генларни ажратиб олиш
58. ирсийланиш қонуниятлари
59. корреляцион боғланиш
60. мутацион ўзгарувчанлик
61. Ген инженерлиги манипуляциясидан бири.
62. ДНК ни ажратиш
63. оқсилиларга ишлов бериш
64. ўсимликларни пайвандлаш
65. Оқсилини чўкириш
66. Генетик вектор нима?
67. генлар транспорти учун зарур бўлган генетик структура
68. гибридли молекула
69. Хужайра митохондрияси
70. Иммобилланган фермент
71. Ген инженерлигига вектор сифатида нима ишлатилади?
72. Плазмид
73. Рибосома
74. Митохондрия
75. Эндонуклеазалар
76. Ген инженерлигига вектор сифатида ишлатилади .....
77. транспозонлар, вируслар

78. эндонуклеазалар,ДНК полимеразалар

79. митохондрия,эндоплазматик түр

80. рибосома,ядро

**81. Agrobacterium tumefaciensда мавжуд плазмида**

82. Ті-плазмида

83. Ri-плазмида

84. Т-ДНК

85. Плазмида мавжуд эмас

**86. .....ген инженерлигіда вектор сифатыда ишлатылады?**

87. Плазмида

88. Рестриктаза

89. ДНК полимераза

90. ДНК лигаза

**91. Ген инженерлиги манипуляцияси босқичи.**

92. ДНК фрагментини бириктириш

93. фермент синтез қилиш

94. гормонлар синтези

95. хужайраны ҳалок этиш

**96. Рекомбинат нима?**

97. турли организмдаги ДНК фрагментини бириктириш.

98. оқсилларнинг қайта сўрилиши

99. диссоцияланиш жараёни

100. қўпайиш

**101. Ген инженерлиги босқичи**

102. рекомбинатланган ДНК ни тегишли хужайрага киритиш

103. рибосомани ажратиб олиш

104. ферментларни адсорбциялаш

105. ферментни фаоллаштириш.

**106. Соматик гибридизация нима?**

**107. сунъий шароитда этиштирилган иккита жинссиз хужайранинг қўшилиши**

**108. вектор конструкцияси**

109. рекомбинатлашган ДНК

110. иммобилланган фермент

**111. Ҳайвонлар хужайраси инженерлигининг асосчиларидан бири.**

112. Р.Горрисон

113. Ф.Уайт

114. Р.Готре

115. А.Бекер

**116. Ўсимлик хужайраси инженерлигининг асосчиларидан бири:**

117. Ф.Уайт

118. Р.Горрисон

119. А. Бекер  
120. Г.Введенский  
**121. Сунъий озука мухитига қўшиладиган компонент.**  
122. агар-агар  
123. Рингер эритмаси  
124. Локк суюқлиги  
125. Липид  
126. **Хужайра селекциясининг анъанавий усулдан устунлик томони.**  
127. мутаген фактордан самарали фойдаланиш  
128. гибридизацияга эришиш  
129. стериллик холатидан ҳимояланиш  
130. устун томони йўқ
- 131. Ўсимлик ген инженерлигидан фойдаланишнинг асосий йўналиши.**
132. соматик гибридизацияга эришиш  
133. азотофиксация муаммосини ҳал қилиш  
134. стерилликдан холос бўлиш  
135. кўп ўсимлик кўчатларини олиш  
**136. Ўсимлик ген мухандислигидаги муаммомлардан бири**  
137. полифункционал генлар бир пайтнинг ўзида киритилмайди  
138. мутахассис йўқ  
139. гибрид мева олинади  
140. кам ҳосил беради  
141. **Ўсимлик ген мухандислигидаги муаммомлардан бири .....**  
142. 5 авлоддан сўнг актив траскрипцияланувчи ген экспрессияланишдан тўхтайди  
143. мутахассис йўқ  
144. полифункционал генлар бир пайтнинг ўзида киритилади  
145. самара бермайди
- 146. Клонал микрокўпайиш нима?**
147. ўсимлик организмининг тўлиқ жинсиз кўпайиши  
148. микроорганизмлар ёрдамида кўпайиш  
149. организмга бактериянинг таъсири  
150. Жинсий кўпайиш
- 151. Ўсимликлар клонал микрокўпайишнинг асосчиси ким?**
152. Ж.Морел  
153. Р.Бутенко  
154. Р.Горрисон  
155. Ф.Уайт
- 156. Биринчи маротаба антибиотиклар . . . . давлатларида қўлланилган.**
157. Европа ва АҚШ  
158. Япония ва Хитой

159. Россия ва Япония  
160. Хитой ва АҚШ  
**161. Зааркунандаларга қарши курашнинг микробиологик усули асосчиси:**  
162. Луи Пастер  
163. Волгемут  
164. Мегников  
165. Боткин
- 166. Усимликларда термотерапия усулинин куллашдан кузланган максад-**
167. Усимликларни вирусдан холи килиш  
168. Усимликларни турли хашоротлардан холи килиш  
169. Усимликларни тукимасини узгартириш  
170. Усимликлар хосилдорлигини ошириш
- 171. Соматик хужайраларни дурагайлаш нима?**
172. Соматик хужайралар протопластларини бир-бириги кушиш  
173. Соматик хужайраларни бир-биридан ажратиш  
174. Хужайра деворини парчалаб кайта тиклаш  
175. Жинсий хужайраларни ин витро шароитида кушиш
- 176. Биотехнологияда бактерия хужайрасидан кенг фойдаланилади, чунки у ҳар ..... , иккига бўлиниб кўпаяди**
177. 20-60 минутда  
178. 5 минутда  
179. 2 соатда  
180. 1 минутда
- 181. Бир кечакундузда 500 килограммли қорамол 500 грамм оқсил моддаси тўпласа, 500 килограмм ачитқи замбуруғи ..... оқсил тўплайди**
182. 500000 килограмм  
183. 5000 кг  
184. 50 гр  
185. 1 тонна

### 3-MODUL

**Mavzu: Fermentlarni immobillash**

**Reja:**

1. Immobilangan fermentlar.
2. Fermentlarni immobillashda ishlataladigan polimerlar.
3. Polimerlarga qo'yiladigan talablar.
4. Fermentlarni fizikaviy immobillash.
5. Fermentlarni kimyoviy immobillash.

**Tayanch so'zlar:** immobillash, uning metodlari, tashuvchilar, ularning tasnifi, adsorbsiya, gellar, yarimo'tkazgich membranalar, DEAE-sellyuloza, substrat.

Oxirgi 15-20 yillar mobaynida kimyoviy enzimologiyaning rivojlanishi natijasida biologik katalizatorlarning yangi tipi – **immobillangan fermentlar** yaratildi. Ma'lumki toza fermentlar, birinchidan, uzoq vaqt saqlanmaydi, hamda turli ta'sirlarga, ayniqsa issiqlikka chidamsiz, hamda ikkinchidan, ularni qaytadan ishlatish imkonini yo'q. Immobillangan fermentlarning yaratilishi bilan sanoat ishlab chiqarishida toza fermentlar foydalanishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar bartaraf etildi.

Immobilangan fermentlar fermentativ jarayonni uzluksiz o'tkazish va reaksiya tezligini boshqarish imkonini beradi. Fermentlarni immobilash bilan tashuvchining xususiyatini o'zgartirish hisobiga ularning katalitik faolligi boshqariladi.


“Immobilangan fermentlar” atamasi fazoda oqsil molekulari harakatlanish erkinligini istalgan cheklanishini anglatadi.

#### Fermentlarni immobilashda ishlatiladigan tashuvchilar.

Fermentlarni immobilash uchun organik va noorganik tashuvchilar ishlatiladi. Ularga qo'yiladigan asosiy talablar:

- yuqori kimyoviy va biologik turg'unlik;
- yuqori kimyoviy mustahkamlik;
- ferment va substratlар uchun etarli darajada o'tkazuvchan, g'ovakliligi, solishtirma sirti yuqori bo'lishi;
- texnologik jihatdan qulay shakllarda olinishi (granulalar, membranalar);
- oson aktivlanishi;
- yuqori gidrofillik;
- arzon narxda bo'lishidir.

Quyidagi rasmida tashuvchilarning klassifikatsiyasining sxematik ko'rinishi keltirilgan:



Organik (past va quyimolekulyar) tashuvchilar tabiiy yoki sintetik bo'lishi mumkin. Tabiiy polimer organik tashuvchilar o'z navbatida biokimyoviy klassifikatsiyasiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi: polisaxaridli, oqsilli va lipidli.

Sintetik polimerlarni makromolekulasingin asosiy zanjirini kimyoviy tuzilishiga ko'ra polimetilenli, poliamidli, poliefirli guruhlarga bo'lish mumkin.

Fermentlarni immobilash uchun tabiiy polisaxaridlar va polimetil tipidagi sintetik tashuvchilar ko'proq ishlatiladi. Buning sababi ularda kimyoviy reaksiyalarga oson kirisha oladigan reaksiyon xususiyatlari funksional guruhlari mavjud, hamda ularning gidrofilligidir. Kamchiligi esa mikroorganizmlarning ta'siriga chidamsiz va qimmatroqdir.

Polisaxaridli tashuvchilardan sellyuloza, dekstran, agarosa va ularning hosilalari ishlatiladi. Sellyuloza gidrofil xossal, unda gidroksil guruhi ko'p bo'lib, shu guruh xisobiga uni modifikatsiyalaydi. Sellyulozani qisman gidrolizlab (bunda amorf uchastkalari buziladi) granula xoliga keltiriladi va natijada uning mexanik mustahkamligi oshiriladi. Ularning o'rniga g'ovakliliginini saqlab qolish maqsadida kristall uchastkalari orasiga kimyoviy choc kiritiladi.

Granulalangan sellyulozani DEAE-sellyulova, KMS va b. singari turli ionalmashuvchilarining hosilalariga aylantirish mumkin.

Dekstran asosida ishlab chiqilgan "Sefadekslar" deb nomlanuvchi tashuvchilar ham keng ishlatiladi. Quritilganda ular oson siqiladi, suvda kuchli shishadi. Ushbu tashuvchilardagi poraning razmeri "choklilik" darajasi bilan boshqariladi. Dekstranlarning mazkur guruhiba kraxmal ham kiradi. Kimyoviy modifikatsiyalangan kraxmal agentlar bilan "tikiladi", masalan formaldegid bilan. SHunday yo'1 bilan gidrolizga, fermentlarga nisbatan chidamli bo'lgan g'ovak kraxmal olingan. Dekstran asosida yaratilgan suvda eruvchan preparatlar tibbiyotda dorivor vositalar tashuvchi sifatida ishlatiladi.

Agar ham yaxshi tashuvchi hisoblanadi. Uni diepoksid birikmalar bilan kimyoviy tikib xossasini oshirish mumkin. Bunday agar issiqlikka chidamli, pishiq va oson modifikatsiyalananadi.

Oqsillar tashuvchi sifatida bir qancha afzallikkarga egadir: sig'imli, biodegradatsiyaga uchraydi, yupqa membrana (qalinligi 80 mkm) sifatida foydalanish mumkin. Oqsillar fundamental biologik tadqiqotlarda, tibbiyotda ishlatiladi. Kamchiligi esa yuqori immunogenlikka egaligidir. Immobillash uchun ko'proq strukturali (keratin, fibrin, kollagen), harakatchan (miozin) va tashuvchi (albumin) oqsillardan foydalaniladi.

Sintetik polimer tashuvchilar fermentlarni kovalent va sorbsionnoy immobillashda, gel va mikrokapsulalarni olishda ishlatiladi. Sorbsion immobillashda stirol asosidagi polimerlar ishlatiladi. ular makroporali, izoporali struktura, hamda geteroporali strukturaga ega bo'ladi. Polimer gidrofil tashuvchilar olish uchun akril kislotasining hosilasi – akrilamiddan olinadi.

Ferment va hujayralarni fazoviy to'rli strukturali poliakrilamid gelga kiritish metodi hozirda keng qo'llanilmoqda. Poliakrilamid geli kimyoviy ta'sirotlarga chidamlidir. Poliamid tashuvchi guruhi ham qiziqarlidir. Bu amid guruhi (-S(O)-NH-) qaytarilib keladigan turli geterozanjirli polimerlar guruhidir. Masalan, N-vinilpirrolidon asosidagi polimerlar organizmda sekin parchalanadigan fermentlarni immobillash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari ular biologik inert bo'lganligi uchun tibbiyotda ham ishlatiladi. Kamchiligi esa uning organizmda to'planib qolishidir. Bu jihatdan fermentlar ta'sirida gidrolizlanadigan tabiiy polimerlar ahamiyatlidir. SHuning uchun dlori vositalariga dekstran, sintetik tashuvchilardan N-vinilpirrolidon asosida polimerlar qo'shiladi.


### **Fermentlarni immobillash metodlari.**

Fermentlarni immobillash ikki xil metod bilan amalga oshiriladi: fizikaviy va kimyoviy.

Fermentlarni fizikaviy immobillash – bu fermentni shunday bir muhitga joylashtirish bo'lib, bunda ferment umumiylar xajmning bir qismigina kira oladi. Fizikaviy immobillashda ferment bilan tashuvchi kovalent bog' bilan bog'lanmaydi. Fermentlarni bog'lashni 4 tipi ma'lum:

- erimaydigan tashuvchilarda adsorbsiyalish;
- gel porasiga kiritish;
- yarimo'tkazgich membrana yordamida fermentni reaksiyon sistemaning qolgan xajmidan fazoviy ajratish;
- ikki fazali muhitga o'tkazish, bu erda ferment eriydi va fazalardan biridagina joylashishi mumkin.

Bu usullar quyidagi rasmlarda keltirilgan.



Rasm. Fermentlarni immobilash usullari: a - erimaydigan tashuvchilarda adsorbsiyalanish; b - gel porasiga kiritish; v - yarimo'tkazgich membrana yordamida fermentni reaksiyoning qolgan xajmidan fazoviy ajratish; g - ikki fazali muhitga o'tkazish, bu erda ferment eriydi va fazalardan biridagina joylashishi mumkin.

Adsorbsion immobilizatsiya fermentlarni immobilashning qadimgi usuli bo'lib, unga 1916 yili asos solingan. Bu usul juda oson va u fermentning suvli eritmasi bilan tashuvchi orasidagi kontakt hisobiga amalga oshadi. Adsorbsiyalanmagan oqsil yuvib tashlangandan so'ng ferment ishlatishga tayyor bo'ladi. Tashuvchining yuzasida fermentning adsorbsiyalangan molekulasi tashuvchi va oqsilning yuzaki guruhlarining Van-der-vaals o'zaro ta'sirlashuvi, vodorod bog'lari, elektrostatik va hidrofob o'zaro ta'sirlashuvlar hisobiga ushlanishi mumkin. Har bir bog'lanish tashuvchining kimyoviy tabiatini va ferment molekulasingin yuzasidagi funksional guruhlarga bog'liqdir.

Tashuvchi bilan ferment o'rtaSIDAGI ta'sir kuchli bo'lib, biokatalizatorning sorbsiyasi uning strukturasiini buzishi mumkin. Masalan, ba'zi o'simlik hujayralarini sitodeks granulalarida adsorbsiyalanishida hujayra devori tashuvchi zarrachasi yuzasining relefeni takrorlab deformatsiyalanishi mumkin. Adsorbsion immobilizatsiyaning afzalligi uning qulayligi va sorbentlarning arzonligidadir. Ularga istalgan konfiguratsiyani berish va kerakli darajada g'ovak qilish imkoniyati mavjud. Eng muhimi - bu metodning oddiyligidir. Adsorbsion bog'lanishda fermentni tozalash ham mumkin. Ushbu metodning kamchiligi tashuvchi, hamda aniq bir fermentni immobilash uchun optimal sharoitni to'g'ri tanlay imkonini beradigan umumiy yo'riqnomanning yo'qligidir.

Ko'rsatilgan kamchiliklarni immobilangan fermentlarni gelga kiritish bilan bartaraf qilish mumkin. Ushbu metodning maqsadi – ferment molekulasini polimer zanjirlaridan to'qilgan 3

fazali to'rga (gelga) o'tkazishdir. Geldagi qo'shni zanjirlar orasidagi o'rtacha masofa kiritilgan ferment molekulasingin razmeridan kichikdir. SHuning uchun u polimer matriksani tark etolmaydi va atrofdagi eritmaga chiqolmaydi, ya'ni immobillangan holatga bo'la olmaydi.

Fermentlarni gelda immobillashning 2 ta asosiy usuli ma'lum. Birinchisida ferment monomerning suvli eritmasiga solinadi, keyin polimerizatsiyalanadi. Natijada polimerli gel hosil bo'ladi. Reaksiyon aralashmada ko'pincha polimerga uch o'lchamli to'r strukturasini beruvchi bifunksional (molekulasiда 2 ta qo'sh bog'i bor bo'lgan) agentlar qo'shiladi. Ikkinci holatda ferment tayyor polimer eritmasiga solinadi va unga gelsifat holatga o'tkaziladi. Fermentlarni polimer gelga kiritish bilan immobillash preparatga istalgan geometriya konfiguratsiya berish bilan birga tashuvchida biokatalizatorlarni tekis taqsimlash mumkin. Metod universal hisoblanadi, deyarli barcha fermentlar, poliferment sistemalar, hujayra fragmentlari va hujayralarni immobillash uchun qulay. Gelga kiritilgan ferment bakteriyalar bilan zararlanishdan himoyalangan.

Membranalar yordamida fermentlarni immobillashning mohiyati shundaki, bunda fermentning suvli eritmasi substratning suvli eritmasidan yarimo'tkazuvchan membrana yordamida ajratiladi. YArimo'tkazuvchan membrana substratning kichik molekulalarini oson o'tkazadi, katta molekulalarni esa o'tkazmaydi.

Membrana tipidagi sistemadan foydalanish tarkibida ko'p miqdorda ferment bo'lgan immobillangan preparatlarni olish imkonini beradi. Bu metod ham universal va qulay.

Ikki fazali muhit yordamida fermentni immobillashda ferment sistemaning bir fazasidagina eriydi. Substrat va mahsulot qaysi fazada erishiga qarab ikkala fazaaro taqsimlanadi. Fazalarning tabiatи mahsulot qaysi fazada to'planishi va u erda ferment bo'lmasisligiga ko'ra tanlanadi. reaksiyasi yakunlangandan so'ng bu fazani ajratib undan mahsulot ajaratib olinadi. Fermentli fazani esa navbatdagi jarayonda qayta ishlatish mumkin.

Kimyoviy metod bilan immobillashda ferment molekulasi, xususan oqsil, bilan tashuvchi o'rtasida yangi kovalent bog' hosil bo'ladi. Ushbu yo'l bilan immobillangan fermentlarning preparatlari 2 ta muhim yutuqqa ega. Birinchidan, tashuvchi bilan ferment o'rtasida kovalent bog' hosil bo'lgan kon'yugatning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi, tashqi muhit omillari, masalan rN, harorat o'zgarganda ferment tashuvchidan desorbsiyalanmaydi, olinayotgan mahsulotlarni ifoslantirmaydi. Bu esa tibbiyot va oziq ovqatga mo'ljallangan jarayonlarni amalga oshirishda juda muhim. Ikkinchidan, fermentlarni kimyoviy modifikatsiyalab ularning katalitik faolligi, barqarorligi kabi xossasini o'zgartirish mumkin. Bunda fermentning faol markazini iloji boricha saqlab qolish kerak.

Fermentlar (enzimlar) - xilma-xil biokimyoviy va kimyoviy reaksiyalarni amalga oshiruvchi oqsil tabiatiga ega bo'lgan biokatalizatorlardir.

Fermentlardan biologik katalizator sifatida odamlar, turli xil soxadagi amaliy faoliyatlarida keng foydalanib kelishmoqda. Fermentlar manbai xayvon to'qimalari, o'simliklar xujayralari va mikroorganizmlar bo'lishi mumkin. xozirgi zamonda ikki mingdan ortiq fermentlar borligi aniqlangan, ulardan bir necha yuztasi aloxida modda sifatida toza xolda ajratib olingan.

Mikroorganizmlar fermentlar ishlab chiqaruvchi manba sifatida aloxida qiziqish uyg'otadi, chunki ular arzon muxitda tez o'sadilar. Ishlatiladigan ozuqa tarkibiga qarab, kerakli fermentni, xoxlagancha tayyorlash imkoniyatini beradilar. Buning ustiga ko'pgina mikroorganizmlar fermentlarni o'z xujayra qobiqlaridan tashqariga chiqaradilar, bu esa mikroorganizmlardan yanada faolroq foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Metabolizmning katta intensivligidan tashqari mikroorganizmlar biomassasini o'sish tezligi juda kattadir. Bu qisqa vaqt orliqida ayrim vaqtлari 24-72 saat ichida ferment ajratish uchun juda katta miqdorda xam-ashyo olish mumkin, uni xayvon va o'simlik xom ashyolari bilan solishtirib bo'lmaydi.

Ko'plab mikroorganizmlarning muxim xususiyatlaridan yana biri ular ozuqa sifatida xar xil chiqindilardan foydalanib o'sish qobiliyatiga egadirlar (selluloza, neft uglevodorodlari, metan, metanol va boshqalar). Mikroorganizmlar foydalana oladigan ayrim xom-ashyolar odam va xayvonlar uchun zaxarlidir. SHunday ekan mikroorganizmlar fermentlar sintez qilish bilan bir qatorda, atrof-muxit muxofazasi uchun xam xizmat qiladilar.

Ayrim fermentlarning sintezlanish miqdori mikroorganizmlar xujayrasida juda yuqori bo‘lishi mumkin. Masalan: ribulezobisfosfatkarboksilazaning miqdori ayrim vaqtarda fototrof bakteriyalar sintez qiladigan suvda eriydigan oqsilning 40-60% ni tashkil etadi.

YUqorida ta’kidlanganidek ko‘p mikroorganizmlar katta miqdorda kultural muxitga chiqadigan fermentlar xosil qiladilar. Bu fermentlar asosan oqsil, kraxmal, sellyuloza, yog‘larni va boshqa suvda erimaydigan moddalarni parchalaydigan gidrolazalarga ta’luqlidir. Bir qancha fermentlar faqat mikroorganizmlardagina uchraydi. Molekula xolidagi azotdan ammiak xosil qilishda ishtirok etadigan nitrogenaza fermenti azotni o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan bakteriyalardagina uchrashi aniqlangan.

Ayrim bakteriyalarning xarakterli xususiyatlaridan yana biri ularning anorganik substratlarni: ammiakni, nitritlarni, sulfid va oltingugurtni boshqa birikmalarini, va shunga o‘xshash ikki valentli temirni oksidlash qobiliyatidir. Bunday jarayonlarni amalga oshishi mikroorganizmlarda aloxida fermentlarning mavjudligi bilan bog‘liqidir. Bir qancha bakteriyalar va suv o‘tlari molekula xolidagi vodorod xosil qilishi xamda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini olib boruvchi degidrogenaza fermentlari saqlashi aniqlangan.

Ko‘pchilik bakteriyalar ularga metan, metanol, metillangan aminlarni, uglerod oksidini va boshqa bir xil uglerodli birikmalardan substrat sifatida foydalanib, o‘sish va rivojlanishga yordam beradigan fermentlarni sintezlash qobiliyatiga ega. Atrof muxitni, uni ifloslantiruvchi bir qancha moddalardan tozalash mikroorganizmlar ishlab chiqaradigan fermentlar xisobiga amalga oshiriladi, ular plastmassa, pestitsidlarni va boshqa zaxarli murakkab birikmalarini oddiy tarkibiy qismga parchalab yuboradilar.

**Fermentlar klassifikatsiyasi.** qabul qilingan klassifikatsiya tizimiga binoan xamma fermentlar olti sinfga bo‘linadi:

- *Oksidoreduktazalar;*
- *Transferazalar;*
- *Gidrolazalar;*
- *Liazalar;*
- *Izomerazalar;*
- *Ligazalar (sintetazalar).*

Keng miqdorda qo‘llaniladigan mikroorganizmlar fermenti - gidrolazalar sinfiga kiruvchilardir (glikozidazalar, peptidazalar va boshqalar).

Bular glikozid, peptid, efir va ayrim boshqa bog‘larga suv ishtirokida ta’sir qiladi. Gidrolazalar ko‘pincha xujayra tashqarisidagi (ekzogen) fermentlardir. xujayradan chiqib, ular kultural muxitda to‘planadi. Bu fermentlarni olish xujayra ichidagi (endogen) fermentlarni ajratishga nisbatan qulay va arzondir.

**Glikozidazalar.** *Glikozidazalar* -glikozid bog‘larini gidroliz qiluvchi fermentlardir. Bular ko‘p vaqtlardan beri o‘rganiladi va ishlataladi. Bu guruxga kraxmalni gidroliz qiluvchi amilolitik fermentlar,  $\beta$ -amilazalar va glikoamilazalar kiradi. Ko‘p mikroorganizmlar  $\alpha$ -amilaza xosil qiladi,  $\beta$ -amilaza sintezi esa kam kuzatiladi.

Amaliy maqsadlarda qo‘llaniladigan  $\alpha$ -amilazani ajratuvchi *Bacillus licheniformis*, *Bac. amyloliquefaciens*, *Aspergillus oryzae* va boshqa mikroorganizmlardir.  $\alpha$ -amilaza *Bac. licheniformis* dan olinadigan juda yuqori xaroratga chidamli va kraxmalni  $100^{\circ}\text{S}$  atrofidagi xaroratda gidroliz qilish qobiliyatiga egadir. Mikroorganizmlarning ekstremal sharoitda taraqqiy qilish qobiliyatini, ya’ni past va yuqori xaroratda, molekulyar kislorod mavjud bo‘lmaganda, ishqorli va kislotali muxitda, to‘zni yuqori konsentratsiyasida o‘sishi ko‘pincha ularning fermentlari xarakteri bilan aniqlanadi.

SHunday qilib, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mikroorganizmlarda juda yuqori faol fermentativ reaksiya olib borish qobiliyati mavjud, mikroorganizmlar, boshqa yo‘llar bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan juda ko‘p jarayonlarni o‘zlarining maxsus fermentlari tufayli amalga oshirish imkoniyatiga egalar.

Makro- va mikroorganizmlarda bir xil funksiyali fermentlar, o‘zlarining xossa va xususiyatlari jixatidan xar xil bo‘lishi mumkin va mikroorganizmlarda o‘zini faolligini yuzaga

chiqarishi uchun aloxida sharoitga muxtoj bo‘ladi. SHuning uchun turli xil mikroorganizmlar fermentlarini o‘rganish juda muxim vazifadir.

**Glyukoamilaza** - ( $1,4-\alpha$ -D-glyukan-glyukanogidrolaza) asosan zamburug'larda keng o‘rganilgan. **Asp.niger** zamburug‘ida u molekulyar massasi 100 000 dalton atrofida bo‘lgan ikkita glikoproteinlardan iborat. Demak, bu fermentni xususiyatlari bir-biridan farq qiladigan ikkita formasi (shakli) mavjud.

**Dekstranaza** - ( $1,6-\alpha$ -D-glyukan-glyukanogidrolaza) dekistrindagi 1,6-glikozid bog‘iga ta’sir qiladi.

**Laktoza yoki  $\beta$ -galoktozidaza** ( $\beta$ -D-galoktozid-galoktgidrolazalar) laktozani glyukoza va galaktozaga aylantiradi. Bu ferment **E.Coli**, **Asp.niger**, **Sacch.cerevisiae**, **Curvularia inaqualis**, **Alternaria tenuis** va ayrim boshqa mikroorganizmlarda sintez bo‘ladi.

**Invertaza** - ( $\beta$ -D-fruktofuranozid-fruktogidrolaza) saxarozani glyukozaga va fruktozaga parchalaydi. Uni **Aspergillus** turkumi vakillari (**Asp.awamori**, **Asp.batatae**, **Asp.niger**), achitqi zamburg‘i, **Bacillus subtilis** va **Bac.diastaticus** larning aloxida shtammlari xosil qiladi.

**Sellyulotik fermentlar** (sellyulazalar) - faol oqsillarning murakkab kompleksidir, sellyuloza molekulasining xar xil bog‘lariga ta’sir qiladi, S komponent (ekzonukleaza) tabiiy xoldagi sellyulozaga (paxta, filtr qog‘ozi) ta’sir qiladi.  $S_x$ -komponenti (endonukleaza) eriydigan shaklga o‘tkazilgan kletchatkani (karbosimetilsellyulozani) gidrolizlaydi.

Sellyuloza bilan bir qatorda mikroorganizmlar sellobiaza ( $\beta$ -glyukozidaza) xosil qiladi, bu ferment sellyulozani va gemitsellyulozani parchalaydi. Sellyulozani gidrolizining oxirgi bosqichi, glyukoza xosil bo‘lishi bilan tugallanadi.

Sanoatda ishlab chiqariladigan sellyulotik ferment preparatlari odatda  $S_1$  va  $S_x$  va shunga o‘xshash sellobiaza va gemitsellyulaza fermentlari bo‘lib, bu preparatlarning pH ko‘rsatkichi 3,0 dan 8,0 gacha. Mana shu rN lar oralig‘ida ular turg‘undirlar. Sellyulazani xosil qiluvchilar ko‘pincha mitselliali zamburug‘lardir, shulardan **Penicillium notatum**, **P.viriabili**, **P.iriense**, **Trichoderma roseum**, **Verticillium alboatrum** va boshqalardir.

**Pektinazalar** - pektinni parchalovchi fermentlar sintez qiladi. Pektolitik fermentlar kompleks xosil qiladi, uni aloxida komponentlari pektin molekulasi xar xil joylaridan parchalaydi.

Pektinazalar (poligalakturonazalar) mikroorganizm-larda keng tarqalgan bo‘lib o‘simliklarda kam uchraydi.

**Proteinazalar.** Proteinazalar yoki proteazalar - (peptid-peptid-gidrolazalar) oqsil molekulasi dagi peptid bog‘larini uzish reaksiyasini kataliz qiladi, natijada erkin aminokislotalar di- va polipeptidlar xosil qiladi. Bunday fermentlar juda ko‘p. Ulardan ayrimlari kristall xolatda olingan. Mikroorganizmlar proteinazasi o‘zlarining xossalari bilan tubdan farq qilishi mumkin. Ular neytral bo‘lishi mumkin (**Bacillus subillis**, **Asp.terricola**), kislotali (**Asp.foetidus**) va ishqorli, ya’ni pH ning xar xil darajasida faoldirlar. Ayrim mikroorganizmlar bir qancha proteinazalar sintezlash qobiliyatiga egadirlar. Masalan: **Actinomyces fradiae** 6 ta proteinaza sintezlaydi.

**Amilazalar** - bakteriya va zamburug‘lardan olinadigan amilazalar kraxmalni kichik molekulyar shakarlar: dekistrinlar, glyukozalar, maltozalargacha parchalaydi. Bakterial proteinazalar pishloq pishirishda va teri oshlashda oqsillarni buzishda qo‘llaniladi. **Bacillus sp.** dan olinadigan glyukozoizomeraza fermenti glyukozani fruktozaga aylantirishda yordamlashadi. Keyingi vaqtarda olimlar diqqat e’tiborini quyidagilar o‘ziga tortmoqda: siklodikstringlyukoziltransferaza (SDGT) ga moslashish, siklodekstrinlar birikmalarining ishlab chiqarilish: kimyoviy va farmakologik ishlab chiqarishda, oziq-ovqat maxsulotlari sifatini oshirishda, kosmetika va boshqalar ishlab chiqarishda zarurdir.

**Lipazalar** - (3.1.1.3-tratsil glitseroloda gidrolazalar lipid (yog‘) almashinuvida ishtirot etadigan, katta amaliy qiziqish uyg‘otadigan fermentlar.

Kultura o‘sadigan muxitga ajratadigan lipazalarni ishlab chiqaruvchilarning ko‘pi mitselliali zamburug‘lardir. Ulardan **Aspergillus**, **Mucor**, **Geotrichum**, ayrim achitqi zamburug‘lar (**Candida**) va bakteriyalardir (**Pseudomonas**). Lipazalar triatsilglitserollarni parchalab yog‘

kislotalari va glitserin xosil qiladi. Sanoat asosida ko‘p miqdorda ishlab chiqarilayotgan va keng miqyosda xalq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan fermentlardan tashqari, kam miqdorda olinadigan va kam soxada qo‘llaniladigan bir qancha fermentlar xam bor, lekin bularning ayrimlari o‘ta darajada muximdir.

Bular qatoriga restriktazalar (endonukleazalar), nuklein kislotalarni parchalovchi fermentlar va ligazalar - ularni sintezida ishtirok qiladigan fermentlar kiradi. Bu fermentlar gen muxandisligi ilmiy ishlarini olib borishda zarurdir. Bularni xam xil mikroorganizmlar ishlab chiqaradi.

### **Fermentlarning xalq xo‘jaligidagi axamiyati**

Mikroorganizmlar fermentlaridan xalq xo‘jaligining turli xil soxalarida foydalanish juda xam istiqbollidir. Xozirgi vaqtda mikroorganizmlardan olingan ferment preparatlari sanoatning ko‘p soxalarida qishloq xo‘jaligida va tibbiyotda qo‘llanib kelinmoqda (1-jadval).

**1-jadval.**

#### **Ishlab chiqarish sanoatida ba’zi bir fermentlarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan mikroorganizmlar**

| Ferment         | Zamburug‘lar   | Bakteriyalar   |
|-----------------|--|--|
| α-amilaza       | <i>Aspergillus oryzae</i><br><i>Aspergillus niger</i>  | <i>Bacillus amyloliquefaciens</i><br><i>Bacillus licheniformis</i>   |
| Glyukoamilaza   | <i>Aspergillus niger</i><br><i>Rhizopus niveus</i><br><i>Endomycopsis sp.</i>  |  |
| Pullanaza       |  | <i>Klebsiella pneumonia</i>  |
| Dekstranaza     | <i>Penicillium sp.</i>   |  |
| β-Glyukonaza    | <i>Aspergillus niger</i>   | <i>Bacillus amyloliquefaciens</i>  |
| Glyukoizomeraza |  | <i>Actinoplanes missouriensis</i>  |
| Invertaza       | <i>Aspergillus sp.</i><br><i>Sacch. cerevisiae</i>   |  |
| Sellyulazalar   | <i>Aspergillus niger</i><br><i>Trichoderma roseum</i><br><i>Trichoderma viride</i>   |  |
| Pektinazalar    | <i>Aspergillus niger</i><br><i>Aspergillus awomori</i>   |  |
| Proteinazalar   | <i>Aspergillus niger</i><br><i>Aspergillus oryzae</i><br><i>Mucor mihei</i><br><i>Mucor rouxi</i><br><i>Mucor pusillus</i><br><i>Endothia parasitica</i> | <i>Bacillus subtilis</i><br><i>Bacillus amyloliquefaciens</i><br><i>Bacillus licheniformis</i><br><i>Bacillus stearothermophilus</i> |
| Lipazalar       | <i>Aspergillus oryzae</i><br><i>Aspergillus awomori</i>  |  |

|                    |  |                         |
|--------------------|--|-------------------------|
|                    | <i>Candida cylindrica</i><br><i>Mucor mihei</i><br><i>Rhizoopus sp.</i>  |                         |
| Glyukooksidaza     | <i>Aspergillus niger</i><br><i>Penicillium amagaskiense</i><br><i>Penicillium vitale</i><br><i>Penicillium notatum</i> |                         |
| Katalaza           | <i>Aspergillus sp.</i>   |                         |
| Deatsetilaza       | <i>Aspergillus sp.</i>   |                         |
| Aspartaza          |  | <i>Escherichia coli</i> |
| Fumaraza           |  | <i>Escherichia coli</i> |
| Penitsillinamidaza |  | <i>Escherichia coli</i> |

Pivo va vino tayyorlashda solod o‘rniga zamburug‘ning amilaza ferment preparatidan foydalaniladi. Bu ishlab chiqarishni arzonlashtiradi va qalla xarajatini kamaytiradi. SHunga o‘xshash amilaza eriydigan kraxmal, dekstrin olish uchun xam ishlatiladi. Amilaza fermenti bilan berilgan, sabzavot va mevalardan olingan maxsulotlar o‘zining tarkibida ko‘p miqdorda qand moddalari saqlaydi va yaxshi xazm bo‘ladi, ayniqsa, bu bolalarga foydalidir.

Non va non maxsulotlari tayyorlashda amilaza xamirni achishini tezlashtiradi va nonning sifatini yaxshilaydi. Konditer sanoatida achitqi zamburug‘ining invertazasidan (saxarozasasi) foydalaniladi, saxarozanı glyukoza va fruktozaga aylantirib beradi, u saxarozanı yuqori miqdorida kristallanishining oldini oladi.

Zamburug‘larning pektinazasi meva va uzum sharbatini tindirish uchun ishlatiladi. Vino ishlab chiqarishda uzum sharbati chiqish miqdorini ko‘paytirish uchun va kofe ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Glyukoamilazadan pivo tayyorlash sanoatida pivodan dekstrin qoldig‘ini tozalash uchun ishlatiladi. Glyukoizomeraza saxarozanı o‘rniga glyukoza-fruktozali sharbat olishda foydalaniladi.

Laktoza, laktozasiz sut olish uchun ishlatiladi. Laktozalar yordamida tarkibida ko‘p miqdorda laktoza bo‘lgan sut zardobidan qand (glyukoza, galaktoza) olinadi. Zamburug‘larni glyukozaoksidazasi katta axamiyatga ega, chunki bular oziq ovqat maxsulotlarini glyukoza qoldig‘idan va molekulyar kisloroddan ozod qiladi va bu bilan ularni saqlash muddatini o‘zaytiradi.

Glyukozaoksidazani tuxum kukuniga, mayonezga, pivoga ularni uzoq muddatga saqlash uchun ma’lum miqdorda qo‘shiladi. Bu ferment yordamida askarbin kislotasining (S-vitamin) oksidlanishi sekinlashadi.

Sellyuloza preparatidan kartoshkani qandlashtirishda, kartoshka va g‘alladan kraxmal olishda, suv o‘tidan agar-agar chiqarishni ko‘paytirishda, sabzavot pastasi tayyorlashda, sitrus mevalari qobig‘ini ajratishda foydalaniladi. o‘simlik sellyulozasini qandgacha parchalashda ishlatilmoqda.

Mikroorganizmlardan olingan proteolitik fermentlar pishloq tayyorlashda, uni quyuqlashtirish uchun ishlatiladigan renin o‘rnini bosishi mumkin, keyinchalik ulardan go‘shtni yumshatish (tendirizatsiya) uchun foydalanila boshlandi. Bundan tashqari, baliq tuzlanganda uning pishishini tezlatish, vino va pivo tayyorlashda ishlatilmoqda.

Lipaza sutni quruq xolda ishlab chiqarishda o‘z o‘rnini topgan, pishloq tayyorlashda, uning pishishini tezlashtirish uchun, pishloqqa maxsus ta’m va yoqimli xid berish uchun ishlatiladi.

To‘qimachilik sanoatida mikroorganizmlarning fermentlari zig‘irning samoniga ishlov

berib, undan tola olish uchun ko‘pdan beri va keng qo‘llanib kelinmoqda. Zig‘irni namlash jarayonida ishtirok etadigan asosiy mikroorganizm sifatida *Clastridium* turkumiga kiruvchi anaerob bakteriya tan olingan. Namlash vaqtida ketayotgan jarayonda zig‘ir samonidan pektin moddasi parchalanadi va uning tolasi ajralib chiqadi.

Teri ishlab chiqarish sanoatida mikrob proteaza fermenti terini oshlashda va uni mayinlashtirishda ishlatiladi. Tarkibida proteaza va lipaza bo‘lgan kompleks preparatni ishlatish natijasida jarayon tezlashadi va yuqori sifatlari jun olish imkoniyati vujudga keladi.

YUvish vositalari ishlab chiqarishda mikrob fermentlari keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Odatta ularga proteolitik, amiliolitik va lipolitik faollikka ega bo‘lgan *Bac.subtilis* fermentlari qo‘shiladi. Preparatlar sirtqi faol moddalar bilan birgalikda ishlatiladi. Tarkibida ferment bo‘lgan yuvish vositalari yuvish muddatini qisqartiradi, to‘qimalarni saqlanish qobiliyatini o‘zaytiradi, chunki yuvish 40-60<sup>0</sup>S dan oshmagan xaroratda olib boriladi.

Fermentlarni qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishi ikki yo‘nalishda olib borilmoqda:

1. *xayvonlarni ozuqasida foydalaniladi.*
2. *ferment bilan ozuqaga ishlov berib, ularni xazm bo‘lishini oshiriladi.*

*Aspergillus oryzae* ni ozuqa muxiti yuzasida o‘stirish usuli bilan amilorizin - preparati olinadi, bu asosan o‘stirilgan zamburug‘ning qurigani bo‘lib, tarkibidan  $\alpha$ -amilaza, dekstrinaza, maltoza, glyukoamilaza va proteaza bo‘ladi. Glyukovamorin - kepakda o‘stirilgan *Asp.awamori* kulturasining qurigani, tarkibiy qismi  $\alpha$ -amilaza, dekstrinaza, maltoza, glyukoamilaza, nordon proteinaza va gemitsellyulozadan iborat. Amilosubillin preparati tarkibida  $\alpha$ -amilaza, proteaza,  $\beta$ -glyukonaza va lizis qiluvchi fermentlar bo‘ladi.

Mikrob fermentlari tibbiyotning turli xil soxalarida terapevtik vosita sifatida va klinik analizlarni olib borishda qo‘llaniladi. yallig‘lanish jarayonlarini va kuyishni davolash uchun proteinaza preparatlari qo‘llaniladi. Odam organizmida ayrim fermentlarni sintezlanishi buzilganda, aloxida va kompleks xolda fermentlar iste’mol qilinadi. Masalan: oshqozon osti bezini funksiyasi buzilganda, tarkibida proteinaza, amilaza va lipaza kompleksi bo‘lgan preparat qabul qilinadi.

Laktaza va glyukoamilaza sintez qilish qobiliyati yo‘qolganda mikroorganizmlardan olingan shu nomli fermentlardan foydalaniladi. Ovqat xazm qilish jarayoni buzilganda ayrim vaqtarda kompleks fermentlar ( $\alpha$ -amilaza, sellyulaza, lipaza va proteinaza) iste’mol qilinadi. Mikrob fermentlarini tibbiyotda qo‘llash juda istiqbollidir.

### Nazorat savollar

- 1.Fermentlarni iimobilash deb imaga aytildi?
- 2.Fermentlarni immobillash usullari.
- 3.Immobillangan fermentlarni afzalligi nimada?
- 4.Sorbentlarga qanday talablar qo‘yiladi?

### Test savollari

186. Ферментларни олиш йўллари қандай?

187. Экстракция
188. Тиндириш
189. Пресслаш
190. Клонлаш

191. Иммобилизацияланган ферментларнинг афзалликлари.

192. реакцион мухитдан осон ажратилади.
193. ферментнинг нархи арzonлашади.
194. хом ашё сарфини камайтиради
195. Кам маблағ сарфланади
196. **Биотехнологияда қўлланиладиган микроорганизмлар гурухи**
197. Бактериялар
198. Замбуруғлар
199. фильтранувчи вируслар
200. микроблар
201. **Трансформация бу –**
202. бегона ген ва бошқа ирсий белгиларни ташиш
203. хужайра органоиди
204. хужайрани бириктириш
205. нусха кўчириш
206. **Хужайра инженерлиги бу -**
207. хужайра культурасини олиш ва бу объектлардан амалиётда фойдаланиш
208. хужайра органоиди
209. ген даражаси
210. Хромосома даражаси
211. **Нечанчи йилда саноат миқёсида пенисиллин ишлаб чиқарилган?**
212. 1943
213. 1948
214. 1958
215. 1966
216. **Нечанчи йилда Уотсон ва Криклар ДНК молекуласининг тузилишини аниқлашган**
217. 1953 йилда
218. 1966 йилда
219. 1963йилда
220. 1900 йилда
221. **Биринчи рестрикцион эндонуклеаза ажратиб олинган йилни кўрсатинг**
222. 1970 йилда
223. 1966 йилда
224. 1978 йилда
225. 1979 йилда
226. **Тўлиқ ҳажмли тРНК гени синтез қилинган йил –**
227. 1972 йилда
228. 1966 йилда
229. 1978 йилда
230. 1979 йилда
231. **Рекомбинант ДНК технологиясига асос солинган –**
232. 1973 йилда
233. 1966 йилда
234. 1978 йилда
235. 1979 йилда

236. **Моноклонал антитела олинган-**  
237. 1975 йилда  
238. 1966 йилда  
239. 1978 йилда  
240. 1979 йилда
241. **ДНКнинг нуклеотид кетма-кетлигини аниқлаш методи ишлаб чиқилган-**  
242. 1976 йилда  
243. 1966 йилда  
244. 1978 йилда  
245. 1979 йилда
246. **E. Соли ёрдамида инсон инсулини ишлаб чиқилган**  
247. 1978 йилда  
248. 1966 йилда  
249. 1972 йилда  
250. 1979 йилда
251. **Рекомбинант ДНК технологияси бўйича олинган 1 ваксинани ҳайвонларда қўллашга рухсат берилган**  
252. 1982 йилда  
253. 1966 йилда  
254. 1978 йилда  
255. 1979 йилда
256. **Гибрид Ти–плазмидадан фойдаланиб ўсимликлар трансформацияланган**  
257. 1983 йилда  
258. 1966 йилда  
259. 1978 йилда  
260. 1979 йилда
261. **Полимеразанинг занжир реакцияси методи яратилган**  
262. 1988 йилда  
263. 1966 йилда  
264. 1978 йилда  
265. 1979 йилда
266. **Инсоннинг соматик хужайрасидан фойдаланиб ген терапияси синаш режаси тасдиқланди**  
267. 1990 йилда  
268. 1966 йилда  
269. 1978 йилда  
270. 1979 йилда
271. **Инсон хромосомасининг генетик ва физик харитаси чоп этилди**  
272. 1994-1995 йилда  
273. 1966 йилда  
274. 1978 йилда  
275. 1979 йилда
276. **Соматик хужайрадан сут эмизувчи клонлаштирилди**  
277. 1997 йилда  
278. 1966 йилда  
279. 1978 йилда

280. 1979 йилда
281. Қайси Профессор томонидан ёғ парчаловчи фермент-липаза тайёрлаш технологияси, «Ер малҳами” биопрепарати яратилди.
282. К.Д.Давронов
283. М.И.Мавлоний
284. Ж.Тошпўлатов
285. Ё.Тўрақулов
286. Қайси Академик Ўзбекистонда учрайдиган ачитқи замбуруғларни таҳлил қилиб, уларни новвойчилик, виночилик ва чорвачиликка қўл келадиган турларини олди ва улар асосида маҳсус ҳамиртурушлар ва виночилик учун ачитқи тайёрлаш технологияларини яратди.
287. М.И.Мавлоний
288. К.Д.Давронов
289. Ж.Тошпўлатов
290. О.Ҳамидов
291. **Микробиология институти олимни сомон ва ғўзапояни парчалашда «Триходерма ҳарзианум” замбуруги ферментларидан фойдаланиш мумкинлигини илмий асослаб берди.**
292. Ж.Тошпўлатов
293. М.И.Мавлоний
294. К.Д.Давронов
295. И.Абдурахмонов
296. **Микробиология институти олимни Ж.Тошпўлатов сомон ва ғўзапояни парчалашда «Триходерма ҳарзианум” замбуруги ферментларидан фойдаланиш мумкинлигини илмий асослаб берди ва Бу технология қўлланилганда сомонда шакар микдори неча фоизга етгани аниқланг?**
297. 6-7%
298. 1-2%
299. 10-20%
300. 100%
301. **Микробли синтез бу-**
302. турли биологик актив моддаларни микроорганизмлар ёрдамида синтезлаш ҳисобланади.
303. турли биологик актив моддаларни замбуруғлар ёрдамида синтезлаш ҳисобланади.
304. турли биологик ноактив моддаларни эукариотлар ёрдамида синтезлаш ҳисобланади.
305. турли биологик актив моддаларни хайвонлар ёрдамида синтезлаш ҳисобланади
306. **Бирламчи метаболитлар – микробларнинг ўсиши учун зарур бўлган, мол.массаси неча далтондан кам бўлмаган паст молекуляр бирикмалар?**
307. 1500 далтондан
308. 15 далтондан
309. 100 далтондан
310. 2000 далтондан
311. **Саноатдаги энг муҳим метаболитлар –**
312. Барчаси
313. аминокислоталар, органик кислоталар,
314. пурин ва пириимидин нуклеотидлари,

315. эритувчилар ва витаминлар.
316. **Иммобилизациялаш жараёнида фермент тармаштириладиган бирикма-**
317. Сорбент
318. Катализатор
319. Ингибитор
320. Гормон
321. **Escherichia coli** дан ажратиб олинадиган рестриктаза ферментлари
322. EcoR I ва EcoR V
323. Taq I, Hpa II
324. Sal I, Pst I
325. Hinf I, Bai I
326. **ДНКнинг 7 та участкаси РНК билан гибридланмайди ва мРНКда учрамайдиган геннинг ушбу участкалари нима деб аталади**
327. инtronлар деб аталади
328. транспозонлар
329. транскрипция
330. трансляция
331. **Генетик рекомбинация –**
332. икки хромосомалараро генларнинг алмашинувиdir.
333. Кодлаш
334. Генларнинг бирекиши
335. Тўғри жавоб йўқ
336. **Бактерия ҳужайраларига ДНКни киритиш неча усулда амалга оширилади?**
337. 2 усулда
338. 5 усулда
339. 4 усулда
340. 3 усулда
341. **Плазмида қанчалик катта бўлса....**
342. унинг ҳужайрадаги нусхаси шунчалик кам бўлади.
343. унинг ҳужайрадаги нусхаси шунчалик кўп бўлади.
344. унинг гендаги нусхаси шунчалик қисқа бўлади.
345. унинг ҳужайрадаги нусхаси бўлмайди.
346. **Бактерия хромосомасининг 1 мм атрофида бўлиб, у тахминан .... нуклеотидлардан иборат ДНК молекуласидан тузилганdir**
347. 3 млн
348. 6 млн
349. 4 млн
350. 1 млн
351. **1921 йили қайси олимлар итнинг ошқозон ости безидан гормон ажратиб олишган ва унинг антидиабетик хусусияти борлигини айтиб ўтишган.**
352. Торонтода Бантинг ва Бест
353. Уацон ва Крик
354. Mc Доналдс
355. Пастер
356. **Қайси йили ҳайвондан ажратиб олинган инсулин касалланган ёш болага**

**юборилган ва кутилган натижага эришилган.**

- 357. 1922 йили
- 358. 1966 йили
- 359. 1956йили
- 360. 1933 йили
- 361. **Инсулиннинг биринчи кристаллари нечанчи йилда олинган?**
- 362. 1952 йилда
- 363. 1965 йилда
- 364. 1980 йилда
- 365. 1986 йилда
- 366. Суюқ озуқа мұхитида ўстирилган ўсимлик хужайралари күлтуралари ..... дейилади
- 367. суспензион күлтуралар
- 368. аралаш
- 369. қаттиқ
- 370. суюқ
- 371. Протопластлар 2 усулда ажратиб олинади, булар:
- 372. Механик усул, ферментатив усулда
- 373. Кимёвий ва физикавий
- 374. Органик ва анорганик
- 375. Табиий ва сунъий
- 376. Ҳайвон хужайралари қандай ўстирилади.
- 377. суспензия кўринишида ёки қаттиқ субстратга бириктирилган ҳолда
- 378. фақат суспензия кўринишида
- 379. суюқ субстратга бириктирилган ҳолда
- 380. қаттиқ бириктирилган ҳолда
- 381. Фермент олиш учун жуда қулай манба ҳисобланади -
- 382. Микроорганизмлар
- 383. Ўсимликлар
- 384. Ҳайвонлар
- 385. Кимёвий бирикмалар
- 386. Ферментларни ажратиш ва тозалаш –
- 387. кўп меҳнат ва ҳаражат талаб қилувчи жараёндир
- 388. кам меҳнат талаб қилувчи жараёндир
- 389. кам ҳаражат талаб қилувчи жараёндир
- 390. ахамиятсиз жараён
- 391. Қаттиқ озуқа мұхитида ўстирилган микроорганизм күлтураси одатда неча % намлика эга бўлади?
- 392. 35 дан 58 % гача
- 393. Фақат 50%
- 394. Фақат 20-30%

395. 5%
396. Диализдан фермент препаратларини ..... моддалардан тозалашда фойдаланилади.
397. кичик молекулали
398. йирик ҳужайрали
399. катта молекулали
400. кичик бирикмали
401. Фаол ферментни препарат ёки мўътадил структурали чўкма ҳолида олиш учун эритмада .....% атрофида қуруқ модда миқдори бўлиши керак.
402. 10-12%
403. 100%
404. 54%
405. 30-50%
406. Адсорбция-
407. Сўрилиш
408. Кўпайиш
409. Текшириш
410. Кузатиш
411. Оксилларнинг муҳим адсорбентлари бўлиб ..... хисобланади.
412. Барчаси
413. ҳап хил ионалмашувчилар,
414. калций фосфат, алюминий гидроксид геллари
415. маълум типдаги ферментлар учун маҳсус бўлган ҳар хил аффин адсорбентлар
416. Ферментларни иммобиллаш учун қандай ташувчилар ишлатилади?
417. органик ва ноорганик
418. органик ва минерал
419. Анарганик
420. Минерал
421. Ферментларни иммобиллаш қайси метод билан амалга оширилади:
422. физикавий ва кимёвий.
423. Фақат физикавий
424. Фақат кимёвий

#### **4-MODUL**

##### **Mavzu:Gen muhandisligi**

##### **Reja**

1. Gen injenerligi to'g'risida tushuncha
2. Gen injenerligining rivojlanish bosqichlari.
3. Gen, genom, transkriptsiya va translyatsiya to'g'risida tushuncha

#### 4. Gen tuzilishi va ekspressiyasining boshqarilishi.

**Tayanch iboralar va tushunchalar:** Gen, genom, transkriptsiya, translyatsiya, gen injenerligi, hujayra injenerligi, tsistron, mukon, rekon, ekspressiya, fermenter, vaktsina, interferon, insulin, interleykin, kariotip, "yopishqoq" uchli, leykomiya, kon'yuktivit, ximer-gen, avtoreproduktsiya, rekombinant.

Hujayra injenerlarning ijobiy tomonlari bilan birga, uning ayrim muammolari ham yo'q emas. Shular jumlasiga o'simlik va hayvon hujayralarini sun'iy muhitda o'stirish uchun talab etiladigan oziqa muhitining juda ham qimmatligi va sun'iy muhitda hujayralar o'sish sur'atining unchalik faol emasligi, mahsulotning ham, mikroblarga nisbatan sekin ishlab chiqarishligini ko'rsatish mumkin.

Yuqoridaq muammolarni hal etish maqsadida olimlar tomonidan mikrob, bakteriya kabi tirik organizmlarning o'ziga xos bo'lмаган оқсиларни синтез қила олиш ўйларини қидира бoshладilar. Bu borada olib borilgan izlanishlar natijasida bakteriyalardan inson organizmi uchun zarur bo'lgan insulin, interferon, o'sish gormaonlari (interleykin), har xil kasalliklarga qarshi vaktsinalar, sh.j OIDT (SPID) ga qarshi vaktsinalar sintez qilinmoqda.

Oddiy sharoitda, an'anaviy usul bilan mingta kasal odamlarning insulinga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun 30-40 ming hayvondan 4 tn oshqozon osti bezi shirasini yig'ish talab etiladi. Bakteriyalar yordamida esa uncha katta bo'lмаган, sig'imi  $20 \text{ m}^3$  lik fermenterde bir fermentatsiya davomida shuncha miqdordagi insulinni ishlab chiqarish mumkin ekan.

Interferon- organizmning har xil kasalliklarga bardoshliligin oshiruvchi himoya oqsili hisoblanadi. Uning tarkibida 146-148 ta aminokislotadan iborat bshlgan uchxil -  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  tipidan iborat.  $\alpha$ - interferon leykotsitlar sintez qiluvchi toza, tabiiy interferon hisoblanadi,  $\beta$ - va  $\gamma$ -interferonlar esa modifikatsiyalashtirilgan, ya'ni toza interferonga fermentlar ta'sir ettirish natijasida qand qoldiqlari birikmasi kiritilgan. Bakteriya hujayralari bunday moddalarni sintez qila olmaydi, shuning uchun odam geni ko'chirib o'tkazilgan bakteriya shtammlari  $\beta$ - va  $\gamma$ -interferon oqsili molekulasi sintez qilish xususiyatiga ega. Shunday usullar yordamida hozirgi vaqtida 20 % gacha interferonga bo'lgan talab qondirilmoqda.

1982 yildan buyon  $\alpha$ - interferon oqsilini ham sanoat asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi (AQSh ning "Eli-Lilli" firmasi), hozirgi kunda dunyoning ko'p mamlakatlari, sh.j. Rossiyada ham bu mahsulot sanoat asosida ishlab chiqarilmoqda. Bu oqsil tipi leykomiya, teri raki, kon'yuktivit kabi kasalliklarni davolashda qo'llanilmoqda.

Biotexnologiya fani, shu jumladan mazkur fanning istiqbolli yo'naliishlaridan hisoblangan gen injenerligi biologiya fanlari ichida eng yosh sohalardan hisoblanadi.

Genetik injeneriya sohasida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar xromosomalar sonini kariotipda sun'iy ravishda ma'lum miqdorda oshirish yoki kamaytirish bilan bog'liq. Bunga misol qilib N.P.Dubininning (1934y) meva pashshasi ustida o'tkazilgan tajribalarini ko'rsatish mumkin. Bu tajribalarda rentgen nurlaridan foydalangan holda drozofil pashshasi populyatsiyasida xromosomalar to'plami bo'yicha farqlanadigan yangi formalarini hosil qilish mumkinligi isbotlandi.

Hozirgi zamon biotexnologiya fanining boshlanishini ko'pchilik olimlar 1940 yil, ya'ni antibiotiklar, steroidli gormonlar va mikroblar yordamida boshqa xil dorivor moddalarning ishlab chiqarilishidan deb qaraladi.

1956 yili E.Sirs tomonidan rentgen nurlari ta'sirida egilops o'simligi xromosomasida barg zangi kasalligiga chidamlilikni ta'minlovchi gen joylashgan bo'lagini yumshoq bug'doy xromosomasiga ko'chirib o'tkazish, 1971 yilda V.A.Strunnikovning tut ipak qurti autosomasidan tuxum rangini ta'min etuvchi gen joylashgan bo'lagini jinsiy xromosomalarga ko'chirib o'tkazish mumkinligini ko'rsatib berish gen injenerligi sohasida erishilgan yutuqlardan hisoblanadi.

Gen injenerligi usullarini ishlab chiqish va ularni sanoatda qo'llash XX-asrning 70-yillar oxiri va 80-yillar boshiga to'g'ri keladi. Bunda genetik axborotni tashuvchi DNA molekulasiini ajratib olish va shu DNA qo'shbog'ining oxirida chiqib turgan bir ipli "yopishqoq" uchiga ximiyaviy usulda sintezlangan ikki ipli DNA molekulasiini payvandlashga erishildi. Hosil bo'lgan rekombinant gen plazmidasini ichakning tayoqchasimon bakteriyasi hujayralariga

kiritildi. Natijada shu bakteriyalar “ximer”li bakteriyalar sintez qila boshladi, ya’ni asosiy qismi tayoqchasimon bakteriyalarga monand bo’lsada, oxiri (dumi)da sintetik gen belgilari bo’lgan. Birinchi marta gen injenerligi usulida yaratilgan gen – **ximer gen** deyilib, afsonaviy sher (arslon) boshli va ilon dumli echki degan ma’noni anglatadi.

Keyinchalik gen injenerligi usullari tez rivojlanma boshladi. Tez orada ichak tayoqchalarini bakteriyalari gen injenerligi yordamida odamning insulin gormonini sintez qila boshladi va sanoat asosida ishlab chiqarilgan birinchi gen injenerligi mahsuloti hisoblanadi. Ana shu usul bilan qon bosimini boshqaruvchi bradikinin va angiotenzin, og’riq qoldiruvchi enkefalin kabi gormonal preparatlar sintez qilina boshladi.

80-yillar gen injenerligi rivojlanishida katta burilish bo’ldi. Shu yillarda sanoat asosida nafaqat peptid bog’li odam gormonlari, balki haqiqiy oqsillar sintez qilina boshlandi. Dunyo bozorlarida yoki klinika amaliyatida interferon, o’sish gormonlari, interleykin, urokinaza, har xil kasalliklarga qarshi vaktsinalar qo’llanila boshladi.

Hozirgi kunda o’simlik va hayvonlar genini ko’chirib o’tkazish natijasida transgen o’simlik va hayvonlar yaratilmoqda..

**Gen** – irlsiyatning moddiy asosi bo’lib, har bir gen organizmdagi irlsiy belgi va xususiyatlarni nazorat qiladi. Genlar xromosoma tayoqchalarida tizilgan holatda joylashgan. Har bir xromosomada yuzlab va minglab genlar bo’ladi. Hisoblarga qaraganda odam xromosomalarida bir million, balki undan ham ko’p genlar bor ekan.

Organizmdagi ma’lum irlsiy axborotlarni o’zida birlashtirgan genlar yig’indisi **genom** deyiladi. Gen va genomlar DNK da joylashgan. Hujayrada oqsil sintezi ribosomalarda amalga oshiriladi. Ribosomalarga esa kerakli shakl va nusxalardagi oqsil na’munalarini uch xil tipdagi RNK lar DNK dan oladi. DNK molekulasi dagi nukleotidlari tartibi shaklida yozilgan axborotni ko’chirib oladi. Bu jarayon **transkriptsiya** – **ko’chirib yozish** deb ataladi. Haqiqatdan ham bu jarayonda DNK dagi nukleotidlari qatori RNK dagi nukleotidlari qatorida takrorlanadi. RNK ning har uchchala tipi ham yadroda bir xil mexanizmda sintezlanib, so’ngra tsitoplazmaga ko’chiriladi (mRNK –matriksali RNK nusxa oladi, iRNK-axborot RNK kerakli nusxadagi oqsil sintez qilish to’g’risida axborot beradi va bu axborotni tRNK-transport RNK tsitoplazmadagi ribosomaga etkazib beradi).

**Translyatsiya-tarjima qilish** deb yuritiladi. Hujayrada oqsil sintezini ta’minlovchi RNK lar kerakli axborotni, ya’ni qanday oqsil sintez qilishni DNK dan oladi. Bu jarayonda nukleotidlari tartibi nuklein kislotalar tilidan aminokislotalar tartibi-oqsil tiliga tarjima qilinadi. Bu biologik kodlash-genetik kod orqali amalga oshiriladi. Genetik kod ta’limotiga ko’ra nuklein kislotalarda har bir aminokislotalarni taniydigan va tanlab biriktirib tashishda vositachilik qiladigan nukleotidlari kombinatsiyasi mavjud [15]. Ma’lumki gen tushunchasini 1909 yilda Logansen fanga kiritib, uni irlsiy omil deb atadi. Rus olimi Benzer genlarni **muton**, **rekon** va **tsistron** deb atalgan elementlar qismlarga ajratdi.

**Muton**- genning o’zgarish xususiyatiga ega bo’lgan qismi. **Rekon**- genning chalkashish xususiyatiga ega bo’lgan eng kichik qismidir. **Tsistron**- organizmdagi ma’lum belgilarning rivojlanishiga sabab bo’ladi.

Organizmnинг belgi va xususiyatlarni genlar aniqlaydi va nazorat qiladi (boshqaradi). Genlar oqsil biosinteziga, reaktsiyalarning borishiga ta’sir etadi. Irlsiy axborotni tashuvchi DNK genning asosiy komponenti hisoblanadi.

Gen viruslar singari hujayradan tashqarida ko’paya olmaydi va harakat qila olmaydi. Gen avtoreproduktsiyalari hujayrada o’ziga o’xshash genning hosil bo’lishini ta’minlaydi. Gen oqsillardagi aminokislotalar tarkibini va ularning xususiyatlarini aniqlaydi. Gen biron bioximiya viy reaktsiyaning borishiga, organizmlarning ma’lum belgilarining yaxshi rivojlanishiga yoki umuman rivojlanmasligiga sababchi bo’ladi.

Har bir gen o’ziga xos oqsil molekulalari birlamchi strukturalarning sintez qilinishiga ta’sir etadi, biroq bu sintezda o’zi ishtiroy etmaydi.

Gen ko’ptomonlama ta’sir etishi mumkin, ya’ni u har xil reaktsiyalarning borishiga va organizm ko’p belgilarining rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishi mumkin.

*Gen ekspressiyasi* deganda, ma'lum bir gendagi belgi va xususiyatlarning yuzaga chiqishi tushuniladi.

### **Xozirgi vaktda plazmid DNK olishning kupgina usullari mavjud.**

Barcha ulular muolajalarida asosiy 3 ta jarayon amalga oshiriladi: bakterial xujayralarni ustirish (iloji boricha plazmid DNK amplifikatsiyasini kuchaytirish), bakterial xujayralar lizisi va plpzmid DNK ni tozalash. Plazmid DNK ni ajratish va tozalashning barcha usullari xromosoma va plazmid DNK larning fizik-kimyoviy xususiyatlarining farkiga asoslangan. Ikkinchidan plazmidlar xujayralardan kovalent yopik shaklda xam ajratilishi mumkin, bunda xromosoma DNK si ajratish jarayonida bir zanjirli bulaklarga bulinib ketadi. Bu DNK bulaklari odatda katta molekulyar ogirlikka ega bulib, ular ajratish jarayonida denaturatsiyaga uchragan oksillar va xujayra kobiklari bilan birga chukmaga tushadi, plazmid DNK si esa suyuklik kismida koladi (tinik xujayra lizatida). Agar xujayralar lizisi xromosoma DNK sini tanlab denaturatsiya kiluvchi sharoitda olib borilsa plazmid DNK sining kup mikdorda chikishi ta'minlanadi. Buning uchun bakterial xujayralarga ishkor va issiklik bilan ishlov beriladi. Sung denaturatsiyalangan maxsulotlar differentials tsentrifugalash usuli yordamida chuktiriladi. Bir kancha uullar orkali xujayra lizatini tiniklashtirib, sung kerakli mikdorda plazmid DNK ning toza preparatlari olinadi va ularni transformatsiyalash va restriktsiyalash tajribalarida ishlatish mumkin. 33 gen muxandisligi maksadlari uchun yukori tozalikka ega plazmid DNK kerak. Buning uchun plazmid DNKsini preparati etidium bromidli CsCl ning zichligi gradiyentida ultratsentrifugalanadi. Etidium bromid DNK ga urnashib olib, tseziy xlorid zichligi gradiyentida DNK ning suzish zichligini kamaytiradi. Etidiy bromididning DNK bilan boglanishi DNK ning kaysi shakldaligiga bogoik. DNK ning tugri shaklli molekulalari kup mikdordagi, kovalent yopik shakllari esa kamrok mikdordagi etidiy bromidid bilan birikadi. SHuning uchun etidiy bromididli CsCl gradiyentida DNK ning tugri shaklli va ochik xalkali shakllarining suzish zichligi kamyadi, aksincha esa xalkali kovalent yopik DNK molekulalari zichligi kam mikdorda uzgaradi. SHunday kilib, etidiy bromididli CsCl gradiyentida ultratsentrifugalash DNK molekulalarini shakliga karab ajralishiga olib keladi va shu bilan plazmida DNK sining tozaligini ta'minlaydi.<sup>3</sup>

### **Nazorat savollar.**

1. Gen tushunchasini birinchi marta fanga kim va qachon kiritdi?
2. Genlar qanday qismlardan iborat?
3. Muton genning qaerida joylashgan?
4. Rekon genda nima vazifani bajaradi?
5. Tsiston nima va u genda qanday vazifani bajaradi?
6. Gen ekspressiyasi deganda nimani tushunasiz?

### **Test savollari**

425. **Вектор ген билан қайси фермент ёрдамида бириккандан кейин рекомбинант ДНК хосил бўлади?**
426. лигаза ферменти
427. рестриктаза
428. оксиредуктаза
429. трансфераза
430. **Бир геннинг бир неча нусхаси –**
431. Клон

432. Фрагмент  
433. Молекула  
434. Тўплам  
**435. Ҳамма генлар сақловчи одам ДНК си , одамнинг ген кутубхонаси бу-**  
436. Клонотека  
437. Каталог  
438. Банк  
439. Мажмуа  
**440. .... даражасидаги генетик мухандислик хужайра ядросига қўшимча хромосомалар киритиш орқали амалга оширилади**  
441. Хромосома  
442. Ген  
443. Хужайра  
444. Молекула  
**445. Трансген хужайра олиш учун вектор конструкция қайси усул билан хужайрага киритилади ?**  
446. Трансформация  
447. Информация  
448. Регенирация  
449. Имплантация  
450. **ДНК молекуласидан нусха олиш .....деб аталади.**  
451. Репликация  
452. Трансплантация  
453. Амплификация  
454. Иммобиллаш  
455. **Мутацияга учраган ДНК молекуласини асл холатига қайтиш жараёни -**  
456. ДНК репарацияси  
457. ДНК рекомбинацияси  
458. Денатурация  
459. Ренатурация  
460. **Транспозонларни ўсимлик организмида АҚШ олимаси ..... аниқлаган**  
461. Барбара Мак Клинток  
462. В.Н.Шапошникова  
463. М.Н.Бехтерёва  
464. И.А.Бутенко  
465. **Транспозонларни микроорганизмларда АҚШ олими ..... кашф этган.**  
466. Ахмад Бухорий  
467. Жон Томсон  
468. Мюллер  
469. Грегор Мендел  
470. **Транспозонларни хашаротларда Россия олими ..... аниқлаган**  
471. Георгий Георгиев  
472. В.Данилевский  
473. Опарин

474. И.Иванов
475. Плазмид ДНКаси кўпи билан нечта генларни ўзида сақлади?
476. 3-10 тагача
477. 20-30
478. 200 та
479. 1000 та
480. **Наслдан-наслга ўтувчи плазмидлар қандай аталади?**
481. Трансмиссибл
482. Автаном
483. Кўчувчи
484. Кўпаювчи
485. **1892 – 1902 йилларда сахароза эритмасида хар хил ўсимликлар тўқималарини ўстиришга уринган олимлар**
486. Хаберландт, Фехтинг, Рехтигер
487. В.Робинс ва немис олими Котте
488. Фехтинг, Рехтигер
489. В.Робинс, Хаберландт
490. **Ҳайвон тўқималарини ўстириш учун биринчи озуқа нечанчи йилларда тайёрланган?**
491. 1902-1922 йиллар
492. 1892-1902 йиллар
493. 1934-1955
494. 1901-1933
495. **1922 – 1932 йилларда америкалик олим В.Робинс ва немис олими Котте қаттиқ озуқа мухитида қандай ўсимликлар илдизи учидаги меристемаларни ўстириш мумкинлигини исботлашди ?**
496. помидор ва маккажўхор
497. Бодринг ва памидор
498. Маккажўхори ва қалампир
499. Картошка ва сабзи
500. ..... янги синфга мансуб фитогормон – цитокиниларни ихтиро қилиниши, (хусусан кинетинни)
501. 1955 йилда
502. 1958 йилда
503. 1935 йилда
504. 1965 йилда
505. **1932 – 1940 йилларда француз олими..... ин витро шароитида ўсимлик тўқималарини вақти- вақти билан тоза озуқа мухитига кўчириб туриш орқали узоқ вақт ўстириш мумкинлигини намойиш қилган**
506. Р.Готре
507. Э.К.Коккинг
508. Ж.Морел
509. Рехтигер
510. ..... Ноттинген университети профессори Э.К.Коккинг ферментатив йўл билан

**помидор илдиши ва мевасидан протопластлар олиб, озуқавий мұхитда ўстирди**

- 511. 1960 – 1975 йилларда
- 512. 1909 – 1911 йилларда
- 513. 1934 – 1945 йилларда
- 514. 1970 – 1985 йилларда
- 515. **in vitro шароитида каллус ҳосил қилиш учун эксплант дифференсиалланиши жараёнини стимулловчи сифатида ишлатылади:**

  - 516. 2,4-Дихлорфенокси сирка кислотаси
  - 517. Этилен кислотаси
  - 518. абцезат кислотаси
  - 519. Сахараза

- 520. **Эксплантни стерилизацияси, шунингдек уруғлар ..... давомида стерилизация қилувчи эритмада ушлаб түрилади**

  - 521. 10-20 минут
  - 522. 15-50 минут
  - 523. 30-60 минут
  - 524. 2 соат

- 525. **Дастлабки ўсимлик материалларини стерилизация қилиш 1990 йилда ким томонидан таклиф этилди ?**

  - 526. Р.Г.Бутенко
  - 527. Р.Готре
  - 528. Э.К.Коккинг
  - 529. Ж.Морел

- 530. **Ауксин манбаси сифатида озуқа мұхитига ..... қўшилади**

  - 531. 2,4-дихлорфенокси сирка кислота
  - 532. 6-БАП
  - 533. Тиамин
  - 534. Сахароза

- 535. **Агар–агар денгиз сув ўтларидан олинадиган .....**

  - 536. Полисахаридdir
  - 537. Оксилдир
  - 538. Липиддир
  - 539. Нуклеин кислотадир

- 540. **Каллус сўзи ..... деган маънони англатади**

  - 541. Қадоқ
  - 542. Бўлиниш
  - 543. Кўпайиш
  - 544. бир хил

- 545. **Каллус хужайралар қариганда қандай рангга киради, бунга сабаб нима ?**

  - 546. тўқ кўнғир, фенол бирикмаларини тўпланиши
  - 547. Оқ,оқсилларни тўпланиши
  - 548. Сариқ, озуқани эскириши
  - 549. Яшил, озуқа ўзгармайди

- 550. **Клонал микрокўпайтиришни дастлабки муваффақиятларига ўтган асрнинг 50-**

**йиллари охирида француз олими ..... орхидея ўсимлигининг регенерантини яратганда эришилган эди**

551. Жорж Морел  
552. Ф.Скуг  
553. Е.Миллер  
554. Г.Хаберлант  
555. ..... -хужайранинг иммун тизимини фаоллаштирувчи, оқсил табиатли биостимуляторлардир
556. Интерферон  
557. Инсулин  
558. Ўстириш гормони  
559. Фитогормон
560. Қабул қилинган классификация тизимига биноан ферментлар неча синфга бўлинади ?
561. 6  
562. 8  
563. 4  
564. 3
565. .....-гликозид боғларини гидролиз қилувчи ферментлардир
566. Гликозидазалар  
567. Глюкоамилаза  
568. Декстраназалар  
569. Инвертазалар
570. 1916 йилда қайси олимлар инвертаза ферментини кўмири майдасига адсорбция қилинганда (иммобилизация қилинганда), уни фаоллиги сақланиб қолганлигини кузатган ?
571. Д.Ж.Нильсон ва Е.Грифин  
572. Э.К.Коккинг  
573. Ж.Морел  
574. Г.Хаберлант
575. Нечанчи йилда Хеникер (АҚШ) томонидан ферментлар мухандислиги бўйича ўтказилган биринчи умумжакон конференциясида "Иммобилизация қилинган ферментлар" қонунга киритилди.
576. 1971 йилда  
577. 1907 йилда
578. 1987 йилда
579. 2000 йилда
580. Иммобилизация қилинган ферментлар, оддий сувда эрувчи ферментлар олдида бир қатор устунликка эга бўладилар.

581. реакцияни хохлаган вақтда тўхтатиш; биокатализаторни (ферментни) қайта ишлатиш; керакли махсулотни тоза холда олиш имкониятини беради

582. Жуда арzon тушади

583. Қиска муддатда амалга оширилади

584. реакцияни хохлаган вақтда тўхтатиш; керакли махсулотни тоза холда арzon махсулот олиш имкониятини беради, қайта ишлатилмайди

## 5-MODUL

### Mavzu:O'simlik gen muhandisligi.

#### Reja

1. O'simlik gen injenerligining asosiy yo'nalishlari.
2. Gen injenerlik usuli bilan irsiyatni o'zgartirish biotexnologiyasi.

**Tayanch iboralar va tushunchalar:** plazmida, rekombinant, restriktaza, ligaza, vektor konstruktsiya, rekombinant plazmid, elektroforez “yopishqoq uchli”, kallus to'qima, transformatsiya, kallus to'qima, agrobakterium, Ti-plazmid, tDNK, E.coli, EcoR 1.

O'simliklar genetik injenerligi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) madaniy o'simliklarni boshqa o'simliklardan olingen genlar yordamida qo'shimcha zaxira moddalari (zein, sekalin, glutenin, legumin, gliadin, albumin) bilan boyitish;
- 2) xlorofilni aG'b- bog'lovchi oqsillar, ribulozo-1,5-bifosfatkarboksilaza genlari asosida o'simliklarning fotosintez samaradorligini oshirish;
- 3) azotni tashuvchi va to'plovchi genini kodlovchi glutaminsintazadan foydalanib, o'simliklarda azot metabolizmi jarayonini o'zgartirish;
- 4) gerbitsidlarga, tuproq sho'rланishiga, yuqori va past haroratga hamda boshqa noqulay tashqi muhit omillariga chidamlilik qobiliyatini oshirish. Bundan tashqari o'simliklardan odamning muhim oqsillari hisoblangan insulin, interferon, o'sish gormoni olishda ham foydalanish mumkin.

O'simliklar genetik injenerligi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar qatoriga o'simliklar bilan simbioz yashovchi- Rhizobium oilasiga kiruvchi tiganak bakteriyalarini genetik modifikatsiyalashni ham kiritish mumkin. Bu bakteriyalarining hujayralariga plazmid yordamida *hup* (*hydrogen uptake*) –genini kiritish rejalashtirilmoqda. Bunday genlar tabiatda juda kamdan-kam bakteriya shtammlarida (*R. japonicum* va *R. leguminous-arum*) uchraydi. *Hup*- gen gazsimon vodorodni yutib olish va parchalash xususiyatiga ega.

O'simliklar gen injenerligi tadqiqotlarini olib borish olimlar oldiga bir qancha xavf-xatar va muammolarni ham keltirib chiqardi. Jumladan, yaratilgan vektorlar va shu vektorlarni o'zida tashuvchi o'simliklar biotexnologlar nazorati ostidan chiqib ketish xavfi kelib chiqmoqda. Birinchidan gen injenerligi yo'li bilan yaratilgan madaniy o'simliklar begona o'tlarga aylanib qolishi to'g'risida ma'lumotlar tarqalmoqda. Bitta gen bilan bog'liq bo'lgan gerbitsidlarga chidamlilik genini transplantatsiya qilish almashlab ekish agrotexnikasiga katta muammo keltirib chiqarishi mumkin: ma'lum bir ekin maydoniga gerbitsidlarga chidamliliq o'simlikni ekish, kelgusi yilda uning o'rniga almashlab ekiladigan o'simlikka nisbatan begona o't bo'lib qolishi mumkin, chunki ularda gerbitsidlarga chidamlilik geni bo'lganligi sababli, ular ta'sirida o'lmaydi (H.Hauptli, 1985).

Gen injenerlik manipulyatsiyasi keltirib chiqaradigan ikkinchi xavf – bu genetik modifikatsiyalash natijasida bioximik o'zgarishlarga olib kelishi, o'simliklarning oziq-ovqat yoki em-xashakli qimmati yo'qolishi va ular organizm uchun zaharli holatga ham aylanib qolishi

mumkin. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida gen injenerlik yo'li bilan olingan o'simliklarni dala maydonlariga ekishdan oldin, har tomonlama sinab, tekshirib ko'rish lozim [16].

O'simlik irsiyatini gen injenerlik usuli bilan o'zgartirish uchun plazmidning tDNK qismi restriktaza bilan kesib olinadi va rVR322 (pibi-ar 322) plazmidasi bilan biriktirilib klonlanadi. Yaratilgan sun'iy plazmid **vektor konstruktsiya** deb ataladi. Vektor konstruktsianing tDNK qismiga o'simlik geni ko'chirib o'tkaziladi. Natijada tDNK shish chaqirish qobiliyatini yo'qotadi, chunki yot gen tDNKni ikki bo'lakka bo'lib yuborgan. Tarkibida tDNK va yot genga ega vektor konstruktsiya o'simlik protoplastiga kiritilib xromosoma DNKsiga birikishi natijasida yot gen o'simlik irsiyatiga o'tkaziladi. So'ngi yillarda vektor molekula tarkibiga kiritilgan yot genlarni o'ta kuchli elektr maydoni ta'sirida yoki maxsus gen otuvchi zambarak vositasida o'simlik yoki hayvon hujayrasiga kiritish usullari ishlab chiqilgan. Lekin bu usullar texnik jihatdan murakkab va qimmat bo'lganligi sababli maxsus hollardagina ishlatiladi. Genetik transformatsiya qilingan o'simlik xujayrasidan **transgen o'simlik** olinadi (3-rasm).

Transformatsiya qilingan o'simlik hujayrasi bo'linishi natijasida ma'lum bir programma buyicha rivojlanmaydigan xujayralar tuplami hosil bo'ladi. Bunday tuplam **kallus to'qima** deb ataladi. Kallus to'qima xujayralardan ayrimlari o'simlik gormoni va boshqa regulyator moddalar ta'sirida ma'lum programma buyicha bo'lina boshlaydi. Natijada bunday xujayralardan bosqichma-bosqich o'simlik embrion to'qimasi va barcha jihatdan normal, voyaga etgan transgen o'simlik olinadi. Transgen o'simlikning har bir hujayrasi xromosomasida ko'chirib o'tkazilgan gen saqlanadi. Shu sababdan transgen o'simlik jinsiy yul bilan ko'paytirilganda yot gen nasldan-nasnga beriladi.

Gen injeneriyasini qo'llanib ko'sak qurtiga chidamli g'o'za va kolorada qo'ng'iziga chidamli kartoshka o'simligi etishtirilgan.

Klassik genetik usul bilan irsiyatni o'zgartirishning asosiy kamchiligi, ikki genotip chatishdirilganda ularning xo'jalik uchun ahamiyati bor yoki yo'q bo'lgan barcha genlari o'zaro rekombinatsiyalanishidir. Natijada yaratilgan navga genetik tadqiqotchi istagan gandan tashqari, navning xususiyatini buzuvchi ko'pdan-ko'p genlar o'tadi.

Gen injeneriyasi usulini qo'llanganda 6u muammoni hal qilish mumkin. Buning uchun takomillashtirilayotgan o'simlik navi xujayrasiga qimmat6aho, sifatli gen kiritiladi va bu hujayradan etuk o'simlik olinadi. Muayyan bir genni hujayraga kiritish uchun tuproq bakteriyasi Agrobakterium xujayrasidagi plazmidden foydalananiladi. Tabiatda agrobakteriyaning bu turi o'simlikni zararlantiradi. Zararlangan o'simlik tanasidagi xujayralar pala-partish bo'linishi natijasida shish hosil bo'ladi. Bu shishni Ti (Ti-ay) plazmid genomining tDNK (shish hosil qiluvchi DNK) bo'lagi chaqiradi. Buning sababi tDNK o'simlik xujayrasi genomiga birikishi va uning xususiyatini buzishidir. tDNKning bu xususiyatidan gen injenerligida keng foydalananiladi. Bu texnologiyani ilk bor 1972 yilda AQSh olimlari Boyer va Koen tomonidan amalga oshirilgan. Bu olimlar E.soli bakteriyasining xromosoma DNKsini va shu bakteriya plazmidasini alohida idishlarda EsoR 1 restriktaza fermenti bilan ishlov beriladi. Plazmida tarkibida faqat 1 dona EsoR 1 restriktaza fermenti tanib kesadigan maxsus nukleotidlari izchilligi bo'lganligi sababli ferment plazmidaning halqasimon DNK qo'sh zanjirini faqat bir joydan kesib, plazmidani "yopishqoq" uchli ochiq holatga o'tkazadi. Xromosoma DNK molekulasida EsoR 1 restriktaza fermenti taniy oladigan maxsus nukleotidlari izchilligi qancha bo'lsa, bu molekula shuncha bo'lakka bo'linadi. DNK bo'laklarini elektroforez moslamasida kuchli elektr maydonida katta-kichikligiga qarab ajrarataladi va hosil bo'lgan bo'laklar maxsus bo'yoq bilan bo'yaladi. Natijada bir xil kattalikdagi DNK bo'laklari to'plamini oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin. Elektroforez gelidan xohlagan kattalikdagi DNK bo'lagini suvda eritib ajratib olish mumkin. Ajratib olingan "yopishqoq" uchli xromosoma DNKsi bo'lagi ochiq holatdagi "yopishqoq" uchli plazmid DNKsi bilan aralashtirilib ligaza fermenti yordamida tikiladi. Natijada plazmid tarkibiga xromosoma DNK bo'lagi kiritiladi. Shu usulda rekombinant plazmid hosil qilinadi. Bu genetik konstruktsiya plazmidsiz, ya'ni antibiotik ta'siriga chidamsiz bakteriyaga kiritiladi. Rekombinant plazmidli bakteriyalar antibiotikka chidamlilik geni bo'lganligi sababli, plazmidsiz bakteriyadan farq qilib, antibiotik ta'sirida o'lmaydi. Shu sababli tajriba o'tkazilayotgan probirkaga antibiotik qo'shib

rekombinant bakteriya kloni ajratib olinadi va ko'paytiriladi. Bu klonni tashkil etuvchi har bir bakteriyada yot (geterologik) DNK bo'lagi bor bo'lib, bakteriya biomassasi kanchalik ko'paytirilsa, yot DNK bulagi shunchalik ko'payishi mumkin. Undan tashqari, rekombinant plazmid avtonom replikatsiyalanuvchi plazmid bo'lса, yot DNK bo'lagini yana o'nlab baravar ko'paytirish mumkin. Yot DNK bo'lagini bu usulda ko'paytirish *genlarni klonlash* deb ataladi.



#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Gen injenerligi usulining klassik genetik usuldan qanday afzalliklari bor?
2. Ti- plazmidini gen injenerligida nima maqsadda qo'llaniladi?
3. **EsoR 1** restriktaza fermenti to'g'risida tushuncha bering.
4. Ligaza fermenti nima maqsadda qo'llaniladi?
5. Genlarni klonlash deganda nimani tushunasiz?
6. Rekombinant DNK deganda nimani tushunasiz?
7. Rekombinant DNK li bakteriya kloni qanday qilib tanlab va ajratib olinadi?
  1. Nima maqsadda gen injenerligi usuli bilan o'simlik irsiyati o'zgartiriladi?
  2. Plazmida deganda nimani tushunasiz va u nima maqsadda foydalananiladi?
  3. Restriktaza nima va u gen injenerligida qanday ahamiyatga ega?
  4. Ligaza fermenti nima vazifani bajaradi?
  5. Vektor konstruktsiya deganda nimani tushunasiz?
  6. Kallus to'qima nima va u qanday hosil qilinadi.
  7. Gen injenerligi usuli bilan o'simliklarning qanday navlari yaratilgan?
15. Gen injenerligi usulining klassik genetik usuldan qanday afzalliklari bor?
16. Ti- plazmidini gen injenerligida nima maqsadda qo'llaniladi?
  8. EsoR 1 restriktaza fermenti to'g'risida tushuncha bering.
  9. Ligaza fermenti nima maqsadda qo'llaniladi?
  10. Genlarni klonlash deganda nimani tushunasiz?
  11. Rekombinant DNK deganda nimani tushunasiz?

#### **Test savollari**

585. **Н.В.Катева ва Р.Г.Бутенко 1983 йилда клонал микрокўпайиш жараёнини икки типга бўлишни таклиф этди:**
586. ўсимлик меристемасида яшаётганларни активлаштириш ва эмбрион ҳамда куртакларни янгидан ҳосил бўлиш индукцияси

587. ўсимлик ўсишини ингибитирлаш ва эмбрион ҳамда куртакларни янгидан ҳосил бўлиш индукцияси
588. ўсимлик меристемасида яшаётганларни секинлаштириш ва эмбрион ҳамда куртакларни янгидан ҳосил бўлиш индукцияси
589. ўсимлик меристемасида жараённи тўхтатиш, эмбрион ҳамда куртакларни янгидан ҳосил бўлиш индукцияси
590. **Қуийдаги микроорганизмлар прокариотларга кирадилар**
591. Бактериялар
592. Нематодалар
593. Замбуруглар
594. Амебалар
595. **Нуклеин кислоталар молекулалари гидролизи реакцияларини катализловчи ферментларнинг йирик гурухи**
596. Нуклеазалар
597. ДНК лигаза
598. ДНК полимеразалар
599. Рестриктазалар
600. .....ферменти қўшни нуклеотидлар орасидаги фосфодоэфир боғларини тиклаш орқали боғлайди
601. ДНК лигаза
602. Нуклеазалар
603. Рестриктазалар
604. ДНК полимеразалар
605. **Бегона ДНКнинг репликацияси, экспрессияси ва трансформациясини таъминловчи ДНК молекуласи-**
606. Вектор

607. Клон
608. Фермент
609. Бактерия хужайрасидаги
610. **ДНК эритмада .....шаклида учрайди**
611. Анион
612. Катион
613. Ион
614. Нейтрал
615. **Денгиз сув ўтларидан олинадиган полисахарид-**
616. Агароза
617. Аденин
618. Инозит
619. Казеин
620. **Генларни клонлашда фойдаланиладиган репликон**
621. Вектор
622. Кодон
623. Индукция
624. Цитозин
625. **Фитогормонлар қандай мақсадларда қўлланилади?**
626. Барча жавоблар тўғри

627. Ўсимлик ҳужайраларини дефференсиалланиши, бўлинишни бошқаришда
628. Ўсимликларда янги тўқима ва органларни ҳосил бўлишда
629. Ўсимликларни ўсиш ва ривожланишини тезлаштиришда
630. **Фитогормонлар қайси моддалардан ҳосил бўлади?**
631. Органик кислоталардан ва аминокислоталардан
632. Углевод ва ёғлардан
633. Олигосахаридлардан
634. Оксиллардан
635. **Ауксинларни физиологик самараси қандай амалга ошади?**
636. Ҳужайраларни чўзилиши, бўлиниши, дефференсиалланишини амалга оширади
637. Онтогенезни бошқаради
638. Ўсимликлар ҳужайрасини чўзилувчанлигини таъминламайди
639. Ўсимликларни тиним ҳолатидан чиқаради
640. **Цитокининнинг асосий физиологик таъсири нимадан иборат?**
641. Ҳужайраларнинг бўлинишини фаоллаштириш
642. Ўсишни фаоллаштириш
643. Меваларнинг тўкилишига таъсир кўрсатиш
644. **Фитогормонлар қандай мақсадларда қўлланилади?**
645. Барча жавоблар тўғри
646. Ўсимлик ҳужайраларини дефференсиалланиши, бўлинишни бошқаришда

647. Ўсимликларда янги тўқима ва органларни ҳосил бўлишда
648. Ўсимликларни ўсиш ва ривожланишини тезлаштиришда
649. **Фитогормонлар қайси моддалардан ҳосил бўлади?**
650. Органик кислоталардан ва аминокислоталардан
651. Углевод ва ёғлардан
652. Олигосахаридлардан
653. Оксиллардан
654. **Ауксинларни физиологик самараси қандай амалга ошади**
655. Хужайраларни чўзилиши, бўлиниши, дефференсиалланишини амалга оширади
656. Онтогенезни бошқаради, тиним холатига утказади
657. Ўсимликлар хужайрасини чўзилувчанлигини таъминлайди
658. Ўсимликларни тиним холатидан чиқаради
659. Меваларнинг пишиб етилишини таъминлайди
660. **Цитокининнинг асосий физиологик таъсири нимадан иборат?**
661. Хужайраларнинг бўлинишини фаоллаштириш
662. Онтогенезни бошқариш
663. Меваларнинг тўкилишига таъсир кўрсатиш
664. Ўсишни фаоллаштириш
665. **Эмбрионларни микроинекция қилиш учун энг аввало қандай асбоб зарур?**
666. Ишчи стол

667. Микромонипулятор

668. Мухит сақловчи идиш

669. Пипетка

## 6-MODUL

### Mavzu: Hayvon gen muhandisligi

#### Reja

1. Hayvon gen muhandisligi.

2. Ximerli hayvonlar.

2. Virus genlarini joylashtirish va ko'chirish.

Gen injenerligi metodlarining yaratilishiga qadar, 2 ta somatik hujayralarni qo'shish yo'li bilan genlar ko'chirilgan. Agar hujayralarning 2 ta liniyasini birgalikda polietilengilikol yoki inaktivlangan Senday virusi ishtirokida inkubatsiya qilinsa, bu 2 ta hujayra liniyalarining yadrolari qo'shiladi. Hosil bo'lган gibrid hujayralarni selektiv muhitda ajratib olish mumkin. Bunda ma'lum bir belgilar va ma'lum bir xromosomalar o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlab yangidan-yangi genlar xaritasini tuzish mumkin bo'ladi. Gibrid hujayra ko'payishi davomida bitta yoki ikkala ona hujayralarni xromosomalarini yo'qotishi, hamda yillar davomida repressiyalangan genlar ekspressiyalanishi mumkin. Ba'zi hollarda ona hujayra liniyasida «ishlamagan» gen, gibrid hujayralarda «ishlashi» mumkin.

Bir turga mansub bo'lган hayvonlarning embrionlaridagi blastomelarni qo'shish orqali ximerli hayvonlar olingan.

Yirik shoxli ximerli hayvonlarni 5-6,5 kunlik embrionlarni yarimta-yarimtasini o'zaro qo'shish yo'li bilan ham olingan. Qo'shilgan embrionlarni jarohsizlik yo'li bilan ko'chirib o'tkazilgan. Olingen 7 buzoqchaning 5 tasida ximerli belgilari bo'lмаган.



**2-rasm. Ximerli hayvon**

**Virus genlarini joylashtirish va ko'chirish**

1976 yili Enish sichqon hujayralariga begona genlarni kiritish va bu belgilarni nasldan-naslg'a o'tishini amalga oshirgan. Lekin rekombinatsiya va klonlash metodi o'sha vaqtida unchalik rivojlanmaganligi sababli genlarni kiritishda viruslardan vektor sifatidagina foydalilanilgan.

Sichqon leykozi virusi kiradigan sinf viruslariga olimlar tomonidan genlarni ko'chirish uchun samarali vektor sifatida qaraganlar. Ushbu retroviruslarning genlari yakka ipli RNKning 2 ta molekulasidan tuzilgan: hujayra bu virus bilan zararlanganda qaytar transkriptaza DNK molekulasini, komplementar RNKn'i sintezlaydi. Hosil bo'lgan DNK-nusxa hujayra DNKsiga «provirus» ko'rinishida joylashadi. Provirus barqaror holda qolishi yoki xujayra DNKsidan ajralib yangi virus zarrachalari o'sishiga manba bo'ladi [17].



#### **Muhokama uchun savollar.**

- 1.Hayvon gen muhanisligi bosqichlari.
- 2.Virus genlarini joylashtirish va ko'chirish usullari.
- 3.Rekombinant DNK li bakteriya kloni qanday qilib tanlab va ajratib olinadi?
- 4.Baqa kloni qanday olingan?

#### **Test savollari**

670. **Қайси ҳайвонлар ҳужайрасидаги пронуклеуслар кўзга яхши ташланади?**

671. Күён, сичқон

672. Чўчқа, мушук

673. Ит, бўри

674. Кўршапалак

675. **Пронуклеусларни кўринишини қийинлаштирувчи органеллалар?**

676. Ѓе сақловчи гранулалар
677. Рибосомалар
678. Голжи мажмуаси
679. Лизасомалар
680. **Қайси ҳайвонлар эмбрионини центрифугалаш шарт әмас?**
681. Күйларни
682. Қуёнлар
683. Каламуш
684. Сигирларни
685. **Микробиологик усул орқали олинган ўстириш гормони уй ҳайвонларига юборилгандан үсиш неча фоизга ошган ?**
686. 20-30%
687. 40-45%
688. 15-20%
689. 10-15%
690. **Лактозасиз сут берадиган трансген ҳайвон яратиш учун қандай ишлар амалга оширилади ?**
691. Лактаза ферменти гени ҳайвонларга киритилади
692. Лактоза ферменти гени ҳайвонга киритилади
693. Сахараза ферменти гени ҳайвонга киритилади
694. Тұғри жавоб беримаган
695. **Үсиш гормони сақлаган ҳайвонлар танасида қандай моддалар миқдори ортиб, қайсилариники камаяди ?**

696. Оқсил ортади, ёғ камаяди
697. Оқсил камаяди, ёғ ортади
698. Иккаласи тенг иқдорда бўлади
699. Углеводлар ортиб, ёғ камаяди
700. **Ҳайвонларни муайян микроорганизмлар, вируслар, паразит ва токсинларга бўлган мойиллигини белгиловчи меросий генитик боғлиқлиги**
701. Чидамлилик
702. Қаршилик
703. Озиққа бўлган эҳтиёжни енгиш
704. Оғриққа чидамлилик
705. **Ҳайвонлар сутининг баҳоси таркибидаги қандай модда билан белгиланади ?**
706. Оқсил
707. Ёғ
708. Углевод
709. Минерал тузлар
710. **Фақатгина кавш қайтарувчи ҳайвонлар сути таркибида бўладиган кераксиз оқсил?**
711. С-лактоглобулин
712. Е-лактоглобулин
713. Д-лактоглобулин
714. Бундай оқсил мавжуд эмас
715. **Ҳайвонлар сути таркибидаги қандай модда кўпчилик инсонларнинг ошқозон ичагида муоммо келтириб чиқаради?**

716. Лактоза миқдори
717. Оксил миқдори
718. Ѓұ миқдори
719. Тузлар миқдори
720. **Сигир сути таркибидаги лактоферрин оқсили қандай хусусиятта эга?**
721. Бактерияларни ўсишини түхтатиб қўйиш
722. Замбуруғларни чеклаш
723. Касалликка чидамлиликни оширади
724. Ҳамма жавоб нотўгри
725. **Лактоферрин оқсилини экспрессия қилувчи қандай трансген ҳайвон яратилган?**
726. Трансген сичқон
727. Трансген қўй
728. Трансген эчки
729. Трансген туя
730. **Гетероген оқсиллар ҳайвон танасининг қайси қисмидан олинади?**
731. Тўқимасидан
732. Хужайрасидан
733. Маълум бир органидан
734. Бундай оқсилни олиб бўлмайди
735. **Трансген ҳайвонлар ўзидан нималарни мерос қолдиради?**

736. Бутун хусусият ва хоссаларини
737. Яшовчанлигини
738. Касалликка чидамлиликни
739. Улар ҳеч нарсани мерос қолдиришмайди
740. **Сути таркибида оқсилининг ўртача миқдори энг кўп бўлган ҳайвонни топинг**
741. Күён
742. Сигир
743. Кўй
744. От
745. **1992 йилда қандай трансген ҳайвон яратилган ?**
746. Инсоннинг алфа-1- антитрипсин гени ва беттаглобулин промотори сақловчи трансген қўй
747. Инсоннинг алфа-1- антитрипсин генини сақловчи трансген от
748. Инсоннинг алфа-1- антитрипсин гени ва беттаглобулин промотори сақловчи трансген кўён
749. Бундай трансген ҳайвон яратилмаган
750. **Кўён, қўй, от, ечки ушбу трансген ҳайвонларнинг қайси бирининг сути таркибида оқсили фоизи кўп?**
751. Күён
752. От
753. Кўй, от
754. Эчки
755. **Оқсили синтези бўйича юқори ҳосилдорликка эга бўлган без?**

756. Сут бези
757. Сулак бези
758. Жинсий безлар
759. Ички секреция безлари
760. **20 дан 100 гр гача оқсил бўлиши мумкин бўлган маҳсулот ?**
761. 1 литр сут
762. 1 литр қаймоқ
763. 200 гр гўшт
764. Тўғри жавоб йўқ
765. **Меристема қултурасидан фойдаланиши оркали усимликларни вирусдан холи килиш бу-**
766. Микроклонал купайтириш
767. Жинсий усулда купайтириш
768. Пайвандлаш
769. Гибридома
770. **T-ДНК нинг 25000 жуфт нуклеотид кетма-кетлигини киркиш вазифасини кайси вир худуди амалга оширади?**
771. Vir D
772. Vir A
773. Vir F
774. Vir E
775. **Ҳайвонлар сути таркибидаги лактоза миқдорининг кўплиги қандай муоммоларга сабаб бўлади?**

776. Ошқозон-ичак касалликлариға
777. Жигар ҳасталиғига
778. Қонни қуишлишиға
779. Қорин оғриғига
780. **Усимлик хужайра ва тукималарини күлтүралашда кенг кулланиладиган метод мұаллифи**
781. Р.Г.Бутенко
782. И П. Рослин
783. Ж.А Гёрдон
784. С.С Келер
785. **Қандай трансген ҳайвонлар танасида оқсил моддалар миқдори ортиб, ёғлар миқдори камаяди ?**
786. Ўсиш гормони киритилган ҳайвонлар
787. Протонлар киритилган ҳайвонлар
788. Озиқ гормони киритилган ҳайвонлар
789. Ҳар қандай трансген ҳайвонда оқсил ва ёғлар бир хил бўлади

## 6-MODUL

**Mavzu: Hujayra muhandisligi**

**Reja**

1. Hujayra injenerligining kelib chiqish tarixi.
2. Duragay hujayralarni olish bosqichlari
3. Hujayra injenerligi usulining ahamiyati va imkoniyatlari.

**Tayanch iboralar:** bakteriya hujayrasi, endonukleazlar, rekombinat, vektorlar, izolyatsiyalangan o'simlik hujayrasi, hujayra injenerligi, somatik gibridizatsiya, izolyatsiyalangan protoplast, biologik injeneriya, fermentlar.

Hujayra injenerligining yaratilishi va rivojlanish tarixini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. O'simlik hujayralarining organizmdan tashqarida (in vitro) sun'iy oziqa muhitida o'stirishning boshlang'ich davrini 1892-1902 yillar deb hisoblanadi. XIX asrning oxiri, XX asrning boshida nemis olimlari X.Fyooxting (1892), K. Rexinger (1893), G.Gaberlandt (1902) yillarda o'simlikdan ajratib olingan to'qima bo'lakchasini, tola va hujayra guruhlarini alohida o'stira boshladilar. Lekin ular bu usulda to'qimalarni uzoq muddat o'stirishga erisha olmadilar.

Rexinger o'z tajribalarida terak novdalari va qoqi ildizi to'qimasi parchalarida kallyus jarayonining hosil bo'lish jarayonini kuzatdi.

Ikkinci davr – 1902-1922 yillarda botaniklarning o'simliklarni in vitro sharoitida uzoq muddatli o'stirish uchun sun'iy oziqa muhitini yaratish uchun qilgan urinishlari ijobjiy natija bermadi. Bu davrda hayvonlar to'qimasini qon zardobi (limfa) qo'shilgan oziqa muhitida pomidor va makkajo'xori tomirlarini o'stirish imkoniyatiga erishdilar. Bu tajribalar o'simlik a'zolarini izolyatsiyalangan holda o'stirish usulining boshlanishi hisoblanadi.

1932-1939 yillarda amerikalik tadqiqotchi F.Uayt va frantsuz Gotre (1932-1934) Robbins va kotte usullari yordamida yuksak qsimlik to'qimalari va hujayralarini o'stirish usulini takomillashtirdi. Ular izolyatsiyalangan o'simlik ildizlarini cheksiz va uzoq muddatda o'stirish mumkinligini tajribada ko'rsatib berdilar. Buning uchun ildiz uchlarini vaqtiga-vaqtiga bilan yangi tayyorlangan oziqa muhitiga ko'chirib o'tkazish lozim.

1940-1960 yillarda in vitro sharoitida o'simlik turlarini o'stirish miqdori yanada ko'paydi. Shu yillarga kelib 142 turdag'i o'simliklarni sun'iy muhitda alohida o'stirish mumkinligini tajribada ko'rsatib berildi (R.Gotre, 1959).

Katta miqdorda hujayra suspenziyasi (eritmadi aralashma)ni olish va o'stirish usuli ishlab chiqildi.

1960-1975 yillarda pomidor ildizi va mevasi to'qimalaridan izolyatsiyalangan protoplastlarini pektolitik va tsellyulitik fermentlar bilan ishlov berish yo'li ishlab chiqildi. Shu yo'l bilan hujayra protoplastiga boshqa hujayra organoidlarini kiritish, ya'ni gibrid hujayra hosil qilish mumkin.

1976-1985 yillarda izolyatsiyalangan protoplastlarni elektr toki yordamida qo'shish va duragay hujayralar selektsiyasi usuli ishlab chiqildi. Izolyatsiyalangan protoplastlar va vektorlarni Agrobakterium tumafasiens ning o'simlik genlarini ko'chirib o'tkazishning samarali usullari ishlab chiqildi.

Hujayra injeneriyasining asosida somatik gibirdizatsiya deb nomlangan metod yotadi, ya'ni ikkita jinssiz (somatik) hujayraning sun'iy oziqa muhitida etishtirilishi va o'zaro qo'shilishidir.

Somatik hujayralarni duragaylash jarayoni bir necha bosqichda olib boriladi. I- bosqichda hujayralar bir-biri bilan birikadi, bunda hujayra qobig'i buzilib, tsitoplazmatik ko'priqcha hosil bo'ladi; P- bosqichda ikkita hujayning qo'shilishi natijasida bitta (yagona) tsitoplazmatik hujayra hosil bo'ladi; Sh-bosqichda umumiy parda hosil bo'lib duragay hujayralarning qo'shilish jarayoni tugaydi.

Ikkita hujayraning bir-biriga qo'shilishidan oldin, ulardagi plazmatik membrananing yahinlashishi va o'zaro bog'lanishi yuz berishi lozim. Bunga esa membranalar yuzasidagi bioelektr zaryadlarining mavjudligi to'sqinlik qiladi. Membrana yuzasida oqsil va lipidlarning manfiy qutbli elektr zaryadi mavjud. Membranani qzgaruvchan tok manbai yoki magnit maydoni bilan depolyarizatsiyalash, kationlar yordamida membrananing manfiy zaryadlanishini neytrallash natijasida hujayralarning o'zaro qo'shilishi ta'minlanadi. Buning uchun amaliyotda  $Ca^{2+}$ , xlorpromazinon dan keng foydalaniladi. Samarali "qo'shuvchi" vosita sifatida polietilenglikoldan ham foydalaniladi. Hayvonlar hujayrasini bir-biriga qo'shuvchi vosita sifatida Senday virusidan foydalaniladi.

O'simlik, zamburug' va bakteriya hujayralarini bir-biriga qo'shilishidan oldin hujayra qobig'i olib tashlanadi, bunda protoplastlarning o'zi qoladi. Buning uchun hujayra qobig'i fermentativ yo'l bilan gidrolizlanadi, gidrolizlovchi vosita sifatida lizotsim (bakteriya hujayralari uchun), shilliqt zimoliazasi (zamburug'lar hujayrasi uchun), tsellyulaza, gemitsellyulaza va pektinaza (o'simlik hujayralari uchun) fermentlaridan foydalaniladi.

Shunday qilib, ikki yoki ko'p yadroli duragay hujayralar vujudga keladi. Ushbu usulni qo'llash natijasida har xil turlarga va sinflarga (masalan, sutevizuvchilar Qushlar) mansub bo'lgan hujayralarni qo'shib, somatik duragaylar olish imkoniyati yaratiladi.

1965 yilda sut emizuvchilarning har xil turga mansub bo'lgan hujayralarini qo'shilishini tezlashtirish uchun HVJ virusidan muvaffaqiyatlari foydalanganligi haqida xabar e'lon qilindi.

1980 yilda sun'iy oziqa muhitida o'stirilgan sichqonlarning somatik hujayrasi bir-biriga qo'shilishi kuzatiladi, ular yashash qobiliyatiga ega bo'lган gibrildi hujayralardir.

O'simlik organi, to'qimasini va hujayrasining izolyatsiyalangan protoplastlarini sun'iy muhitda ekish va o'stirish usullari asoschilari Filipp Uayt, (AQSh ) va Roje Gotre (Frantsiya) tadqiqotchilar hisoblanadi. Ushbu usulda ajratib olingan, har xil turga mansub bo'lган o'simlik to'qimalari ko'paytiriladi. Buning uchun, avvalo ajratib olingan to'qimalar mikroorganizmlardan tozalash maqsadida

### **Nazorat savollari**

1. Hujayra injenerligining kelib chiqish tarixi.
2. Duragay hujayralarni olish bosqichlari
3. Hujayra injenerligi usulining ahamiyati va imkoniyatlari.
4. Hujayra muhandisligini maqsad va vazifalari.
5. Hujayra muhandisligini ahamiyati.

### **Test savollari**

790. **Усимлик хужайрасини дедифференцияланиши ва унинг каллусга айланиши учун озука мухит таркибида фитогормонларнинг 2 гурӯҳи иштирок этиши лозим**
791. Ауксин, цитокинин
792. Гибреллин, абцезат кислотаси
793. Этилен, ауксин
794. Цитокинин, гибреллин
795. **Нуклеотидлар кетма-кетликларини аниқлаш-?**
796. Секвенирлаш
797. Клонлаш
798. гидролизлаш
799. блокировкалаш
800. **Эндонуклеазаларнинг ДНКни максус кетма-кетликлари рестрикция сайтларини ҳосил қилиб гидролиз қиласиган гурӯхи қандай номланади?**
801. Рестриктаза
802. ДНК лигаза

803. ДНК полемераза
804. Нуклеаза
805. Ген мұхандислигіда лигирлаш жараёнини қайси фермент бажаради?
806. ДНК лигаза
807. Нуклеаза
808. Рестриктаза
809. ДНК полемераза
810. .... комплементар нуклеотидларни бириктириш йўли билан ДНК занжирини узайтириш хусусиятига эга
811. ДНК полемеразалар
812. ДНК лигаза
813. Нуклеазалар
814. Рестриктазалар
815. Таркибида қўшимча ирсий ахборотлар тутувчи рекомбинат ДНК молекулаларини хужайраларга киритиш ва унинг барқарорлигини сақлаш вазифасини ..... бажаради
816. Векторлар
817. каллус
818. клон
819. гормон
820. Ўсимлик қультурасини яратишида ким томонидан таклиф этилган озуқавий мухит кўп қўлланилади?
821. Мурасиги ва Скуга
822. Р.Г.Бутенко

823. Шенька
824. Гамборга
- 825. Ўсимлик материалларини стериллашни энг мақбул усулини ким таклиф этган?**
826. Р.Г.Бутенко
827. Мурасиги ва Скуга
828. Коэн
829. Уотсан
- 830. Эмбрионларни микроинекция қилиш учун энг аввало қандай асбоб зарур?**
831. Ишчи стол
832. Микромонипулятор
833. Пепитка
834. Мұхит сақловчы идиш
- 835. Қайси ҳайвонлар ҳужайрасидаги пронуклеулар күзга яхши ташланади?**
836. Күён, сичқон
837. Чүчқа
838. Ит, бўри
839. Кўршапалак
- 840. Ген мухандислиги нимани ўрганади?**
841. Реципеинт организмга янги белгиларни киритиш ва организмларнинг янги шаклларини олишни
842. Генлар ва уларни тузилишини

843. Генларнинг қирқиши ва улаш, ген устида ишлаш
844. Хужайрада кечадиган биокимёвий жараёнларни
845. **Озука мухитларида ауксин манбаи сифатида қайси гормон қулланилади?**
846. 2.4 Д
847. 6-БАП
848. Зеатин
849. кинетин
850. **Культуралаш учун эксплант ажратиб олинадиган усимлик қандай аталади?**
851. Донор
852. реципиент
853. каллус
854. рекомбинат
855. **Нима учун рекомбинант олиш учун асосан рестриктазалар қўлланилади?**
856. Бу типдаги рестриктазалар танийдиган сайт ва қирқиши жойи бир-бирига мос келади
857. Улардан фойдаланиш осон
858. Жуда арzon
859. Улар танийдиган сайт ва қирқиши жойи бир –бирига мос келмайди
860. **Рестрикцион хариталар қандай имкониятларни беради?**
861. ДНК ни кетма кетликлари йиғиндисини олиш
862. Бўлакларни текшириш
863. ДНКни майдай бўлакларга бўлиш

864. Вирусларни ҳалқасимон ДНК ни таҳлил қилиш
865. **Оқсил аминокислоталари кетма- кетлигини қандай аниқлаш мүмкін?**
866. Ҳамма жавоблар тұғри
867. Нуклиен кеслоталар кетма кетлигини аниқлаш билан
868. Генетик кодни билиш орқали
869. Оқсилларнинг ўзини ўзи секвенерлаш
870. **Тотипотентлик белгиси қайси ўсимликларда яққол ифодаланган**
871. Тамаки картошка, лавлаги
872. Тамаки, гүза ,картошка
873. Ёнғоқ, қарағай, қорақарағай
874. Тамаки, пиёз, соя
875. **Трансген ўсимликлар олишдаги асосий муаммолардан бири нима?**
876. Ўсимликлар хромосомасига бегона генни киритиш
877. Трансген ўсимликлар яшовчанлигининг пастилиги
878. Ўсимликларнинг қийин күпайиши
879. Ўсимликлардан керакли генни ажратыб олиш
880. **Коинтегратив векторларни олиш нимага асосланади?**
881. 2 та плазмида ўртасидаги рекомбинацияга
882. Генлар изчиллигини клонлашта
883. Векторлар сонини селиктыв шароитларга күпайтиришта

884. Векторларни ҳар бирини алоҳида- алоҳида киритишга
885. **Ўсимлик трансформацияда қандай векторлардан фойдаланилади?**
886. Барча жавоблар тўғри
887. Ти плазмидаси СаМВ веруси, Ри плазмиди
888. Ас элементи, бинар векторлар
889. Коинтигратив векторлар, фитовируслар
890. **Трансген ўсимликада тДНК кетма кетликлари мавжудлигини тўлиқ исботлашда таҳлил қилишнинг қайси туридан фойдаланилади ?**
891. Полимираза занжири реакцияси в а ДНК блог –гибридизацияси
892. Селикттив озиқа муҳитга экиш
893. Антибиотиклар тутувчи озиқа муҳитда ўстириш
894. Тўғри жавоб йўқ
- 895.
- 896.
- 897.
- 898.
- 899.
900. **Аграбактерумдаги Т-ДНК ни усимлик хужайрасига трансформациясига ..... жавобгар**
901. 7 та локусдан иборат вирулентлик худуди
902. Вектор молекула
903. Клонлаш учун вектор

904. Экспрессион векторлар
905. **Биотехнологик усулда иккиламчи синтез моддалар нималардан олинади?**
906. Сунъий озиқа мухитда ўстирилган каллус тўқималардан
907. In vitro усулида олинган микро тўқималардан
908. Ўсимликларнинг меристемасидан
909. Ўсимликларнинг сунъий ўстириш орқали тана хужайраларидан
910. **Агар стерил шароитда экиш учун мўлжалланган эксплантда ички инфекция мавжуд бўлса қандай чора кўрилади?**
911. Барча жавоблар тўғри
912. Дисстилланган сувда ювилади
913. Спирт эритмасига ботириб қўйилади
914. Натрий гипохлорид билан ишлов берилади
915. **Ажратилган меристемаларни культуралаш ва уларнинг микрокўпайтиришда хоналарнинг ёритилиш даражаси қандай бўлиши лозим ?**
916. 3000-10000 лк
917. 2000-3000 лк
918. 25000-1500лк
919. 3000-4000лк
920. **Бир турга мансуб бўлган ҳайвонларнинг эмбрионларидағи бластомерларни қўшиш орқали қандай ҳайвонлар олинади?**
921. химерли
922. хонаки
923. ёввойи

924. Янги зот
925. **ДНК –лигаза ферменти ёнма-ён жойлашган нуклеотидларни ..... бөг хосил килиб бирлаштиради**
926. канд колдиклараро
927. азот асослараро
928. аминокислоталараро
929. пептид
930. **1928 йил Гриффитс томонидан кашф этилди**
931. Трансформация
932. Трансдукция
933. Трансляция
934. Транскрипция
935. **Бир турга мансуб бўлган ҳайвонларнинг эмбрионларидағи .....ларни қўшиш орқали химерли ҳайвонлар олинади?**
936. бластомер
937. зиготани
938. соматик ҳужайрани
939. жинсий ҳужайрани
940. **Трансформация .....йил Гриффитс томонидан кашф этилди**
941. 1928
942. 1930
943. 1995

944. 2012
945. **Маълум бир гендаги белги ва хусусиятларнинг юзага чиқиши бу-**
946. Ген экспрессияси
947. Транскрипция
948. Трансдукция
949. Репарация
950. **Геннинг ўзгариш хусусиятига эга бўлган қисми-**
951. Мутон
952. рекон
953. систрон
954. Тўғри жавоб йўқ
955. **Геннинг чалкашиш хусусиятига эга бўлган энг кичик қисми**
956. Рекон
957. Мутон
958. Систрон
959. Ҳаммаси тўғри
960. **Ўсимликлардан ажратиб олинган тўқималарни ўстиришнинг биринчи босқичи нечанчи йилда амалга оширилган?**
961. 1892-1902
962. 1891-1908
963. 1866-1923

## 1-laboratoriya mashg'ulot

### Mavzu: Amilolitik ferment faolligini aniqlash

**Ishning maqsadi:** Talabalarga amilaza misolida amilolitik ferment faolligini aniqlash usulini o'rnatish.

Tekshiriluvchi material: suyultirilgan so'lak (1-2 tomchi so'lakka 1 ml suv qo'shiladi).

**Reaktivlar:** Natriy xlориднинг 1% ли еритмаси, мис сульфатнинг 1% ли еритмаси, крахмалнинг 0,5% ли еритмаси, уоднинг калий юдиддаги еритмаси (таворланishi 11- ilovada).

**Zarur jihozlar:** Пробиркalar, томизгичлар, пипетка, термостат ёки термометри сув hammomi.

**Kutilayotgan natija:** Talabalarda amilaza misolida amilolitik ferment faolligini aniqlash usulini qo'llash ko'nikmasi hosil boladi.

#### Nazariy tushuncha.

Fermentlardan biologik katalizator sifatida odamlar turli xil soxadagi amaliy faoliyatlarida keng foydalanib kelishmoqda. Fermentlar manbai xayvon to'qimalari, o'simliklar xujayralari va mikroorganizmlar bo'lishi mumkin. Xozirgi zamonda ikki mingdan ortiq fermentlar borligi aniqlangan, ularidan bir necha yuztasi aloxida modda sifatida toza xolda ajratib olingan.

Mikroorganizmlar fermentlar ishlab chiqaruvchi manba sifatida aloxida qiziqish uyg'otadi, chunki ular arzon muxitda tez o'sadilar. Ishlatilagan ozuqa tarkibiga qarab, kerakli fermentni, xoxlagancha tayyorlash imkoniyatini beradilar. Buning ustiga ko'pgina mikroorganizmlar fermentlarni o'z xujayra qobiqlaridan tashqariga chiqaradilar, bu esa mikroorganizmlardan yanada faolroq foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Metabolizmning katta intensivligidan tashqari mikroorganizmlar biomassasini o'sish tezligi juda kattadir. Bu qisqa vaqt orliqida ayrim vaqlari 24-72 saat ichida ferment ajratish uchun juda katta miqdorda xam-ashyo olish mumkin, uni xayvon va o'simlik xom ashylari bilan solishtirib bo'lmaydi.

Ko'plab mikroorganizmlarning muxim xususiyatlaridan yana biri ular ozuqa sifatida xar xil chiqindilardan foydalanib o'sish qobiliyatiga egadirlar (tsellyuloza, neft uglevodorodlari, metan, metanol va boshqalar). Mikroorganizmlar foydalana oladigan ayrim xom-ashyolar odam va xayvonlar uchun zaxarlidir. Shunday ekan mikroorganizmlar fermentlar sintez qilish bilan bir qatorda, atrof-muxit muxofazasi uchun xam xizmat qiladilar.

Ayrim fermentlarning sintezlanish miqdori mikroorganizmlar xujayrasida juda yuqori bo'lishi mumkin. Masalan: ribulezobisfosfatkarboksilazaning miqdori ayrim vaqlarda fototrof bakteriyalar sintez qiladigan suvda eriydigan oqsilning 40-60% ni tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek ko'p mikroorganizmlar katta miqdorda kultural muxitga chiqadigan fermentlar xosil qiladilar. Bu fermentlar asosan oqsil, kramal, tsellyuloza, yog'larni va boshqa suvda erimaydigan moddalarni parchalaydigan gidrolazalarga ta'luqlidir. Bir qancha fermentlar faqat mikroorganizmlardagina uchraydi. Molekula xolidagi azotdan ammiak xosil qilishda ishtirok etadigan nitrogenaza fermenti azotni o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan bakteriyalardagina uchrashi aniqlangan.

Ayrim bakteriyalarning xarakterli xususiyatlaridan yana biri ularning anorganik substratlarni: ammiakni, nitritlarni, sulfid va oltingugurtni boshqa birikmalarini, va shunga o'xshash ikki valentli temirni oksidlash qobiliyatidir. Bunday jarayonlarni amalga oshishi mikroorganizmlarda aloxida fermentlarning mavjudligi bilan bog'liqidir. Bir qancha bakteriyalar va suv o'tlari molekula xolidagi vodorod xosil qilishi xamda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini olib boruvchi degidrogenaza fermentlari saqlashi aniqlangan.

Ko'pchilik bakteriyalar ularga metan, metanol, metillangan aminlarni, uglerod oksidini va boshqa bir xil uglerodli birikmalaridan substrat sifatida foydalanib, o'sish va rivojlanishga yordam beradigan fermentlarni sintezlash qobiliyatiga ega. Atrof muxitni, uni ifloslantiruvchi bir qancha moddalardan tozalash mikroorganizmlar ishlab chiqaradigan fermentlar xisobiga amalga oshiriladi, ular plastmassa, pestitsidlarni va boshqa zaxarli murakkab birikmalarni oddiy tarkibiy

qismga parchalab yuboradilar.

### Ishning bajarilishi.

1. Uchta probirka olinib, birinchisi 10 tomchi 1% li natriy xlorid eritmasidan, ikkinchisiga 10 tomchi 1% li mis sulfat eritmasidan, uchinchisiga 10 tomchi suv quyilib, hammasiga 20 tomchidan 0,5% li kraxmal va 1 tomchidan suyultirilgan so'lak qo'shilib, aralashtiriladi va tezlikda 37°С li termostatga joylashtirilib, vaqtani aniqlanadi.
2. Kraxmalni gidrolizlanish tezligini aniqlash uchun kraxmal gidrolizlanayotgan probirkalardan 1-2 daqiqa oralatib, 1 tomchidan boshqa probirkalarga olinadi va u bilan yodning kaliy yodiddagi eritmasi bilan reaksiya o'tkaziladi. Gidroliz jarayoni eritrodekstrin bosqichigacha davom ettiriladi va uni paydo bo'lgan vaqtida daqiqalarda aniqlanadi. Tajriba natijalarini jadval ko'rinishida yoziladi.

9-jadval

So'lak  $\alpha$ -amilazasi faolligiga aktivator va ingibitorlarning ta'siri

| Tekshirilayotgan modda | Ferment | Substrat | Eritrodekstrin hosil bo'lgan vaqt |
|------------------------|---------|----------|-----------------------------------|
|                        |         |          |                                   |

Birinchi ikkita probirkadagi kraxmalni eritrodekstrin bosqichigacha gidrolizlanishi uchun sarf bo'lgan vaqtini uchinchi probirkadagi (nazorat) kraxmalni gidrolizlanishini vaqtini bilan solishtirilib, tekshirilayotgan moddalarning aktivatorlik yoki ingibitorlik ta'siri to'g'risida xulosa chiqariladi.

Ferment faolligini miqdoriy aniqlashda klinikada tashxis qo'yish maqsadida, davolash choralarini samarasini bilish va baholashda foydalaniladi. Ferment miqdori to'g'risida gapirilganda, odatda uning faolligi tushuniladi, chunki ferment faolligi uning kontsentratsiyasi bilan bevosita bog'liq. Ferment faolligi esa vaqt birligida ta'sir ko'rsatilayotgan substratning yoki reaksiya natijasida hosil bo'lgan unumining miqdoriy o'zgarishi bo'yicha aniqlanadi. Ferment faolligini aniqlashda qo'llaniladigan usul sharoitiga qat'iy rivoja qilish talab qilinadi, chunki reaksiyani kechishi haroratga, muhit rN iga substrat va kofaktorlar miqdoriga uzviy bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ferment faolligini aniqlashda shu fermentga optimal bo'lgan rN li bufer eritmalaridan, zarur bo'lgan kofermentlardan, aktivator yoki ingibitorlardan va ayniqsa, ferment oqsili denaturatsiyasini oldini oluvchi stabilizatorlardan foydalaniladi.

Xalqaro biokimyogarlar uyushmasining tavsiyasiga binoan ferment faolligining birligi 1 mol substratti 1 sekundda (soniya) o'zgartira oladigan ferment miqdoriga teng bo'lib, "katal" yoki qisqacha "kat" deb ataladi. Mazkur faollik mikromolda ( $10^{-6}$ ) – mikrokatal, nanomolda ( $10^{-9}$ ) nanokatal va pikomolda ( $10^{-12}$ ) – pikokatal deb ifodalanadi. Spetsifik faollik katallarni 1 kg oqsilga nisbatan – katG'kg oqsil, molekulyar faollik - katalG'mol ferment, ferment faolligining kontsentratsiyasi katalG' litr yoki mikrokatalG'litr shaklida berilgan.

So'lak  $\alpha$ -amilazasi faolligini Volgemut bo'yicha aniqlash

Mazkur usul bilan  $\alpha$ -amilaza miqdorini aniqlash fermentni maksimal darajada suyultirilganda ham tajribaga olingan kraxmalni eritrodekstringacha parchalay olish xususiyatiga asoslangan.

Tekshiriluvchi material: 1: 10 nisbatda suyultirilgan so'lak.

**Reaktivlar:** kraxmalning 1% li yangi tayyorlangan eritmasi, yodning kaliy yodiddagi eritmasi (tayyorlanishi 11-ilovada).

**Jihozlar:** probirkalar, tomizgichlar, pipetkalar, byuretkalar, shishaga yoziladigan qalam, 37°S li termostat yoki termometrli suv hammomi.

### Ishning bajarilishi.

- Probirkadagi 1 ml so'lakka byuretkadan 9 ml distillangan suv 1: 10 nisbatda qo'shib, yaxshilab aralashtiriladi.
- 10 ta raqamlangan probirkalar olinib, har biriga 1 ml dan suv solinadi.
- Birinchi probirkaga 10 marotaba suyultirilgan so'lakdan 1 ml olib, yaxshilab aralashtirilgach, undan 1 ml olib ikkinchi probirkaga o'tkaziladi, aralashtirilgach, aralashmani 1 ml ni uchinchi probirkaga, shu tartibda bajarilayotgan ish to'rtinchi, beshinchi, toki o'ninchি probirkagacha takrorlanadi va oxirgi probirkadan 1 ml suyuqlik olib tashlanadi.
- Natijada birinchi probirkadagi so'lak 10 marta suyuladi, ikkinchisidagi 40 marta, uchinchisi 80 marta va hokazo, o'ninchisi esa 5440 marotaba suyulgan hisoblanadi.
- Barcha probirkalarga ferment kontsentratsiyasi eng kam bo'lган o'ninchи probirkadan boshlab 2 ml dan 1% li kraxmal eritmasi quyiladi va chayqatilib, aralashtirilgach, 30 daqiqaga 37°S li termostatga qo'yiladi.
- 30 daqiqadan so'ng probirkalar Sovutilib, har biriga 1-2 tomchidan yodning kaliy yodiddagi eritmasidan tomziladi va eng ko'p suyultirilgan probirkadagi so'lak kraxmalni eritrodekstringa parchalab, yod bilan qizg'ish-qo'ng'ir rang hosil qilganligi aniqlanadi.
- o-amilaza faolligi 1 ml suyultirilmagan so'lakni 37°S da termostatda 30 daqiqa davomida necha millilitr 1% li kraxmalni parchalay oladigan miqdori bilan o'lchanadi. Agar qizg'ish-qo'ng'ir rang so'lak 160 marotaba suyultirilgan to'rtinchi probirkada 2 ml 0,1% kraxmal eritmasi qo'shilganda aniqlansa, unda 1 ml suyultirilmagan so'lak 160 marotaba ko'p 0,1% li kraxmalni parchalagan bo'ladi: 1G'160 ml so'lak 2 ml 0,1% kraxmalni parchalasa, 1 ml so'lak 0,1% li kraxmalning qancha miqdorini (X) parchalashi mumkin, ya'ni Xq2x1: 1G'160 q320 ml 0,1% li kraxmal eritmasini parchalaydi. Shartli ravishda ushbu ko'rsatkich Volgemut bo'yicha 320 ml o'amilaza birligi hisoblanadi va quyidagicha yoziladi: A 37°SG' 30' q320 birlik.

Volgemut usulidan o'amilazani oshqozon osti bezi shirasida, qonda, siydikda va organizmning boshqa suyuqliklarida aniqlashda foydalanish mumkin. Ammo mazkur usul nisbatan taxminiy bo'lganligi sababli o'amilaza faolligida keskin o'zgarishlar kuzatilganda qo'llaniladi. Amaliy ishdan olingan natijalarni quyidagi ko'rinishga keltiring.

### Topshiriq:

- Jadvalni to'ldiing.
- Xulosalariningizni yozing.
- Xulosada tekshirilayotgan so'lakdagi amilaza faolligini hisoblangan miqdorini bering.

10-jadval

### Volgemut usuli bo'yicha o'amilaza faolligini so'lakda aniqlash

| № Probirkalar | So'lakni suyultirish darajasi | 0,1 % li kraxmal eritmasi miqdori (ml) | Harora t | Yod bilan boradigan reaktsiyasining rangi |
|---------------|-------------------------------|--|----------|---|
|               |                               |  |          |   |
|               |                               |  |          |   |
|               |                               |  |          |   |

## Nazorat savollari

1. Qanday moddalarga fermentlar deyiladi? Organizmda ular qanday vazifani bajaradi?
2. Fermentlarning kimyoviy tabiatini va xususiyati nimadan iborat?
3. Ferment ta'sirining spetsifikligi nimada va uni qanday aniqlanadi?
4. Ferment faolligini haroratga, muhit rN iga qanday bog'liqligi bor?
5. Fermentning prostetik guruhi bilan kofermenti o'rtasida qanday farq bor?
6. Fermentning faol markazini qanday tushunasiz?
7. Fermentlar klassifikatsiyasi qanday, ferment sinflarini sanab bering.
8. So'lak amilazasi fermentlarning qaysi sinfiga kiradi?
9. Qanday birikmalar so'lak amilazasi substrati bo'la oladi?

## LABORATORIYA-2

### Mavzu: Chiqindisiz texnologiya yaratish.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** 1.Talabalar biotexnologik laboratoriysini tashkil etish va unda ishslash qoidalari bilan tanishtirish.

2.Talabalarni shiqindisiz texnologiya yaratish usuli bilan tanishtirish.

**Zarur jihozlar:** metantenk (go'ngni anaerob bijg'ishi uchun maxsus qurilma) sxemasi, qalam, o'chirg'ich, Go'ng sharbatini biogaz usqurmasida qayta ishslashni texnologik chizmasi aks etgan rasm.

**Kutilayotgan natija:**talabalar biogaz olish texnologiyasi bilan tanishish bilan bir qatorda o'zlarining g'oyalari bilan Respublikamizda biogas olish tehnologiyasini mukamallashtirishda o'zlarinig munosib xissalarini qo'shadilar.

#### Biotexnologiya laboratoriyasiga kuyiladigan talablar:

Biotexnologiya laboratoriysi uchun ajratilgan xona yorug', keng, uning tabiiy yoritilganligi 110 lk dan kam bo'lmasligi kerak. Laboratoriya xonasining poli kafellangan, stollarning sirti plastik materiallar bilan qoplangan bo'lishi kerak. Xona devorlarini erdan 170 sm balandlikgacha kafel bilan qoplash yoki moy bo'yoq bilan bo'yash zarur. Biotexnologiya xonasidagi stollar laboratoriya tipida va u erda reaktiv hamda idishlarni qo'yish uchun shkaf va peshtaxtalar bo'lishi kerak. Stollar elektr va gaz tarmog'iga ulangan manbaga ega bo'lishi talab etiladi.

Biotexnologiya laboatoriysi asosiy xonadan tashqari avtoklav va quritish shkafi qo'yiladigan xona, sterilizatsiya xonasi, boks, idish yuvadigan xona,sovutkich va termostat qo'yiladigan, kulturalarni saqlaydigan xonalardan iborat bo'lishi kerak. Boks-kulturalar ekiladigan unchalik katta bo'lmagan xona bo'lib, u ikkiga ajratilgan bo'lishi zarur. Boksdagi asosiy ishslash xonasiga kichik xona, ya'ni tamburdan eshik orqali kiriladi. Bu holat eshik ochilganda tashqaridagi havo orqali mikroorganizmlarni to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishini ma'lum darajada oldini oladi. Boks ichida bakteritsid lampa bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtida stolga joylashtiriladigan turli kattalikdagi, ichida steril havosi almashib turadigan laminar bokslar ham keng ishlatilmoqda.

Biotexnologiya laboratoriyalarda o'simlik kulturalari va mikroorganizmlar bilan ish olib boriladi. Qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlarining biologiya yo'nalishlarida biotexnologik tadqiqotlar asosan o'simliklar va mikroorganizmlar ustida olib boriladi, lekin mikroorganizmlar, orasida insonlarda kasallik qo'zg'atuvchi turlari ham bo'lishi mumkin. SHuning uchun laboratoriyyada xodim va talabalar o'zlariga ayrim k////////asalliklarni yuqtirmasliklari uchun ichki tartib qoidalariga qat'iy rioya qilishlari zarur.

#### Biotexnologiya laboratoriyasida ishlaydigan xodimga kuyiladigan talablar:

1.Sterillangan ok xalatda ishslash.

2.Bakteretsid lampa yokilgan xonaga lampa uchirilgach 2 soatdan keyin kirish.

- 3.Ish jarayonida fakat sterillangan idish va asboblardan foydalanish.
- 3.Manipulyasiya jarayonida spirt bilan ishlashda extiyot bulish.
- 4.Usimlik materiallarini sterillash jarayonida sterillovchi moddalar (zaxarli, masalan, temurosal ) bilan ishlashda juda extiyot bulish.
- 5.YArokliylik muddati utib ketgan reaktivlardan foydalanmaslik.
- 6.Katta kuchlanish bilan ishlaydigan asbob-uskunalar, jixozlar bilan ishlashda koidalarga riosa kilish.

#### **Man etiladigan xolatlar:**

- 1.Biotexnologiya laboratoriyasiga begonalarni kiritish.
- 2.Laboratoriyada ozik-ovkat maxsulotlarini saklash, ovkatlanish.
- 3.Kimyoviy moddalarni laboratoriyanan tashkariga chikarish, boshkalarga berish.
- 4.Reaktiv saklanadigan idish ogzini ochik koldirish.
- 5.Sterillanmagan idish, asbob-uskunalaridan foydalanish.

#### **Nazariy tushuncha.**

Biomassadan energiya manbai sifatida foydalanishga qiziqish eng avvalo, biomassani xar yili qaytadan paydo bo'lishi; biogazda yig'ilgan energiyani saqlanishi va uzoq muddat davomida xoxlagan xolatda ishlatilishi mumkinligi; bu energiyani boshqa turdag'i energiyaga o'tkaza olish mumkinligi; ba'zi mintaqalarda esa issiqlikni bu manbai,tabiiy issiqlik manbalaridan arzonroq turishi; biogazni ekalogik toza issiqlik manbai bo'lganligi; undan foydalanganda atrof-muxitga oltingugurtni zaxarli oksidlari paydo bo'lmasligi; atmosferadagi karbonat angidridi balansi o'zgarmasligi va boshqa qator sabablar bilan uzviy bog'liqidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, biogaz ishlab chiqarishni tannarxi biogaz qurilmasi, muayyan firmada paydo bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasining bir qismi sifatida qabul qilingan, bu jarayonda biogazdan tashqari qimmatbaxo, samarador biologik o'g'it xosil bo'lishi va boshqa bir qator ijobiy tomonlarni xisobga olinganda bu biotexnologiyaning istiqbollari namoyon bo'ladi.

Nima uchun AQShda go'ngdan biogaz tayyorlashga aloxida e'tibor beriladi?, chunki, birinchidan energetika nuqtai-nazaridan, ikkinchidan- barcha chorvachilik fermalarida xar yili paydo bo'ladigan chiqindilarni biogazga aylantirilishini iqtisodiy ma'qul bo'lgan qismini yarmiga yaqini yirik chorvachilik komplekslarida, (yirik shoxli xayvonlar, cho'chqalar va parranda boquvchi komplekslarda) to'planishidir.

Germaniyani chorvachiligidagi xar yili 200 mln.t. shu jumladan, 70 mln.t. suyuq xolatda go'ng to'planadi. Bu mamlakatda qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan maydonlarni chegaralanganligi, atrof-muxit muxofazasi talablarini tobora oshib borishi, mutaxassislar oldiga, chiqindilardan samaraliroq foydalanish yo'llarini izlab topishdek muammoni ko'ndalang qo'ygan. Olim va mutaxassislarini xisob-kitobiga qaraganda, yuqorida ko'rsatilgan miqdordagi go'ng biogaz qurulmalarida qayta ishlanganda energiyaga bo'lган umummilliyl talablarni 4% ga teng bo'lgan miqdorda energiya olish mumkin bo'lar ekan.

Buyuk Britaniyada mamlakatni tabiiy gazga bo'lgan talabini 3,2% biogaz orqali qondirilar ekan. Umumi yirik shoxli xayvonlar, cho'chqalar va parrandalar go'nggini qayta ishlanganda xar yili 2,3 mln.t. neftga ekvivalent bo'lgangaz ishlab chiqarish mumkin ekan.

Yaponiyani qishloq xo'jaligida xar yili 56,5 mln.t. go'ng oqavalari xosil bo'ladi. Bu miqdordagi go'ngni to'lig'icha qayta ishlanganda, 1,7 mlrd.m<sup>3</sup> gaz yoki 1 mln. tonna neft o'rnnini bosa oladigan energiya to'planar ekan. Bu mamlakatda chorvachilik maxsulotlari etishtirishni jadal rivojlantirish dasturi asosida faoliyat olib borilib, bu texnologiyaga aloxida e'tibor berilmog'qa.

Rossiyada xam biogaz ishlab chiqarish bo'yicha katta potentsial mavjud. Xar yili chorvachilik fermalarida 665 mln. t go'ng xosil bo'ladi, buni xar bir tonnasidan anaerob sharoitda bijg'itish orqali issiqlik chiqarishi 5600-6300 KkalG'm<sup>3</sup>ga teng bo'lgan 15-20 m<sup>3</sup> biogaz ishlab chiqarish mumkin.

Xindistonni energetika siyosatini asosiy printsiplaridan biri- qishloq rayonlarida biogaz ishlab chiqarishdir. Bu soxaga oid fundamental va amaliy izlanishlar ko'proq Xindiston texnologiya institutining biokimyoviy muxandislik markazida olib boriladi. Bu mamlakat

olimlarining fikricha xar yili to'planadigan 300 mln.t qoramol go'ngini biogazga aylantirilganda, 33 mln.t neft energiyasiga teng bo'lган energiya to'plash mumkin (0,11 t. neft energiyasi 1 tonna go'ngdan olinadigan energiyaga teng). Bugungi kunda Xindistonda 1 mlndan ko'proq kichik biogaz ishlab chiqaradigan qurulmalar (daydjestrlar) ishlab turibdi.

Bu texnologiya Xitoyda juda xam rivojlangan. Bu mamlakatda 200 mln.dan ko'proq qurilmalar ishlaydi. Shunisi e'tiborga sazovorki, mamlakatda daydjestrlardan foydalanishni nazorat qilish organlari tashkil etilgan. Aloxida yashovchi xar bir oilada daydjestrlar o'rnatilgan, ayniqsa shaxar joylardan uzoq joylarda, chorvachilik va parrandachilik fermalarida, kichik ishlab chiqarish korxonalarida va xokazo. Biogaz tayyorlash texnologiyasi Fillipinda, Gvatemala, Isroilda keng tarqalgan.

Doimiy (to'xtovsiz) metanizatsiya jarayoni chorva mollari va parrandalari chiqindilaridan tashqari, organik modda saqllovchi xilma-xil chiqindilarda xam amalga oshirilsa bo'ladi. O'zbekistonda xar yili 4 mln tonnaga yaqin g'o'zapoya, shuncha somon, 150 ming tonna sholi poyasi, million tonnalab xar-xil boshqa chiqindilar (kanalizatsiya, ishlab-chiqarish, chorvachilik va parrandachilik axlatlari va xokazo) to'planadi.

Mana shularni biogazga aylantirilganda qanchalik iqtisodiy samara olishni xisoblab chiqish qiyin emas. Ko'plab miqdordagi mablag' sarflab, temir quvurlar tortib, uzoq qishloqlarga gaz o'tkazgandan ko'ra, biogaz tayyorlashni yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Afsuski, xozircha bu biotexnologiya e'tibordan chetda qolib turibdi.

### **Topshiriq:**

1. Biogaz ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishing.
2. Talabalar kichik guruhlarga bo'linib, kichik guruhlar tomonidan biogas olish uchun qulay ob'ektlar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlansin.
3. Biogaz olish qurilmasining sxemasini daftarga chizing.
4. Biologik ob'ektlardan biogas olish yuzasidan takliflaringizni aytинг.

### **Biogaz ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Ekologik muammolarni keskinlashuvi, qayta tiklanmaydigan energoresurslar zaxirasini tobora kamayib borishi, ularni tan narxi oshishi, organik chiqindilarni qayta ishslash, ularni issiqlik va boshqa turdag'i energiyaga aylantirish muammosini tezroq xal qilishni biotexnologiyaning eng dolzarb masalalari qatoriga ko'tarib qo'ydi.

Ma'lumki, xayvonlar o'simliklar asosida yaratilgan ozuqa energiyasini yomon xazm qiladi va ularning yarmidan ko'prog'i organizmga so'rilmasdan axlat, go'ng xolatida chiqib ketadi. Eng avvalo xayvonlardan chiqqan bu chiqindidan organik o'g'it sifatida foydaliladi. Buni o'rniga ushbu chiqindidan tiklanadigan energiya manbai sifatida foydalansa bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yirik shoxli xayvonlar (nafaqat ular) yirik fermalarda va komplekslarda to'planib, boqiladi. Bu esa boshqa maxsulotlar qatori ularni chiqindilaridan (axlatlaridan) atrof-muxitni ifloslantirmasdan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Xayvon axlatlaridan va oqova suvlaridan oqilona foydalanishni yo'llaridan biri ularni anaerob sharoitda bijg'itishdir. Bu jarayonda axlatni zararsizlantirilib, bir vaqt ni o'zida uni eng muxim organik o'g'itlik sifatini saqlab qolgan xolda, undan biogaz olish mumkin. Metanli bijg'itish yoki biometanogenez – biomassani energiyaga aylantirish jarayoni qadim-qadimlardan ma'lum bo'lган jarayondir. U 1776 yilda Volta tomonidan ochilgan bo'lib, dastlab u botqoqlardagi gazda metan borligini aniqlagan. Mana shu jarayonda xosil bo'ladiqan biogaz 65% metan, 30% karbonat angidrid, 1% oltingugurt kislotasi ( $H_2S$ ) va unchalik ko'p bo'limgan miqdorda azot, kislorod, vodorod va uglerod ikki oksidi saqlaydi.

Botqoq gazi, ba'zida klar-gaz xam deb yuritildi, ko'k- xavo rang berib alanganadi, xid chiqarmaydi. Uni tutun chiqarmasdan alanganishi insonlarga o'tin, xayvonlar tezaklari va boshqa yoqilg'ilarga nisbatan kamroq tashvish tug'diradi. 28 m<sup>3</sup> biogaz energiyasi, 16,8 m<sup>3</sup> tabiiy gaz, 20,8 l neft yoki 18,4 l dizel yonilg'isiga tengdir.

Organik chiqindilarni anaerob bijg'itishga asoslangan tozalash inshootlarini birinchisi 1895 yilda Angliyani Ekzeger shaxrida qurib ishga tushirilgan edi. Bu inshootni sanitariya vazifasidan tashqari ko'chalarни yoritish uchun elektr energiyasi tayyorlash sarf bo'ladiqan biogaz ishlab chiqarish bo'lgan.

Chiqqindilarga anaerob ishlov berish uzoq vaqt suv tozalash stantsiyalarini cho'kmalarini va chorvachilikni chiqqindilarini mo'tadillash maqsadida ishlatib kelingan. Ammo, 1970 yillardagi energiya tangligi tufayli qishloq xo'jalik xayvonlari chiqqindilaridan biogaz ishlab chiqarish g'oyasiga astoydillik bilan qaraladigan bo'ldi.

Go'ngni anaerob bijg'itish orqali biogazga aylantirish jarayoni mustaxkam yopiladigan maxsus idishlar – biogaz usqurmalarida olib boriladi (8.1-rasm.).

### Ishning borishi:

Bu texnologik jarayon quyidagicha olib boriladi. Xayvonlar saqlanadigan molxonalardan (suratda 1) go'ng to'planadigan idishga yuboriladi (2), keyin nasos (3) yordamida uni metantenk (4) (go'ngni anaerob bijg'ishi uchun maxsus qurilma) ga yuboriladi. Bijg'ish jarayonida xosil bo'lган biogaz, gazgolder (5)ga kelib tushadi. va undan keyin iste'molchiga tarqatiladi. Suyuq go'ngni isitish uchun va issiqlikni bir xil ushlab turish uchun metanotenk ichida issiqlik almashtirib turuvchi g'ovurlar o'rnatilgan, ular orqali qozonxonadan (7) kelgan issiq suv aylanadi. Bijg'ib bo'lган go'ng, go'ng saqlanadigan (8) chuqurlikka tushiriladi

Metantenkda jarayon uchun zarur bo'lган barcha sharoit tashkil etiladi. (xarorat, organik moddalar miqdori, rN va boshqalar.) Metantek termoikulyatsiya qilingan bo'lib, bijg'ish jarayoni meyorida ketishi uchun kerak bo'lган xarorat doimiy ravishda ushlab turiladi. Unda shuningdek go'ngni xaydab turish uchun mo'ljallangan usqurma o'rnatilgan. Metantenka go'ng bir me'yorda, bijish jarayoni bir xil ketadigan xolatda kiritib turiladi.

Bijg'ish davrida go'ngda mikroorganizmlar rivojlanadi va birin- ketin organik moddalarni kislotalargacha parchalab beradi. Xosil bo'lган kislotalar metan xosil qiluvchi va sintrof mikroorganizmlar ta'sirida gazsimon maxsulotlar – metan va karbonat angidridiga aylanadi. Go'ngni anaerob bijish jarayonida organik moddalarni parchalanish darajasi 25% dan 45% gacha etadi.

Organik moddalarni parchalanishi (fegradatsiyasi) ko'p bosqichli jarayon sifatida amalga oshirilib, bunda uglerod bog'lari xar-xil mikroorganizmlar ta'sirida birin-ketin uziladilar. Eng zamonaviy tushunchalar bo'yicha organik moddalarni biogazga aylanishi to'rt bosqichda amalga oshadi:

birinchi, murakkab biopolimer molekulalarni (oqsil, lipid, polisaxarid va x.k.) kichikroq monomerlarga (aminokislota, karbon suvlar, yog' kislotalari va x.k.) aylanishi;

ikkinci, xosil bo'lган monomerlarni yanada oddiyroq moddalarga; tuban kislotalar va spirtlarga bijg'ish (fermentatsiya) asosida) aylanishi, (Bunda vodorod va karbonat angidrid xam paydo bo'ladi.);

uchinchi, atsetogen bosqich- bu bosqichda metandan oldingi moddalar (atsetat, vodorod, karbonat angidrid) paydo bo'ladi;

to'rtinchi, metanogen bosqich- oxirgi maxsulot, organik moddalarni metanga aylanishiga olib keladi.


Go'ng yoki boshqa organik moddalardan (chiqqindilardan) biogaz olishda qatnashadigan mikroorganizmlar xamjamiyatini ta'sir etish chizmasi(Zavarzin bo'yicha).

Chizmada organik moddalarni anaerob sharoida parchalanishida xar xil guruxga mansub mikroorganizmlarni o'zaro trofik aloqalari aks etirilgan birlamchi anaerobler organik moddalarni metanni old maxsulotlari bo'lган vodorod, korbonat angidiridi atsetat, metanol ,metil amidlar, formiatgacha parchalaydilar.

Metonogenlarni substrat spetsifikligi, ularni oldingi bosqichda ishtirot etgan bakteriyalar bilan trofik aloqasiz rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. O'z navbatida metan xosil qiladigan bakteriyalar birlamchi anaerobler sintez qilgan moddalarni ishlatish orqali shu bakteriyalar bajarayotgan reaktsiyalar imkoniyatlari va ularni tezligini aniqlab beradi.

Metan xosil bo'lishda boshqarish funktsiyasini bajarayotgan markaziy metabolit bo'lib, vodorod xizmat qiladi. Tizimda vodorodni partsial bosimini past xolatda ushlab turish xisobidan uni turlar orasidan birlamchi anaerobler metabolizmi bevosita metanni old maxsulotlari xosil bo'lishigacha qarab o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Agar tizimdan vodorod chiqarib tashlanmasa, qaytarilgan maxsulotlar uchuvchan yog' kislotalari va spirtlar xosil bo'ladi. Bu birikmalarni metabolizmi xayot faoliyati xosil bo'lган vodorodni metan bakteriyalar bilan

bog'lashga bag'ishlangan sintrof bakteriyalar tomonidan amalga oshiriladi. Metan xosil bo'lism chun zarur bo'lgan sharoitlar quyidagi jadvalda keltirilgan.




8.1-rasm. Go'ng sharbatini biogaz usqurmasida qayta ishlashni texnologik chizmasi  
1-molxona; 2-go'ng to'planadigan joy; 3-nasos; 4-metantenk; 5-gazgolder; 6-issiqlik  
almashtruvchi; 7-qozon; 8-go'ng saqlanadigan jy; 9-aerotenk.

### 8.1-jadval

#### Metan xosil bo'lism shartlari

| Ko'rsatkichlar  | Me'yoriy ko'rsatkichlar                                    | Chegara ko'rsatkichlari            |
|---|--|------------------------------------|
| rN<br>Uchuvchan kislotalar miqdori (SN <sub>3</sub> SOON bo'yicha)<br>Umumiy ishqoriylik (SaSO <sub>3</sub> bo'yicha) | 6,8- 7,4<br>50-500 mgG'l<br>500-1500mgG'l                  | 6,4- 7,8<br>200 mgG'l<br>1000-3000 |
| Chiqadigan gazni tarkibi  | 65-70% metan, 30-35% karbonat angidrididi va boshqa gazlar |                                    |
| Tuzlar  |  |                                    |
| NH <sub>4</sub> (N bo'yicha )   |  | 300 mgG'l.                         |
| Na  |  | 3500-5500 mgG'l.                   |
| K   |  | 2500-4500 mgG'l.                   |
| Sa  |  | 2500-4500 mgG'l.                   |
| Xarorat, OS   | 33-37.   |                                    |
| Metan ishlab chiqarish  | 0,3-0,4.m <sup>3</sup> G'kg quruq organik modda xisobidan. |                                    |



Metan xosil qiluvchi bakteriyalar, kislota xosil qiluvchi bakteriyalarga nisbatan o'zlarini o'sib rivojlanishlari uchun yuqoriroq talablar qo'yadilar yani ularni ko'payishlari uchun mutlaqo anaerob sharoit va ko'proq vaqt kerak bo'ladi.

### 8.2-jadval.

#### Biogazning fizik xususiyatlari

| Ko'rsatkichlar                            | Koponentlar     |                 |                |                  | 60% metan va<br>40% SO <sub>2</sub><br>aralashmasi. |
|---|-----------------|-----------------|----------------|------------------|---|
|   | SH <sub>4</sub> | CO <sub>2</sub> | H <sub>2</sub> | H <sub>2</sub> S |   |
| Xajm qismi %                              | 55-70           | 27-44           | 1              | 3                | 100   |
| Yonish issiqlik xajmi mdjG'm <sup>3</sup> | 35,5            | ----            | 10,8           | 2,8              | 21,5  |
| Yonish xarorati OS                        | 650-750         | ----            | 58             | -                | 650-750   |
| Zichligi, grG'l; me'yoriy chegara         | 0,72<br>102     | 1,98<br>408     | 0,09<br>31     | 1,54<br>349      | 1,20<br>3,20  |

Biogazni fizikaviy xususiyatlari uni ishlatish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Yonishni xajmiy issiqligi, yonish xarorati, yonish chegarasi asosan SH4 miqdori bilan belgilanadi chunki H<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>S juda xam kam bo'lgan miqdori bu ko'rsatkichga tasir etish darajasida emas.

Biogazdan elektor energiyasi olinganda faqatina uni 30% elektr energiyaga aylanadi xolos, 70% chiqindi issiqlikdir. Undan suv isitish, xayvonlarni saqlash (molxonalarini isitish), isiqxonalar yoki ularni isitish, quritg'ich xonalari yoki usqurmalarida xavoni isitish, mikroklimitni boshqarish va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

### 8.3-jadval.

Xar xil yonilg'ilarni yonish issiqligini nisbati

| Yonilg'i turi (yonish issiqligi)                       | Biogaz (m <sup>3</sup> da) SH4 saqlovchi (%) |      |      | Tabiy gaz 1m <sup>3</sup> da | Propan 1 kg da | qozon xona yoqilg'isi 1 kg da | Dizel yoqilg'isi 1 l da | Elektr toki (kVt.ch) |
|--|--|------|------|------------------------------|----------------|-------------------------------|-------------------------|----------------------|
|  | 56   | 62   | 70   |                              |                |                               |                         |                      |
| Biogaz 56% SH <sub>4</sub> (20,0 MDjG'm <sup>3</sup> ) | 1,0  | 0,91 | 0,80 | 0,60                         | 0,44           | 0,47                          | 0,56                    | 5,6                  |
| Tabiy gaz (33,5 MDjG'm <sup>3</sup> )                  | 1,68   | 1,52 | 1,34 | 1,00                         | 0,73           | 0,79                          | 0,93                    | 9,3                  |
| qozon xona yoqilg'isi (42,3 MDjG'kg)                   | 2,12   | 1,91 | 1,69 | 1,26                         | 0,78           | 1,00                          | 1,17                    | 11,7                 |

Qishloq xo'jalik xayvonlaridan va parandalaridan chiqadigan go'ng xamda ulardan olinishi mumkin bo'lgan biogaz miqdori quyidagi jadvalda keltirilgan.

### 8.4-jadval.

Go'ngdan biogaz chiqish ko'rsatkichlari

| Ko'rsatgich   | Sigirlar | Cho'chqalar | Parandalar |
|---|----------|-------------|------------|
| Bir boshga bir sutkada chiqadigan go'ng miqdori,kg                | 55,0     | 0,2         | 3,5        |
| Bir boshdan bir sutkada chiqadigan biogaz miqdori, m <sup>3</sup> | 1,62     | 0,02        | 0,32       |
| Bir tonna quruq go'ngdan chiqadigan biogaz xajmi, m <sup>3</sup>  | 300      | 600         | 500        |

Bundan tashqari, go'ngni bijg'itish uni dezodaratsiya qiladi (zararsizlantiradi), gelmentlarini, xamda yovvoyi o'simliklar urug'larini yo'qotadi, o'g'itsimon moddalarni engil so'rila'digan shaklga (mineral shaklga) o'tkazadi. O'simliklar uchun oziqaviy moddalar miqdori azot, fosfor, kaliy butunlay yo'qolmaydi. Biogaz usqurmasidan chiqqan go'ngdi kimyoviy tarkibi quyidagi jadvalda bayon etilgan.

### 8.5-jadval.

Go'ng kimyoviy tarkibining bijg'ish jarayoni vaqtiga qarab o'zgarishi (%)

| Bijg'ish davri, kun | Azot    |                               | R <sub>2</sub> O <sub>5</sub> | K <sub>2</sub> O | S:Numumiy |
|---------------------|---------|-------------------------------|-------------------------------|------------------|-----------|
|                     | Umumi N | Ammoniylik N- NH <sub>4</sub> |                               |                  |           |
| 0 (nazorat)         | 0,32    | 0,13                          | 0,11                          | 0,24             | 12,2      |
| 5                   | 0,31    | 0,13                          | 0,11                          | 0,24             | 11,9      |
| 10                  | 0,31    | 0,16                          | 0,11                          | 0,24             | 10,5      |
| 15                  | 0,31    | 0,16                          | 0,11                          | 0,24             | 9,6       |

Go'ngni anaerob bijg'itishda uni tarkibidagi kaliy va fosfor butunlay o'zgarmaydi. Azot moddalari go'nga ishlov berishni boshqa usullari ishlatilganda 30% yo'qilsa, anaerob

bijg'ishda 5% yo'qoladi. shuni xam eslab qolish lozimki, yangi go'ngni azot organik shaklda bo'lsa, anaerob bijg'ish oqibatida u o'simlik uchun qulay bo'lgan ammoniy shakliga o'tadi.

Go'ngni anaerob bijg'itish atrof muxitni muxofazasi uchun qanchalik foydali ekanligini iqtisodiy xisob kitob qilish ancha mushkul vazifa. Bu yo'l bilan ishlov berilgan go'ng, biologik mo'tadil xolatda bo'lib, xashorotlarni o'ziga tortmaydi.

Anaerob bijg'ishdan keyin go'ngdag'i qo'lansa xid beradigan moddalar yo'qoladi  
8.6-jadval.

Bijg'itilgan go'ng tarkibida kuchli xid beradigan moddalar miqdori

| Birikmalar  | Tabiiy go'ng, % | Bijg'itilgan go'ng, % |
|-------------|-----------------|-----------------------|
| Fenol       | 100             | 4                     |
| Krezol «P»  | 100             | 10                    |
| Skatol      | 100             | 79                    |
| Moy kislota | 100             | 3                     |

Anaerob ishlov berishda pole viruslar miqdori 98,5% ga kamayadi, indeks E.koli 108 dan 105-104 gacha, parazitlarni urug'i 90-100% yo'qoladi

Tabiiy resurslardan foydalanganda qo'yilmdigan ekologik talablar xo'jalik xisob sharoitida, «ulardan foydalanilganda o'rniga qo'yish» degan iboralar qonuniy jujjatlar asosida ishga tushganda aloxida axamiyat kasb etadi.

Energiyaning baxosi ko'tarilib ketayotgan manashu davrda ayniqsa anaerob biologik jarayondan foydalanish katta iqtisodiy foyda keltiradi. Go'ngni anaerob sharoitida tozalash nafaqat energetika manbai sifatida, balki qo'shimcha energiya manbai sifatida qaralmog'i lozim.

## 8.2. Biogaz ishlab-chiqarish usqurmalarini va ularni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Biogaz ishlab-chiqarish asosiy bo'lib, bijg'iydigan reaktor xisoblanadi (chizma), va ularni xillariga qarab, xar-xil tarkibga va turga ega bo'lgan go'ng anaerob sharoitda bijg'itiladi.

Birinchi avlod ananaviy metanteklarni xar-xil konstruktsiyaga va texnologik echimga ega bo'lganlari bor. Bu metanteklar ba'zida ikki yoki undan ko'proq sektsiyaga bo'lingan bo'ladilar. Bu sektsiyalarda anaerob bijg'ishni bosqichlarini qisman ajratib turish amalga oshiriladi.

Metanteklarni konstruktsiyasi xilma-xil bo'lib, bir-biridan asosan gidravlik rejim (davriy yoki oqib to'ladigan) yoki yuklash usullari (doimiy yoki davriy) bilan farq qiladi. Go'ngni to'xtovsiz (doimiy) yuklanganda, ma'lum vaqt o'tishi bilan (1 sutkada 10 martagacha) go'ng yuklanadi va o'shancha bijg'ib bo'lgan go'ng chiqarib tashlanadi. Bijg'ishni bbarcha shartlarini saqlaganda, mana shu usul bilan eng ko'p miqdorda biogaz olish mumkin.

Metanteklarni davriy chizmasida (ular odatda ikki), ularni navbatma-navbat to'ldiriladi. Bunda yangi solingan go'ng bijg'itilgani bilan aralashtiriladi.

Gaz 5-10 kun orasida paydo bo'la boshlaydi va yuqori cho'qqiga chiqqandan keyin, sekin pasayib boradi. Gazni paydo bo'lishi minimumga etganda, bijg'ib bo'lgan go'ng chiqarib tashlanib, metanteklarga toza go'ng yuklanadi.


Anaerob xolatda go'ng saqlaydigan inshootlarda xosil bo'lgan biogazni yig'adigan, xaroratni va RNni ushlab turadigan sintetik yopgich xamda sekin aralashtirib beradigan, qolgan go'ngni qaytadan tsirkulyatsiya qiladigan uskunalar bilan jixozlangan bo'lishi kerak.

Anaerob go'ng saqlaydigan inshootlarni ustunligi, ularni tuzilishini oddiyligi, xamda uchib yuradigan mayda moddalarga sezgirligini pastligida bo'lsa, ularni kamchiliklari – katta maydonni egallashi, xamda qish vaqtida ko'p miqdorda issiqlikni yo'qotishidir.

Ko'pchilik (xozirgi kunda ishlab turganlarini 68%) biogaz qurilmalari bir bosqichli, to'liq aralashadigan oqish tipida qurilgan. Ammo bunday qurilmalarni salbiy tomoni shundan iboratki, bularda go'ngni to'liq bijishi amalga oshirilmaydi (ba'zida bijimagan go'ng xam o'tib ketadi va shu sababli biogaz miqdori past bo'ladi).

Oquvchi metanteklar boshqalariga qaraganda yaxshiroq bo'lib, unda suyuq yoki yarim suyuq go'ngdan (namlik 91-96%) biogaz olinadi.

Ammo, go'ng oqovalaridan, o'ta yuqori faollikka ega bo'lganligidan, fugablardan, va tozalash inshoatlarini qoldiqlarini anaerob sharoitda biogaz tayyorlashda bunday qurilmalarining samaradorligi juda xam past, shu tufayli xam ulardan foydalanilmaydi yoki juda xam kam foydalaniladi.



8.3-rasm. Biogaz usqurmalarini klassifikatsiyasi

Quruq moddasi kam bo'lgan suyuqliklardan (organik modda miqdori 2% dan kam) biogaz tayyorlanganda anaerob sharoitda o'sib, rivojlanayotgan bakteriyalarni biomassasini ushlab qolishga mo'ljalangan metantenklardan foydalaniladi.

Bunday reaktorlarda suzib yuruvchi yoki bir joyga o'rnatilgan nasatkalar bo'lib, ular biomassani qayta aylantirishga xizmat qiladilar yoki shu maqsadda bir necha sektsiyalarga bo'lingan reaktorlar ishlataladi. Bunday reaktorlarni bazida biofiltrlar deb yuritiladi.

Odatda ,suyuq chiqindilarni ishlatalishda ko'proq maxkamlangan yoki xosil bo'ladigan biomassani cho'ktiruvchi biofiltrlardan foydalaniladi.

Biofiltrda go'ngni suvi sizib tepaga ko'tariladi va mikroorganizmlar metabolitidan tashkil topgan yupqa pylonka xosil qiladi. Bu pylonka go'ng suvi bilan kontaktga kirishganda undagi organik modalarni parchalaydi va oqibatda biogaz xosil bo'ladi.

1967 yilda Yang va Makkarte tomonidan taklif etilgan pasdan tepaga ko'tariladigan biofiltr biomassani yig'ib oladigan birinchi aerob reaktor xisoblanadi. Bu inshoatda oqova suv inshoat

tagidagi taqsimlovchi tizim orqali yuborilib, yuklovchi materiallar qavatidan o'tib, reaktorni ustki qismidan chiqadi.

Zamonaviy anaerob biofiltrarda biomassa garanula va flokulalar (balchiqsimon) xolatida yuklovchi materiallar orasida to'planib qoladi yoki bioplyonkalar sifatida shag'al, toshqol yoki plasmassalar yuzini qoplab oladi. Bunday usqurmalar yordamida go'ng oqovalaridan gaz ishlab chiqarish unchalik ko'p emas va shu vaqtgacha samarador usqurma yarataolingani yo'q.

Kontaktli reaktor doimiy yuklanib turadigan aralashirgich uskunasi va biomassani ajratishag mo'ljallangan sirqi usqurmalar bilan jixozlangan rezervuardan tashkil topgan. Kontaktli reaktordagi bakteriyalar balchiq parchalariga (flokul) o'xshagan xolatda, aralashirib turishi natijasida suyuqlikda suzib yuradilar, cho'kmaydilar.

Balchiqsimon aralashma tindiruvchilarda ajratiladi va ushlab qolning biomassa reaktorga qaytadan yuboriladi va yangidan yuborilgan substrat bilan aralashiriladi.

Oqibatda, organik moddalar parchalanib, biogaz xosil bo'ladi. Qattiq va yarim suyuq xolatdagi go'ngni (namligi 90% dan kam bo'lgan) bijg'itish uchun bijigan go'ngdi ajratib olingandan keyin qolgan suyuqliqni qaytadan tsirkulyattsya qiladigan usqurma ko'proq ishlatiladi.

Suyuq fraktsiya undagi gidravlitik rejimni kerak xolatda ushlab turish maqsadida reaktorga qaytariladi bu esa yuqori kontsentratssiiali go'ngni bijg'itish imkonini beradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan qurilmalari xarxil fizika mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan go'ngdan anaerob sharoitda bijg'itish orqali biogaz ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

G'arbiy Evropa mamlakatlarida ishlayotgan biogaz qurilmalarini ko'prog'i mezofil sharoitda (30-370S da) ishlaydi. Xozirgi vaqtida Yaponiyada, Germaniyada va Shveytsariyada psixrofil sharoitida bijg'itish jarayonini olib borish ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Bu esa xech qanday aralashishsiz (isitmasdan) atrof muxit xaroratida biogaz tayyorlash imkoniyatini yaratadi (8.7-jadval).

G'arb mamlakatlari ekspertlarining fikrlaricha bu yo'naliish iqtisodiy va istiqbolli yo'naliishlardan biridir. G'arb mamlakatlarida go'ngni bijg'itish uchun termofil jarayonlardan (50-550S) foydalanimaydi.

#### 8.7-jadval

Evropa mamlakatlarida qo'llaniladigan biogaz qurilmalarini tasnifi

| Mamlakat     | Fermalar va shartli birlik miqdori  | Ishlov berish muddati | Xarora t, °S | Biogaz chiqishi m3 sutkaG' shartli bosh | Metantenkning xajmi | Qurilma baxosi        | Tayyorlovchi firma |
|--------------|-------------------------------------|-----------------------|--------------|---|---------------------|-----------------------|--------------------|
| Germaniya    | 700 bosh cho'chqa boqiladigan ferma | -----                 | 37           | -----                                   | 100                 | 120000 nemis markasi  | Varch              |
| Filandiya    | 150 bosh qoramol                    | -----                 | 36           | 2m3                                     | -----               | 130 ming AQSh dollari | AO AVE             |
| Fрансиya     | 40 bosh qoramol                     | 15 kun                | 35           | 1m3                                     | 180                 | 250 ming frank        | «Biomaga z»        |
| Shveytsariya | 100 bosh qoramol                    | -----                 | 35           | 1,5 m3                                  | -----               | 1967000 frank         | «Gabor»            |
| Buyuk        | Yiliga 2500 bosh                    | 10 kun                | 35           | 0,5                                     | -----               | 2988000 funt          | «Ekviment LTD»     |

|              |                                |       |    |      |      |                     |       |
|--------------|--------------------------------|-------|----|------|------|---------------------|-------|
| britaniya    | cho'chqa<br>boqadigan<br>ferma |       |    |      |      | sterling            |       |
| Ve<br>ngriya | 700 bosh<br>qoramol            | ----- | 30 | 1650 | 1800 | 2100000<br>0 forint | ----- |

Yuqorida ko'rib o'tilgan materiallar asosida bijg'ish qanday xaroratda olib borilgani iqtisodiy samaraliroq ekanligi xaqida ma'lumot olish qiyinroq. Xatto Rossiyada ishlab turgan qurilmalar xam xar-xil rejimda, masalan Istra-350S da; KOBOS-400S va BF-500-550S da (8.8-jadval) faoliyat ko'rsatadilar.

#### 8.8-jadval

Rossiyadagi biogaz qurilmalarini texnik tavsifi.

| Qurilmalar<br>ko'rsatkichlar                        | KOBOS-1 | BF-500 | BGU-25 | BGU-50 | BGU-100 |
|---|---------|--------|--------|--------|---------|
| Unumdorlik, go'ng<br>bo'yicha, m <sup>3</sup> G'sut | 35-50   | 80     | 2      | 4      | 8       |
| Biogaz chiqish miqdori,<br>m <sup>3</sup> G'sut     | 260     | 200    | 20     | 40     | 80      |
| Reaktor xajmi, m <sup>3</sup> G'sut                 | 2x125   | 500    | 25     | 50     | 2x50    |
| Ishlov berish davri, sut                            | 5-10    | 5      | 10     | 10     | 10      |
| Ishlov berish xarorati, °S                          | 40      | 55     | 35     | 35     | 35      |
| Komplekt massasi, t                                 | 90      | 43     | 5      | 7      | 11      |

Biogaz qurilmalar go'nga ishlov berish davri va sutkalik yuklash miqdori bo'yicha xam bir-birlaridan farqlanadilar (5dan 30 sutkagacha ishlov berish vaqt va 3,3 dan 20% gacha bir sutkalik yuklash miqdori). Metanteklarni solishtirma xajmi bir shartli boshga Vengriyada 2,57m<sup>3</sup> bo'lsa, Rossiyada (KOBOS) 0,625m<sup>3</sup> ; biogazni miqdori xam 0,5 m<sup>3</sup>G'bosh dan 2,0m<sup>3</sup>G'boshgacha.

Shuni xam ta'kidlab o'tish lozimki, metanogenez jarayni anchagina issiqlik energiyasini talab qiladi. Xarorat qancha baland bo'lsa, qo'shimcha issiqlikka ketadigan xarajat shuncha baland bo'ladi. Shuning uchun xam metanogenez tezligini xarorat ta'sirida ko'tarishni salbiy tomonlari xam mavjud. Biogaz qurilmalarini iqtisodiy samarasini muayyan region yoki xo'jalikni sharoitlari bilan uzviy bog'liqdir.

Shimoliy mintaqalarda issiqliknin iqtisod qilish maqsadida mezofil rejimdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday sharoitda reaktorni ishchi xajmi va chegirib qolning vaqt ko'payadi. Misol tariqasida Finlyandiyani «AV Enbom» firmasi tayyorlagan, Laplandin sharoitida (330Sda) ishlaydigan biogaz qurilmasini keltirish mumkin. Ba'zan issiqlik xarajatlarini kamaytirish va biogaz miqdorini oshirish maqsadida metanogeneratsiyani ikki fazada: kislogen va metanogen fazalarida o'tkaziladi. Birinchi faza 30-350S, ikkinchisi esa 550S da olib boriladi.

Biogaz xosil bo'lismi ko'rsatkichlari bu reaktorlarda 0,67 dan 2,55 m<sup>3</sup>G'm<sup>3</sup> kun. teng bo'ladi.

Rossiyada tayyorlangan KOBOS-1 qurilmasi namligi 89-96 % bo'lgan suyuq go'ngni sifatli, zararsizlantirilgan, dezodaratsiya (badbo'y xidi yo'qolgan) qilingan o'g'itga aylantirish bilan birga chorvachilik kompleksini sanitar xolatini tuzatish va biogaz olishga mo'ljallangan. Go'ngni mexanik yoki gidravlik yo'l bilan chiqarishga mo'ljallangan chorvachilik komplekslari va fermalarida ishlatiladigan texnologik liniya tarkibida ishlatiladi.

BF-500 biofiltrli cho'chqa axlatlarini oldindan ajratilgan suyuq fraktsiyasidan birgaz olishga mo'ljallangan.

BGU-25, BGU-50 va BGU-100 biogaz qurilmalari, 100, 250 va 500 bosh cho'chqa boqadigan fermalar uchun ularni sanitar xolatini yaxshilash va biogaz olish uchun yaratilgan. Olingan biogaz ozuqa tayyorlash uchun issiqlik manbai sifatida ishlatiladi.

Biogaz qurilmalarini samaradorligi tabiiy-iqlim sharoitiga bog'liq bo'lganligi uchun xam keng miqyosda o'zgarib turadi. Samaradorlik bijishga tayyorlangan moddalarni turiga, sifatiga, tarkibiga, xolatiga, xamda qurilmani texnologik va texnik parametrlariga xamda ishlash tartibiga bog'liq. Taqqoslash uchun olingan energiya tashuvchining baxosi qancha baland bo'lsa, biogaz qurilmasining samaradorligi xam shuncha baland bo'ladi.

Amerikalik olimlarning xisob-kitoblaricha doimiy rejimda ishlaydigan biogaz qurilmalarida ishlab chiqariladigan biogazni tannarxi 0,27-0,52 dollarG'm3 ga teng bo'lar ekan. Bunda biogaz qurilmasi ishlab chiqarishning Q20S gacha bo'lgan sharoitda energichga bo'lgan talabini qondirishi lozim. Iqlim qo'rsatilgandan past bo'lgan xollarda tashqaridan energiya kiritish lozim.

Dezodaratsiya va sifatli o'g'itdan foydalanishni xisobga olganda, 1m<sup>3</sup> biogazni tannarxi 15-20 % ga pasayadi (faqt biogaz olishga ketgan xarajatlarga nisbatan).

AQSh sharoitida yirik chorvachilik komplekslarida biogaz ishlab chiqarishga ketadigan kapital solishtirma xarajat quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (8.9-jadval).

8.9-jadvaldan ko'riniib turibdiki, biogaz ishlab-chiqarish o'rtta (mol soni 1000 dan 10000gacha bo'lgan) va katta xajmdagi (mol soni 10000 mingdan ko'proq) fermalarda iqtisodiy samaraliroq bo'lar ekan. Bu jadval shuningdek biogazni tannarxi tabiiy gazga nisbatan juda baland ekanligi ko'rsatib turibdi. Bu ko'rsatkich biogaz ishlab chiqarishdan olinadigan boshqa samaralarni xisobga olinmaganligi bilan tushuntiriladi. Xisob kitoblarda, o'g'itni yoki to'plangan mikrob biomassasidan ajratib olinadigan oqsil-vitamin kompleksin, shuningdek olinadigan ekalogik samaradorlik e'tiborga olinmagan. Nepallik mutaxassislarni xisob kitoblariga ko'ra, o'g'it sifatida qayta ishlangan go'ngni baxosi biogaznikiga nisbatan etti marotaba ko'proq bo'lar ekan.

#### 8.9-jadval

AQSh da semirtirishga moslashtirilgan chorvachilik komplekslarida biogaz ishlab chiqarishni baxo ko'rsatkichlari

| Semirtirishga<br>qo'yilgan<br>ming | Mablag'ning ishlatilishi |                            | Yillik ishlab chiqarish<br>xarajati. |                           |
|------------------------------------|--------------------------|----------------------------|--------------------------------------|---------------------------|
|                                    | dollG'bosh               | 1000 boshga<br>nisbatan, % | dollar<br>yilga                      | 1000 boshga %<br>xisobida |
| 1                                  | 371                      | 100                        | 129                                  | 100                       |
| 2                                  | 280                      | 75                         | 91                                   | 71                        |
| 5                                  | 170                      | 46                         | 53                                   | 41                        |
| 10                                 | 131                      | 35                         | 39                                   | 30                        |
| 25                                 | 89                       | 24                         | 26                                   | 20                        |
| 50                                 | 76                       | 20                         | 21                                   | 16                        |
| 100                                | 66                       | 18                         | 19                                   | 15                        |

Shuningdek, biogaz tizimini tabiatni asrashdagi samarasini xam xisobga olish kerak. Go'ngni biogaz qurilmalarida zararsizlantirish (issiqlik orqali ishlov berishga qaraganda) neft yonilg'isini iqtisod qilish imkonini beradi. Rossiyadagi VNIUPI energopromda ishlaydigan mutaxassislarni xisob-kitoblariga ko'ra, qozonxonalarda biogaz yoqilganda, atmosferaga chiqadigan zaxarlar miqdari kamayar ekan.

Agar biogaz qurilmasi fermalardagi chiqindilarni utilizatsiya qilish texnologik liniasi tarkibida ishlatilsa, biogazni tannarxi yanada pasayadi. Bunday xolatda, chiqindilardan anaerob sharoitda biogaz olish ularga ishlov berishni alternativ yoki qo'shimcha usuli sifatida qaralishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan dalillar asosida shuni aytib o'tish lozimki, biogaz ishlab-chiqarishni samaradorligini ob'ektiv baxolash uchun, go'ngga anaerob sharoitda ishlov berishda olinadigan barcha ijobjiy tomonlarni xisobga olish lozim.

**Keys.** Buyuk Britaniyada mamlakatni tabiiy gazga bo'lgan talabini 3,2% biogaz orqali qondirilar ekan. Rossiyada xam biogaz ishlab chiqarish bo'yicha katta potentsial mavjud. Xar

yili chorvachilik fermalarida 665 mln. t go'ng xosil bo'ladi, buni xar bir tonnasidan anaerob sharoitda bijg'itish orqali issiqlik chiqarishi 5600-6300 KkalG'm<sup>3</sup>ga teng bo'lgan 15-20 m<sup>3</sup> biogaz ishlab chiqarish mumkin. O'zbekistonda xar yili 4 mln tonnaga yaqin g'o'zapoya, shuncha somon, 150 ming tonna sholi poyasi, million tonnalab xar-xil boshqa chiqindilar (kanalizatsiya, ishlab-chiqarish, chorvachilik va parrandachilik axlatlari va xokazo) to'planadi, biroq biogas olish to'liq yol'ga quyilmagan, O'zbekistonda biogaz olishni rivojlantishga nimalarga etibor berish kerak deb o'ylaysiz?

### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdag'i muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (Induvidual va guruhda).
- Amaliyotda biogaz olishdagi afzal texnologiyalar haqidagi malumotlarni jamlang.

### Nazorat uchun savollar

- 1.Biogaz olish uchun iishlatiladigan asosiy ob'ektlar nima?
- 2.Biogaz ishlab chiqarish texnologiyasini tushuntiring.
- 3.Qaysi ob'ektdan biogaz olishni tavsiya etgan bo'lardingiz?

### 3-laboratoriya mashg'ulot

#### Mavzu: Fermentni kovalent immobillash

**Ishning maqsadi:** Talabalarni fermentni kovalent immobillash usuli bilan tanishtirish.

**Kutilayotgan natija:** Talabalarni fermentni kovalent immobillash usulini qo'llash ko'nikmasi hosil bo'ladi.

#### *Nazariy tushuncha.*

Fermentlar tizimi xalq xo'jaligini xar xil tarmoqlarda: oziq-ovqat, farmatsevtika, to'qimachilik, chorvachilik va boshqa bir qator soxalarda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Shunday bo'lishiga qaramasdan fermentlarni qo'llash masalasi uzoq vaqtlardan beri rivoj topmasdan kelgan. Bunga asosiy sabab fermentlar va fermentlar tizimining iqitisodiy qimmatligi edi. Ishlatilgan fermentlar tashlab yuborilavergan, buning ustiga ularni ishlab chiqarishni o'zi xam juda qimmat bo'lgan.

Albatta, mikrobiologiya sanoatini rivojlantirish xisobidan kerakli fermentlarni, kerakli miqdorda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin. Ammo bu xam unchalik arzonga tushadigan maxsulot emas.

Bundan tashqari fermentlarni ishlatishni to'xtatib turadigan eng kamida ikkita sababi bor:

- fermentlar saqlashda, ayniqsa tashqi muxit ta'siriga (xaroratga) o'ta chidamsiz;
- fermentlarni qayta ishlatish juda murakkab masala, chunki ularni reaktsiya sharoitidan ajratish imkoniyati yo'q.

Mana shu sabablarga ko'ra fermentlardan foydalanish o'zini oqlamay qo'ygan edi. Ammo, bugungi kunda bu muammo butunlay xal qilingan.

Immobilizatsiya qilingan fermentlarni olish texnologiyasining yaratilishi bu muammoga chek qo'ydi.

1916 yilda D.J.Nilson va E.Grifin invertaza fermentini ko'mir maydasiga adsorbsiya qilinganda (immobilizatsiya qilinganda), uni faolligi saqlanib qolganligini kuzatdilar. 20-30 yillarda oqsil va fermentlarni adsorbsiya qilish muammosi bo'yicha qator maqolalar e'lon qilingan. Ammo bu maqolalarni moxiyati ilmiy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, ishlab-chiqarish bilan bog'liq bo'lmanan.

1939 yilda D.J.Pfanmyuller va G.Shleyxlar proteolitik fermentlarni yog'och qipig'iqa adsorbsiya qilish bo'yicha birinchi patentni olishga muvofiq bo'ldilar va olingen fermentni teriga ishlov berishda ishlatish mumkinligini isbotlab berdilar.


Fermentlar va sorbentlar orasida mustaxkam kon'yugatlar (bog'lar) xosil qilish mumkinligini birinchilardan bo'lib 1953 yilda N. Grubxover va D.Shleyglar ko'rsatib berdilar. Bu olimlar ferment bilan sorbentni kovalent bog'lar bilan bog'lash mumkinligini va bu xolatda ferment faoliyatini saqlab qolajagini isbotlab berdilar.

### Ishni bajarish

Immobilizatsiya qilish usullari ikkiga bo'linadi:

fizikaviy yo'llar bilan immobilizatsiya qilish;

kimyoviy yo'llar bilan immobilizatsiya qilish;



5-rasm. Immobilizatsiya usullari

#### Fizik usullarda immobilizatsiya qilish

Yuqori ko'rsatib o'tilganidek, fermentni immobilizatsiyasi deyilganda, uni (fermentni) qanday bir aloxida fazaga kiritilishi suv fazasidan ajralib turadigan va shunday vaziyatda o'zini asosiy xususiyati - substrat yoki effektorlar bilan aloqada bo'lish imkoniyatidan judo bo'lmasligini tushiniladi.

Shu anqlikdan kelib chiqqan xolda, fizikaviy immobilizatsiya qilish usullarini to'rt guruxga bo'lish mumkin:

suvda erimaydigan "tashuvchi" larga adsorbsiya qilish;

gel teshikchalariga kiritish;

yarim o'tkazgich membranalar yordamida fermentni reaktsion tizimini boshqa qismidan ajratish;

fermentni ikki fazalik reaktsion muxitga kiritish, bunday

sharoitda ferment suvda eruvchan bo'ladi va ikkinchi fazaga kira olmaydi.

Keltirilgan klassifikatsiya shartlidir, chunki bu usullar orasida aniq ajrimlarni o'rnatish mumkin emas. Masalan, gel teshikchilariga kiritish usuli bilan immobilizatsiya qilishni, yarim o'tkazgich membranalar orqali ajratib turish deb xam qarash mumkin. Shunga qaramasdan bu klassifikatsiya fizikaviy usullar bilan immobilizatsiya qilishni bir tizimga solishda yordam bera oladi.

Adsorbsiya qilish orqali immobilizatsiya qilish, eng ko'xna usullaridan xisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, 1916 yilda Dj.Nilson va E.Griffin invertaza fermentini

foallashtirilgan ko'mirda va alyuminiy gidroksidi gelida immobilizatsiya qilganlar. Xuddi shu usuldan keyinroq, 1969 yilda I.Shibata L-aminoatsilaza fermentini immobilizatsiya qilishda foydalangan. L-aminoatsilaza fermenti N-atsetil-DL- aminokislotalarni bir birlaridan ajratishda sanoat miqyosida xozirgacha ishlatilib kelinmoqda. Umuman adsorbsiya usulida immobilizatsiya qilish boshqa usullardan osonligi, vazifani tez bajarish mumkinligi, tashuvchilarни arzonligi va boshqa bir qator ustunliklarga ega bo'lganligi uchun fermentlar muxandisligida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Adsorbsion immobilizatsiya qilish uchun "tashuvchi" lar

Adsorbsion immobilizatsiya uchun ishlatiladigan "tashuvchi" larni ikki sinfga - organik va noorganik tashuvchilarga bo'lib o'rghanish mumkun.

Noorganik tashuvchilar sifatida kremnezem, alyumin, titan va boshqa elementlar oksidlari, alyumosilikatlar (loylar), shisha, sopol, faollashtirilgan ko'mir va boshqalar keng ishlatiladi.

Organik tashuvchilar orasida keng tarqalganlari xar xil polisaxaridlar polimerli ionalmashuv smolalari, kollagen, tovuq suyaklari va boshqalardir. Tashuvchilar kukun, kichik sharchalar, granulalar sifatida ishlatiladi. Ba'zi bir xolatlarda, gidrodinamik qarshilikni pasaytirish maqsadida, tor parallel kanallar saqlovchi monolitlar sifatida xam chiqariladi.

Tashuvchilarни eng asosiy xususiyati sorbsiya qilish qobiliyati, teshikchalarini o'lchami, mexanik va kimyoviy barqarorligidir.

Adsorbsion immobilizatsiya qilish usullari

Adsorbsiya qilish yo'li bilan immobilizatsiya qilish eng sodda usullardan bo'lib, ferment eritmasini "tashuvchi" bilan aralashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yopishmasdan fermentni yuvib tashlagach, immobilizatsiya qilingan ferment ishlatilishga tayyor bo'ladi. Adsorbsion immobilizatsiya qilingan fermentlarni olish uchun quyidagi uslubiy ko'rsatmalardan foydalanadi.

Statistik usul eng oson yo'l bo'lib "tashuvchi" ferment eritmasiga tashlanib (solinib) xosil bo'lgan aralashma, ma'lum vaqtga tashlab qo'yiladi. Immobilizatsiya fermentni o'z o'zidan diffuziyasi tufayli boshlanib, adsorbsiya bilan tugallanadi. Bu usulni kamchiligi, ferment eritmasi bilan "tashuvchi" aralashmasi uzoq vaqt (bir necha kunga) tashlab qo'yilishi lozim. Laboratoriya sharoitida ko'proq aralashtirish usuli ishlatiladi. Bu usulda statistik usuldan farqli o'laroq ferment eritmasi bilan "tashuvchi" doimiy ravishda aralashtirib turiladi.

Aralashtirish uchun magnit aralashtirgich, mexanik aralashtirgich yoki mikrobiologik tebratgichdan foydalanish mumkin. Bu usul oldingisidan ancha ustun turib "tashuvchi" satxida fermentni bir tekis joylanishini belgilab beradi. Ba'zida adsorbsion immobilizatsiya qilish uchun elektrocho'ktirish usulidan foydalaniladi. Buning uchun ferment eritmasiga ikkita elektrod tushiriladi, ulardan bittasini satxida bir qatlama "tashuvchi" surtilgan bo'ladi. Elektrodlar tokka ulanganda ferment satxidagi faol guruxlar (-NH<sub>2</sub>; -COOH va x.k.) xisobidan "tashuvchi" saqlanayotgan elektrod tomonidan xarakat qiladi va uni satxida cho'kadi.

Texnologiyada foydalanish uchun eng qulay usul - kolonkalardan o'tkazish usulidir.

Bu usulni ikki modifikatsiyasi bor, ulardan biridan "tashuvchi" to'ldirilgan kolonkadan tepadan pastga qarab, mikronasoslar yordamida ferment eritmasi xaydaladi, ikinchisida esa teskarisi, ferment pastdan tepaga qarab yo'naltiradi. Bu usulni afzallik tomoni, fermentni xaydash, yuvish, va keyingi fermentativ jarayonlar, xech qanday manipulyatsiyasiz bir kolonkani o'zida olib boriladi.

Ferment va "tashuvchi" orasidagi adsorbsion o'zaro ta'sirning tabiatи

"Tashuvchi" satxida adsorbsiya bo'lgan ferment molekulalari xar xil kuchlar xisobiga, xususan nospetsifik Van-der-Vaals, elektrostatik, o'zaro ta'sirlar, vodorod bog'lari va hidrofob bog'lar xisobiga amalga oshiriladi. Sanab o'tilgan bog'larni nisbiy ishtiroki ferment molekulasidagi faoliyat guruxlari yoki "tashuvchi"ning kimyoviy tabiatiga bog'liq bo'ladi. Ko'pchilik xollarda asosiy vazifani elektrostatik o'zaro ta'sirlar va vodorod bog'lari tashkil etadi.

Ba'zi vaqtarda o'zaro ta'sir kuchi oqibatida "tashuvchi"ning tuzilishi buzilishigacha borish mumkin. Masalan, ba'zi o'simlik xujayralarini tsitodeks granulalariga adsorbsiya qilinganda xujayra devori deformatsiyaga uchragani kuzatilgan.

Fermentlar adsorbsiyasiga ta'sir etuvchi omillar

Adsorbsiya o'tish jarayoni va ferment bilan "tashuvchi" orasidagi bog'ni mustaxkamligi, ko'pchilik xollarda immobilizatsiya qilish sharoitiga bog'liq bo'ladi.

Ferment adsorbsiyasiga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi: tashuvchini g'ovakligi va sirtini faolligidir.

Tashuvchini sorbtsiya qilish xajmi uning sirtini faolligiga to'g'ri proporsional oqsil yoki fermentga kelganda bu qonuniyat faqatgina tashuvchini g'ovakligi oqsil molekulasidan anchagini katta bo'lgandagina o'z kuchini saklaydi. Tashuvchini g'ovakligi juda kichik bo'lganda, fermentlar g'ovaklarga sig'masalar, fermentlar uchun tashuvchilar satxining ma'lum bir qismigina foydali bo'ladi xolos.

Bunday paytlarda tashuvchining sorbtsiya qilish imkoniyatlari juda kam bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, g'ovaklar qancha kichik bo'lsa, tashuvchining adsorbsiya qilish imkoniyatlari shuncha kam bo'ladi. G'ovaklarni mo'tadil xajmini xisoblashni birinchilardan bo'lib buni 1976 yilda R.Messing taklif etgan.

U shisha va sopol materiallardan tashuvchi sifatida foydalana turib, ularni g'ovaklarini kattaligini (xajmini) o'lchab chiqdi va g'ovaklarni kattaligi ferment bo'yidan taxminan 2 marotaba katta bo'lgan xollarda tashuvchini adsorbsion imkoniyatlari maksimum bo'lishini tajribalardan isbotlab berdi.

Bunday xolda substratni molekulyar o'lchami fermentdan ancha kichik bo'lmog'i va sorbtsiya qilingan ferment g'ovaklariga bemalol kirib turishlari lozim, albatta.

Substrat molekulasining xajmi fermentnikidan katta bo'lgan xollarda tashuvchining g'ovakligi substrat molekulasi bilan belgilanadi. Ba'zi bir xollarda substratni o'zi tashuvchi vazifasini bajarishi xam mumkin. Masalan, tsellyulaza fermentini immobilizatsiya qilish uchun uning substrati bo'lgan tsellyulozadan keng foydalanaladi.

### rN belgilari

Reaktsiya muxiti immobilizatsiya qilish jarayonida juda katta axamiyatga ega, ayniqsa sorbtsiya, elektrostatik o'zaro ta'sir yordamida amalga oshirilgan xolatlarda.

Bunga asosiy sabab rN o'zgarishi bilan oqsil yoki tashuvchining sorbtsiya uchun javobgar bo'lgan ionogen guruxlarni ionizatsiyasi o'zgaradi. Ionalmashuv xossalariiga ega bo'limgan tashuvchilardan foydalanganda, sorbtsiya oqsil yoki fermentni izoelektrik nuqtasida amalga oshirilsa yaxshi natija beradi.

Ammo bu qonuniyatni chetlab o'tish xollari xam uchrab turadi. Masalan, albuminni lateksga sorbtsiya bo'lishini xar xil rN da o'rganib chiqilganda bu jarayonni rN ga aloqadorligi W simon bo'lganligi, ko'mirda adsorbsiya qilinganda esa mo'tadil rN 3 dan 6 gacha o'zgarishi, bu o'zgarish ko'mirni tabiatiga bog'liqligi isbotlangan.

### Ion kuchi

Ferment bilan tashuvchi orasidagi bog'lanishni kuchiga ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Tuzlarni yuqori miqdorda tashuvchi sirtidan elektrostatik yo'l bilan bog'langan fermentni siqib chiqaradi.

Boshqacha qilib aytganda, ion kuchini oshishi bilan fermentni desorbtsiyasi oshib boradi. Ba'zi xollarda bunga aksincha ta'sir xam uchrab turadi, buni oqsilni "tuzlanishi" deb ataladi.

### Fermentning miqdori

Eritmada fermentni miqdori oshib borgan sari, uni sorbtsiya bo'lishi va immobilizatsiya bo'lgan fermentni katalistik faolligi oshib boradi.

Immobilizatsiya bo'lgan ferment faolligini, eritmadagi ferment miqdoriga nisbatan taqqoslab o'rganganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, fermentni eritmadagi miqdorini oshib

borishi bilan ma'lum nuqtagacha fermentni katalitik faolligi oshib boradi va undan keyin o'zgarmasdan qoladi va xatto kamayishi xam mumkin.

Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, fermentni faolligi tashuvchi satxini butunlay qoplab olgunga qadar faollik oshib boradi, keyin esa ferment 2-chi, 3-chi qavat xosil qiladi va x.k. Oxirida, tashuvchining eng tepa qismida yopishgan fermentlar faollik ko'rsatadi, tagida qolganlari esa substrat bilan aloqa qilaolmaydilar va o'z-o'zidan "ishsiz" qoladilar. Shuning uchun xam immobilizatsiya bo'lgan fermentni faolligi kamayadi.

### Xarorat

Xaroratni oshishi adsorbsiya jarayoniga ikki xil ta'sir qiladi. Birinchidan, xaroratni oshishi fermentni inaktivatsiyasiga (denaturatsiya) olib keladi, ikkinchi tomonidan esa xaroratni oshishi fermentni tashuvchi g'ovaklariga diffuziyasini kuchaytirish xisobidan, ferment faolligini oshishiga olib keladi.

Demak, adsorbsiya yo'li bilan immobilizatsiya qilishni mo'tadil sharoiti bo'lish kerak. Bunday xarorat adsorbsiya qilinadigan fermentni tabiatini va tashuvchi satxiga bog'liq bo'lib, xar bir ferment yoki tashuvchi uchun qator tajribalar orqali topiladi.

Shunday qilib, fermentlarni adsorbsiya yo'li bilan immobilizatsiya qilish bir qator omillarga bog'liq bo'lib, faqat tajribalar asosida aniq topiladi. Quyida ferment bilan tashuvchi orasidagi bog'ni kuchaytirishga xizmat qiluvchi omillar xaqida fikr yuritamiz.

Fermentni tashuvchi bilan bog'lanish kuchini oshiruvchi usullar.

Oldindan modifikatsiya qilingan tashuvchilarga immobilizatsiya qilish

Tashuvchining oldindan modifikatsiya qilish adsorbsiya kuchini keskin oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, ferment molekulasi atrofida maxsus sharoitlar yasash xisobidan, oldindan modifikatsiya qilingan tashuvchida immobilizatsiya qilingan fermentni katalitik xususiyati xam ortib boradi.

Buning ustiga, oldindan modifikatsiya qilmaslik adsorbsiya qilingan fermentni faolligini butunlay yo'qolishigacha olib kelish mumkin. Masalan, agar fermentni mo'tadilligi nordon sharoitda past bo'lsa, silikagelga sorbtsiya qilingan fermentni faolligi butunlay yo'qoladi, chunki, silikagelni satxi nordon muxitga ega ( $rNq4,0$ ).

Bunday sharoitda, immobilizatsiyadan oldin silikagelni ma'lum  $rN$  ga ega bo'lgan buferda fermentni mo'tadil  $rN$  ga to'g'ri kelgan  $rN$  da saqlab turish lozim bo'ladi.

Xuddi shunday muammo, faol markazida metall saqlaydigan fermentlar bilan ishlaganda kelib chiqadi. Bunga sabab, ba'zi bir tashuvchilar o'zlariga metall ionlarini tortib olish qobiliyatiga egalar. Bunday tashuvchilarda adsorbsiya qilingan fermentlar, o'z faol markazidagi metalni chiqib ketishi xisobidan faoliyatlarini yo'qotishlari mumkin. Bu xolni bartaraf etish uchun, tashuvchini maxsus metall ionlari saqlagan eritmalarda uzoq vaqt ushlab turish va shu tufayli uni metall ioniga nisbatan bo'lgan extiyojini qondirish mumkin bo'ladi.

Tashuvchilarni metall ionlari bilan to'yintirish adsorbsiya yo'li bilan immobilizatsiya qilishni mo'tadillashtirishda xam ishlataladi. Tashuvchi sirti metall ionlari bilan to'yintirilganda (buning uchun Ti, Sn, Zr, V va Fe ishlataladi), fermentni sorbtsiya qilish xususiyati ortadi, bunga sabab metall ioni ferment bilan tashuvchi orasida ko'prik bo'lib xizmat qilishidir. Immobilizatsianing bu usuli, tsellyuloza, neylon shisha filtr qog'oz kabi tashuvchilardan foydalanganda yaxshi natijalar berishi isbotlangan.

Oldindan modifikatsiya qilingan fermentlarni immobilizatsiya qilish

Ionalmashuvchi tashuvchilarga adsorbsiya yo'li bilan immobilizatsiya qilishda izoelektrik nuqtasi va  $rN$  -mo'tadilligi bir-biriga yaqin bo'lgan fermentlar bilan ishlanganda qator muammolar paydo bo'ladi. Ferment bilan tashuvchi orasidagi mustaxkam bog'lanish faqatgina, izoelektrik nuqtadan uzoqroq bo'lgan  $rN$  da, ya'ni fermentni katalitik xususiyati past bo'lgan sharoitda amalga oshiriladi.

Shuning uchun, xam fermentni oldindan modifikatsiya qilish, ya’ni ferment molekulasiga yangi ionogen guruxlar (polikislotalar, karboksimetil, tsellyuloza, yantar kislotasi va x.k.) kiritish maqsadga muvofiq bo’ladi. Masalan, L-ximotripsin xlortriazinli rang bilan aralashtirilganda, uni izoelektrik nuqtasi ishqoriy tomonga siljishi, va shu tufayli ferment ko’pgina tashuvchilarga adsorbsiya bo’lishi, oqibat natijada esa katalitik faolligi saqlanib qolishi isbotlangan.

Boshqa bir misol, L-ximotripsinni KM-tsellyuloza bilan modifikatsiya qilinganda, ferment neytral rN muxitida DEAE-tsellyulozada yoki DEAE-sefadeksga faolligi saqlangan xolda immobilizatsiya bo’ladi.

#### Ferment tashuvchi bog’ini mustaxkamligiga ta’sir etuvchi boshqa omillar

Immobilizatsiya bo’lgan fermentni tashuvchi satxidan oson yuvilib ketmasligi uchun adsorbsiya qilingan ferment qatlami bifunksional agentlar bilan ishlov beriladi. Natijada, tashuvchi satxida fermentlarni bir-birlariga bog’langan xolatidan iborat yupqa plenka xosil bo’ladi. Bifunksional agent sifatida glutaraldegid, gossipol va boshqalarni ishlatish mumkin.

Immobilizatsiya qilishni original yo’li professor K.Martinek tomonidan namoyish etilgan. Buning uchun qisman kimyoviy destruktsiyaga uchragan neylon iplaridan foydalaniladi. Tashuvchi, ferment eritmasiga solinadi va mexanik tortiladi, natijada neylonni g’ovaklari yiriklashib, unga fermentning joylashishi osonlashadi.

Ma’lum vaqtadan keyin tortib turgan kuch olinadi va neylon yana o’z xolatiga keladi, ferment esa g’ovaklarda siqilib qoladi. Elektr toki yordamida ushslash usuli, immobilizatsiyaning yangi usullaridan bo’lib, membranalar yordamida ajratilgan elektrodlar bilan kollektorlarda elektr maydoni xosil qilinadi. Kollektor qilib silikagel, ion almashuv smolalari, minerallar ishlatilishi mumkin.

Ferment kollektorlarda elektrostatik va dipol-dipollik o’zaro ta’sir kuchlari orqali ushlanib qoladi. Bu usulni yomon tomoni shundan iboratki, immobilizatsiya tizimi xamisha elektr toki ta’sirida bo’lishi shart. Tok uzilsa yoki o’chsa ferment tashuvchidan yuvilib ketadi.

#### Adsorbsiya yo’li bilan immobilizatsiya qilishning afzalligi va kamchiliklari

| Afzalligi  | Kamchiligi   |
|--|--|
| Sorbentning arzonligi                            | Ferment va tashuvchi orasidagi bog’ni mustaxkam emasligi |
| Eksperimentlarni osonligi                        | Umumiyligida yagona yo’riqnomani yo’qligi                |
| Bir vaqtini o’zida fermentni tozalash mumkinligi |  |

#### Gel ichiga kiritish yo’li bilan immobilizatsiya qilish

Bu usulni moxiyati shundan iboratki, ferment molekulasi, qattiq to’qilgan polimer zanjirlaridan iborat bo’lgan gel xosil qiluvchi uchlamchi elaklarga o’rnataladi. Zanjir bog’lari orasidagi masofa ferment molekulasidekdan kichik bo’lgani uchun, u maxkam siqilib turadi va polimerdan chiqib keta olmaydi. Ferment bilan tashuvchi orasidagi bog’ni mustaxkamligini oshiruvchi omil rolini ferment va tashuvchi gel orasida paydo bo’lgan vodorod bog’lari xam o’ynashi mumkin.

Polimer zanjirlari orasidagi bo’shliq suv bilan to’ldirilgan bo’ladi. Masalan, akril kislotasi xosilalari asosida paydo bo’lgan gelda, uning miqdoriga qarab, 50 dan 90% gacha suv bo’lishi mumkin.

Fermentlarni gelda immobilizatsiya qilishning ikki usuli bor. Birinchisi, ferment monomer eritmasida eritiladi so’ngra polimerizatsiya qilinadi. Bunday eritmaga ko’pchilik xollarda bifunksional agentlar xam qo’shiladi.

Ikkinchisi, P.Bertfeld va Dj.Uenlar ishlatgan N-N’ metilen-bisakrilamidni polimerizatsiya qilish asosida olinadigan immobilizatsiyalangan fermentlar.

Gelga kiritish yo'li bilan immobilizatsiya qilish usuli o'zining soddaligi bilan ajralib turadi. Bu usul bilan fermentni xoxlagan geometrik konformatsiyada (sferik zarrachalar va x.k.) olish va fermentni tashuvchi ichida bir tekis tarqalishiga erishish mumkin.

Ko'pchilik polimer gellar o'zlarining mexanik va kimyoviy issiqqa chidamliligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar esa fermentlarni bir necha marotabalab ishlatish imkonini beradi. Bu usul universal usul bo'lib nafaqat barcha xildagi fermentlar, balki poliferment tizimlar, xujayra va xujayra fragmentlarini immobilizatsiya qilish uchun xam to'g'ri keladi. Bu usulni ijobjiy tomonlaridan yana biri - uni fermentga mo'tadillik berish imkoniyatidir. Va nixoyat bu usulda immobilizatsiya qilingan ferment, bakteriologik zararlanishdan qo'rqlaydi chunki, ferment molekulasiidan katta bo'lган bakteriyalar gelni kira olmaydilar.

Usulning eng katta kamchiligi ba'zi bir xolatda polimer matrikslari substratni diffuziyasigi xalaqit beradi va shu tufayli fermentni faolligi past bo'lishi mumkin. Shunday ekan, substrat sifatida yuqori molekulali moddalar ishlatilganda bu usuldan butunlay foydalanish mumkin emas.

#### Yarim o'tkazgich membranalar yordamida immobilizatsiya qilish

Bu usul kichik molekulali substratni suvdagi eritmasi, katta molekulaga ega bo'lган ferment eritmasidan yarim o'tkazgich membrana yordamida ajralib turishiga asoslangan. Yarim o'tkazgich membrana substratni oson o'tkazadi, ferment esa membranalardan o'ta olmaydi. Bu usulni xar xil modifikatsiyasi, yarim o'tkazgich membranalarni olish va ularni tabiatli asosida yaratilgandir.

Mikrokapsulash - usuli birinchi bo'lib, 1964 yilda T.Chang tomonidan yaratilgan. Bu usul - fermentni suvdagi eritmasini mikrokapsulalar ichiga joylashtirishdan iborat. Mayda teshikli polimer plynokalardan tashkil topgan kichik koptokchalar ichidagi fermentlarni tashqariga chiqishi belgilab qo'yilgan. Kapsulalarni olish usuliga qarab, ularni o'lchami xal xil bo'ladi (10 dan 100 mikrometrqacha).

Mikrokapsulalar olishning ikki usuli mavjud bo'lib, birinchisida fermentni suvdagi eritmasi PAV (sirt faol moddalar) saqlovchi dietilefiri bilan kuchli aralashtirish natijasida dispers xolatga o'tkaziladi. PAV - bu erda emulgator vazifasini bajaradi. Xosil bo'lган emulsiyaga, to'xtatmasdan polimerning efirdagi eritmasi qo'shib boriladi.

Polimer (nitrat tsellyuloza), suvda erimasligi sababli emulsiyaga tekkan joyda yupqa membrana mikrokapsula xosil qiladi. Tayyor bo'lган mikrokapsula tsentrifuga yordamida yoki filtrlash yo'li bilan ajratib olinadi.

Mikrokapsula xosil qilishning ikkinchi yo'li - ikki moddaning fazalararo polikondensatsiya qilishiga asoslangan. Moddalardan biri suvning mayda emulsiyalarida ikkinchisi esa organik fazada erigan bo'ladi. Ko'p tarqalganlardan biri poliamid mikrokapsulasi.

Bu mikrokapsula 1,6-geksametilendiamin (suv fazasi) va sebatsin kislotasining xlor gidridi (organik faza) asosida olinadi. Bu usul faqatgina yuqori rN ga chidamli bo'lган (diamin eritmasi) fermentlar uchun ishlatilishi mumkin. Mikrokapsula xosil qilish uchun ishlatiladigan ferment eritmasi 10% atrofida inert oqsil moddasi (gemoglobin) saqlashi lozim. Bu oqsil kapsula ichida kerakli bosim bo'lishini xamda fermentni mo'tadilligini ta'minlaydi. Fermentni mo'tadilligini oshirishi uchun glutaraldegid bilan ishlov beradi, ba'zida esa adsorbtsiya yoki gelga kiritish yo'li bilan immobilizatsiya qilinadi.

Ba'zi xolatlarda immobilizatsiya qilish uchun molekulalari kovalent bog'langan oqsillardan tashkil topgan membranalardan xam foydalaniladi.

Ikkilamchi emulgirlash. Bu yo'l bilan immobilizatsiya qilganda, avvalo fermentni suvdagi eritmasini organik polimerdagi emulsiyasi tayyorlanadi. Tayyor emulsiyani yana bir bor suvda dispersiya qilinadi. Natijada, fermentni suvdagi eritmasini saqlagan organik moddani (polimeri) emulsiyasi xosil bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan organik eritma qotadi, va immobillashgan ferment saqlovchi polimer zarrachalari xosil bo'ladi.

1972 yilda S.Mey va N.Li lar bu usulni modifikatsiya qildilar va membrana xosil qiluvchi materialar sifatida suvda erimaydigan polimer o'rniga katta molekulyar massaga ega bo'lган suyuq uglevodorodlardan foydalanishni tavsiya qildilar. Bu usul suyuq membranalarda

immobilizatsiya qilish deb ataldi. Bundan tashqari tolaga kiritish, liposomaga kiritish, mikroemulsiya xosil qilish kabi bir qator usullar mavjud.

Fermentlarni immobilizatsiya qilishinig kimyoviy usullari

Kimyoviy usullarni boshqa usullardan asosiy farqi kimyoviy ta'sir natijasida ferment bilan tashuvchi orasida qo'shimcha kovalent bog'i paydo bo'ladi. Bu usulda immobilizatsiya qilingan fermentlarni kamida ikkita ustunligi bor. Birinchidan, ferment va tashuvchi orasidagi kovalent bog', xosil bo'lgan kon'yugatni yuqori mustaxkam qiladi. Boshqacha qilib aytganda ferment ishtirokida o'tadigan reaktsiyalarni rN, xarorati va boshqa ko'rsatkichlarini o'zgartirish, fermentni desorbsiyasiga, shu tufayli olinadigan maxsulotni ifloslanishiga olib kelmaydi.

Bu esa ayniqsa meditsina, oziq-ovqat maxsulotlari, analitik ishlar uchun reaktivlar olishda o'ta muxim axamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, kimyoviy modifikatsiya fermentni faolligini va mo'tadilligini oshirishiga olib keladi. Faqatgina kimyoviy yo'l bilan, ko'p nuqtalik bog'lanishlar natijasida fermentni mo'tadilligini oshirish mumkin. Bu usulni kamchiligi, ba'zi-bir fermentlar kimyoviy modifikatsiya jarayonida o'z faolligini yo'qotib qo'yadilar.

**Keys.** Fermentlarni kovalent immobillash asosida fermentlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Immobillash jarayonida sorbentlarga qator talablar qo'yiladi. Biroq sorbentlar talabga to'liq javob bermaydi.

1.**Birinchi savol:** Sorbentlarga qanday talablar qo'yiladi?

2.**Ikkinci savol:** Fermentlarni immobillasnda sorbentlarni talabga to'liq javob bermasliigi qanday nohush holatlarni keltirib chiqaradi?

3.**Uchinchi savol:** Qaysi birikmalar sorbentga tanlanadi?

**Topshiriq:** savollarga javob bering.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Fermentlarni immobillash deb nimaga aytildi?
2. Sorbentlarga qanday talablar qo'yiladi?
3. Fermentlarni immobillashni necha xil usullari bor?
4. Fermentlarni fizik usulda immobillashni tushuntiring.
5. Fermentlarni kimyoviy usulda immobillashni tushuntiring.
6. Immobillangan fermentlarni oddiy fermentlardan afzalligi

### 4-laboratoriya mashg'ulot

#### Mavzu: Fermentlarni fizik-kimyoviy xususiyatini o'rganish

**Ishning maqsadi:** Talabalarni fermentlarni fizik-kimyoviy xususiyatini o'rganish usuli bilan tanishtirish.

**Kutilayotgan natija:** Talabalarda fermentlarni fizik-kimyoviy xususiyatini o'rganish usulini qollash ko'nikmasi shakllanadi.

**Nazariy tushuncha.** Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan barcha ximiyaviy reaktsiyalar maxsus katalizatorlar yordamida boradi. Oqsil tabiatiga ega bo'lgan bunday katalizatorlar fermentlar deb ataldi. Fermentlarning oqsillarga mansub ekanligini isbotlovchi dalillardan biri, protsolitik fermentlar ta'sirida ular aktivligining kamayishidir.

Oddiy oqsillardan, ya'ni faqat aminokislotalardan tashkil topgan fermentlar bir komponentli fermentlar deyiladi. Masalan, ribonukleaza, trepsin, papann va boshqalar. Agar fermentlar murakkab oqsillardan tashkil topgan bo'lsa, ya'ni ularning tarkibida aminokislotalardan tashqari boshqa birikmalar ham uchrasa, ular ikki komponentli fermentlar deb atalali. Oksidlanish qaytarilish reaktsiyalarida ishtirok etuvchi fermentlar ikki komponentli fermentlardir.

Fermentlar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bularga fermentlarning termolabilligi, spetsifikligi, muhit rNining o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi, aktivator va ingibitorlarning ta'siriga moyilligi kiradi. Fermentlarning ta'siri va ularning aktivligi reakdiyada ishtirok etayotgan moddaning kamayishiga (bu modda substrat deb ataladi) yoki xosil bo'layotgan moddaning ortib borishiga qarab belgilanadi. Odadta fermentativ preparat sifatida o'simlik to'qimalarining shiralardan foydalaniladi. Bunday shiralarda fermentlar erigan xolda bo'ladi. Xozirga qadar ma'lum bo'lgan fermentlar 6 sinfga bo'linadi.

1. Oksidoreduktazalar — oksidlanish va qaytarilish reaktsiyalarni katalizlaydi.
2. Transferazalar — ma'lum ximiyaviy gruppalarini bir birikmadan ikkinchi birikmaga ko'chirilishini ta'minlaydi.
3. Gidrolazalar — murakkab organik birikmalarning suv yordamida parchalanish reaktsiyalarini katalizlaydi.
4. Liazalar—substrattan suv ishtirokisiz ma'lum gruppalarining ajralishini katalizlaydi. Bu fermentlar faoliyati tufayli yo qo'shbog'hosilbo'ladi yoki ma'lum gruppalarining qo'sh bog'larga birikishi ta'minlanadi.
5. Izomerazalar—har xil organik birikmalarning izomerlanish reaktsiyalarini katalizlaydi.
6. Ligazalar—ATF yoki shunga o'xshash nukleozid trifosfatlar energiyasi hisobiga oddiy molekulalardan murakkab birikmalar hosilbo'lishi reaktsiyalarini katalizlaydi.

Fermentlarning aktivligini aniqlashda ximiyaviy usullar bilan bir qatorda spektrofotometriq monometrik xromatografii, polyarografi va boshqa usullardan keng foydalanimoqda.

### **1- ish. Amilazaning kraxmalga ta'siri**

Amilaza fermenti kraxmalni qandgacha parchalaydi. Amilaza fermentining muhim manbalaridanbiri dono'simliklari hisoblanadi. Ular quruo' donda va ayniqsa unayotgan donlarniig tarkibida ko'p miqdorda to'planadi. Unayotgan donlar tarkibidagi fermentlar eng yuqori aktivlikka ega bo'ladi.

Kraxmal yod bilan ko'k rang beradi, uning parchalanishi natijasida hosil bo'lган dekstrin zarrachalar katta-kichikligiga qarab yod bilan binafsha, qo'ng'ir-qizil, sarg'ish va sariq ranggacha (yodning suvdagi rangi) o'zgaradi. Shuning uchun agar kraxmal eritmasiga amilaza fermentidan qo'shilsa ma'lum vaqt ichida yod ta'sirida aralashma avval ko'k keyin esa binafsha, qizil, sarg'ish va s a r i q ranggacha o'zgaradi.

Ish tartibi. 9 ta probirkaga olib har biriga 2 — 3 ml distillangan suv va bir tomchidan 1 % li yod eritmasidan quyiladi. Alovida 10-probirkaga 2 — 3 ml kraxmalning 0,5 % li eritmasidan olib uning ustiga 1 ml ferment shirasidan quyiladi. Vaqtini belgilab, probirkadagi aralashmani yaxshilab chayqatiladi. So'ngra pipetka yordamida 1 tomchi aralashma birinchi probirkaga solinadi. Probirkadagi suyuqlik ko'k rang beradi. Shunday qilib, har 30 sekunddan keyin 2,3, 4... va hokazo 9-probirkalarga bir tomchidan 10-probirkadagi aralashmadan solib chiqiladi. Probirkalarda gi suyuqliklar yaxshilab aralashtiriladi va tegishli ranglar hosil bo'ladi. Agar ikkinchi probirkadagi sug'yuqlik ko'k rang bersa, unda keyingi probirkalarga birmuncha uzoqroq vaqtdan keyin, masalan, har bir minutdan so'ng solish kerak. Bordi-yu ikkinchi probirkada binafsha yoki qizg'ish rang hosil bo'lsa unda vaqtini tezlatish kerak ya'ni har 15 sekundda solish kerak bo'ladi. Probirkalardan biridagi sariq rang o'zgarmay qolsa, bu kraxmal gidrolizining tugaganligini bildiradi. Tajriba natijasi quyidagi jadvalga yoziladi.

Reaktivlar: ferment shirasi (5 — 10 gramm undan don yoki 5 kunlik don maysalari yaxshilab maydalaniadi va kolbaga solinib ustiga 100 ml distillangan suv quyiladi. Yaxshilab aralashtirilib 30 minut davomida qoldiriladi, so'ngra filtrlanadi. Filtrdan o'tgan suyuqlik ferment shirasi hisoblanadi). Yodning

1 % li eritmasi, kraxmalning 0,5% li eritmasi.

### **2-ish. Saxaraza fermentining aktivligini aniqlash**

Saxaraza (invertaza) fermenti saxarozanı gidrolizlab glyukoza va fruktozagacha parchalaydi. saxaraza

Saxaraza fermenti ko'pchilik o'simliklar tarkibida uchraydi. Ayniqsa u achitqi zamburug'larida ko'pbo'ladi. Ferment aktivligini aniqlashda bir qator usullardan foydalanimoqda. Bulardan biri yuqoridagi reaktsiya mahsulotlarining qaytaruvchanlik xususiyatlariga asoslangan bo'lib, glyukoza va fruktoza tegishli kislotalargacha oksidlanadi, mis ionlari esa qaytariladi.

**Ish tartibi.** 2 ta probirkaga 1 ml dan 0,5% li saxaroza eritmasidan solinadi. 1probirkaga 1 ml suv, ikkiichisiga esa 1ml saxaraza fermenti shirasidan qo'shiladi va 15 minutga 35°S inkubatsiyaga qo'yiladi. Belgilangan vaqt tugagach, har ikkala probirkaga 2 ml natriy gidroksidning 20%li eritmasidan va 5 — 6 tomchi mis sulfatning 2% li eritmasidan qo'shib qizdiriladi. Ferment ta'sir qilgan probirkada 1qizil cho'kmahosilbo'ladi.

"Reaktivlar: Saxaraza fermenti shirasi, shira achitqi zamburug'laridan olinadi. Buning uchun 5 gramm achitqi chinni hovonchada eziladi, so'ngra unga 5 ml distillangan suv qo'shib ezishni davom ettiriladi. Xovonchaga yana 10 ml issiq ( $60^{\circ}$ ) suv ko'shiladi va 10 minut davomida eziladi. Bunda saxaraza fermenti eritmaga o'tadi. Aralashma filtrdan o'tkaziladi, filtratdan ferment shirasi sifatida foydalaniladi. Ca xarozaning 0,5% li eritmasi, natriy gidroksidning 20% li eritmasi, missulfatning 2% li eritmasi.

### **3-ish. Fermentlarning termolabilligi**

Temperatura ko'tarilishi bilan fermentlar yordamida katalizlanuvchi reaktsiyalarining tezligi ortib boradi. Biroq ma'lum temperaturada fermentlar qaytmas denaturatsiyaga uchrashi tufayli aktivligini yuqotadi. Fermentlarning katalitik aktivligi maksimal bo'lgan temperatura uning temperatura optimumi deyiladi. Har bir ferment uz optimal temperaturasiga ega. O'simlik tarkibidagi fermentlarning temperatura optimumi  $40^{\circ} - 60^{\circ}$  ga teng bo'ladi. Past ( $0^{\circ}$  dan past) temperaturalarda fermentlarning aktivligi pasayadi yoki butunlay to'xtaydi. Biroq bunda ular denaturatsiyaga uchramaydi.

Ish tartibi. 3 ta probirkaga 2—3 ml dan ferment shirasidan solinadi, birinchi probirkaga 2 — 3 minut davomida qaynatiladi. Probirkaga sovigach, har uchala probirkaga 1 ml dan 0,5% li kraxmal eritmasidan solinadi. 1-va 2-probirkalar  $37^{\circ}\text{S}$  da termostatga, 3probirkaga esa muzli idishga quyiladi. 10 minut o'tgach, har qaysi probirkaga 5 tomchidan 1 % li yod tomiziladi.

Reaktivlar: ferment shirasi, kraxmalning 0,5% li eritmasi, yodning 1%li eritmasi.

### **4-ish. Fermentlarning aktivligiga muhit PH ining ta'siri**

Fermentlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri muxit pH o'zgarishining sezuvchanligidir, ya'ni har bir ferment muhit pH ining ma'lum qiymatida maksimal aktivlikka ega bo'ladi. Odatda, bu qiymat pH optimumi deb ataladi. Fermentlarning aktivligiga pH ning ta'sirini o'rganish uchun bir qator pH qiymati har xil bo'lgan eritmalar tayyorlanadi. Bu eritmalarda ferment aktivligi aniqlanadi.

Ish tartibi. 10 ta probirkaga olib, har biriga jad valda ko'rsatilganidek 2,5 ml dan bufer eritma solinadi. Bufer eritma —  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  va tsitrat (limon) kislota yordamida tayyorlanadi.

Keyin xar bir probirkaga 1,5 ml dan kraxmalning 0,5% li eritmasi va 1,9 ml dan ferment shirasi qo'shiladi. Probirkalardagi suyuqlik yaxshilab aralashtirilib 15 minut  $37^{\circ}\text{S}$  da inkubatsiyaga qo'yiladi. Ko'rsatilgan vakt tamom bo'lgach, barcha probirkalarga 3—4 tomchidan yodning 1%li eritmasidan qo'shiladi va qaysi probirkada kraxmal yaxshi parchalangani aniqlanadi. Shuning asosida fermentning optimal rNi topiladi.

Reaktivlar:  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$ , 0,2M eritma, tsitrat kislotaning 0,1M eritmasi, kraxmalning 0,5%li eritmasi, ferment shirasi.

### **5-ish. Fermentlarning spetsifikligi**

Fermentlar anorganik katalizatorlardan farq qilib, spetsifik ta'sir qilish xususiyatiga ega. Ularning bunday spetsifikligi tirik organizmlarga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ayrim fermentlar spetsifiklik darajasiga qarab bir-biridan farq qiladi. Masalan, amilaza faqat kraxmalni parchalaydi, maltoza va saxarozagaga esa ta'sir qilmaydi.

Ish tartibi. Amilazaning spetsifik ta'siri. Ikkita probirkaga 1 ml dan amilaza fermenti solinadi, birinchi probirkaga 1 ml 0,5% li kraxmal eritmasidan, ikkinchisiga 1 ml 0,5 % li saxaroza eritmasidan solib, 15 minut  $40^{\circ}\text{S}$  suv hammomiga qo'yiladi. Ko'rsatilgan vaqt tugagach har ikkala probirkaga teng hajmda 20%li natriy gidroksid va 5 — 6 tomchi 5 % li mis sulfat eritmasidan solinadi va qaynaguncha qizdiriladi. Natijada faqat kraxmal parchalanib saxaroza o'zgarmay qolgani aniqlanadi.

Saxarazaning spetsifik ta'siri. Ikkita probirkaga 1 ml dan saxaraza fermenti shirasidan solinadi.

Birinchi probirkaga 1 ml 0,5% li saxaroza eritmasidan, ikkinchisiga 1ml 0,5 %li kraxmal eritmasidan qo'shiladi va 15 minut  $40^{\circ}\text{S}$  inkubatsiyaga qo'yiladi. Vaqto'tgach har ikkala probirkaga teng hajmda 20 % li natriy gidroksid va 5 — 6 tomchi 5% li mis sulfat eritmasidan solinadi. Keyin aralashma qaynaguncha qizdiriladi. Natijada faqat saxaroza parchalanib, kraxmal o'zgarmay qoladi. Tajriba natijalari jadvalga yoziladi.

Reaktivlar: amilaza fermentining shirasi, saxaraza fermentining shirasi, kraxmalning 0,5 % li eritmasi, saxarazaning 0,5% li eritmasi, natriy gidroksidining 20%li eritmasi, mis sulfatning 5%li eritmasi.

6-ish. Fermentlarning aktivligiga ta'sir kiluvchi moddalar (ingibitorlar va aktivatorlar)

Fermentlarning aktivligiga reaktsion muhitda ishtirok etayotgan bir qator ximiyaviy moddalar ham ta'sir ko'rsatadi. Reaktsion muhitda ba'zi bir ionlarning ishtirok etishi fermentativ reaktsiya tezligini orttiradi. Bunday moddalar aktivatorlar deb ataladi. Aktivatorlik vazifasini ko'pincha NaQ, KQ, Mg<sub>2</sub>Q, Ca<sub>2</sub>Q kabi metall kationlari bajaradi. Fermentativ reaktsiya aktivligini pasaytiruvchi moddalar ingibitorlar deyiladi. Ingibitorlarga tsianidlar, og'ir metall tuzlari misol bo'la oladi.

Reaktivlar: amilaza fermentining shirasi (solod), nitrit xloridning 0,04%li eritmasi, mis sulfatning 0,1 % li eritmasi, kraxmalning 1% li eritmasi, yodning 1 % li eritmasi.

Ish tartibi. Uch qator (har bir qatorda 6 tadan) probirkalarga tayyorlab, hammasiga 1 ml dan suv ko'yiladi. Keyin har bir qatorning birlinchi probirkasiga 1 ml dan amilaza fermenta shirasidan quyiladi. Pipetka yordamida 1-probirkadagi suyuqlik aralashtirilib, aralashma 2probirkaga olinadi va yana bir marta aralashtirib 2probirkadan 3probirkaga solinadi va xokazo. Oxirgi 6probirkadan 1 ml ortiqcha aralashma olib tashlanadi. Kolgan qatorlarda ham xuddi shunday qilinadi.

Birinchi qator porbirkalariga 1 ml suv, ikkinchi qator probirkalariga natriy xlorid tuzining 0,04 % li eritmasidan, 1 ml uchinchi qator probirkalariga mis sulfat tuzining 0,1 %li eritmasidan 1 ml quyiladi. Keyin hamma probirkalarga 2 ml dan kraxmal solinadi va 10 minutga 40°S inkubatsiyaga quyiladi. Baqt tamom bo'lgach hamma probirkalarga 2—3 tomchidan yod tomiziladi va aktivator hamda ingibitorlar ta'siri aniqlanadi.

**Keys.** Fermentlar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bularga fermentlarning termolabilligi, spetsifikligi, muhit rNining o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi, aktivator va ingibitorlarning ta'siriga moyilligi kiradi. Fermentlarning ta'siri va ularning aktivligi reakdiyada ishtirok etayotgan moddaning kamayishiga (bu modda substrat deb ataladi) yoki xosil bo'layotgan moddaning ortib borishiga qarab belgilanadi.

**Nima uchun** fermentlarning termolabilligi, spetsifikligi, muhit rNining o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi, aktivator va ingibitorlarning ta'siriga moyilligi o'r ganiladi?

**Nima uchun** fermentlardan keng foydalanildi?

**Topshiriq:** savollarga javob toping, javobingizni misollar bilan izohlang.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Amilazaning kraxmalga ta'sirini tushuntiring.
2. Saxaraza fermentining aktivligi qanday aniqlanadi?
3. Fermentlarning aktivligiga muhit PH ining ta'sirini izohlang.
4. Fermentlarning spetsifik xususiyatini tushuntiring.

## 5-laboratoriya mashg'ulot

**Mavzu: Chiqindilar asosida sorbent sintezlash.**

**Ishning maqsadi:** Talabalarni chiqindilar asosida sorbent sintezlash usuli bilan tanishtirish.

**Kutilayotgan natija:** Talabalarda chiqindilar asosida sorbent sintezlash usulini qollash ko'nikmasi paydo bo'ladi.

**Zarur jihozlar:** shisha idishlar, falga qog'ozi, reaktivlar, agar-agar, indekator, distillangan suv, quritish shkafi, gaz gorelkasi, magnitli aralashtirgich, o'lchovli stakan, detergentlar (yuvuvchi vositalar), s hakar, tarsion tarozi, pipetka, kolba.

**Nazariy tushuncha.** Har qaysi usulda immobilizatsiya qilishda quyidagi larda e'tibor berish kerak; "tashuvchilar" (sorbentlar) ning tabiatini va fizik-kimyoiy xususiyati organik va noorganik tabiatga ega bo'lishlari mumkin.

Immobilizatsiya qilishga mo'ljallangan "tashuvchi" larga quyidagi talablar qo'yiladi:

- kimyoviy va biologik mo'tadillik;
- mexanik nuqtai nazar dan mustaxkamlik;
- ferment va uni substrati uchun o'tkazuvchanlik;
- texnologik jaroyonlar uchun zarur bo'lgan shaklda olinishi
- osonligi (granula, membrana, varak va xokazo xolatda).
- reaktsion shaklda tez kirishi;
- yuqori gidrofilligi (immobilizatsiya jarayonini suvli muxitga o'tkazish uchun);
- arzonligi.

Tabiiyki, bu talablarni barchasiga javob beraoladigan tashuvchilar yo'q. Shu sababli xam immobilizatsiya uchun juda xam ko'p materillardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda o'simlik chiqindilaridan sorbent sintez qilish borasida ko'p ishlar amalgal oshirilmoqda. Grek yong'og'ini po'chog'idan sorbent sintez qilish mumkin.

**Ishni bajarish:** Grek yong'og'ini po'chog'i kimyoviy analiz qilinganda uning tarkibida Grek moyi borligi aniqlangan. Shuning uchun ham ishning birinchi bosqichida spiritbenzolli aralashma bilan ishlov berilib moy va smolalardan tozalanadi. So'ngra distillangan suv bilan yuviladi (rNq7), Keyin sellyuloza mustahkamligini saqlash maqsadida o'yuvchi natriyning 4 % li eritmasida 140° S li avtoklavda saqlanadi. Distillangan suvda bilan -18-20° S haroratlari muzlatgich kamerasida 2 soatga qo'yildi. Distillangan suvda bilan -18-20° S haroratlari muzlatgich kamerasida 2 soatga qo'yildi Keyin 3 soat davomida 130° S li quritish shkafiga qo'yib qo'yiladi. Shundan so'ng mahsulot maydalaniib, fraktsiyalarga ajratiladi. 0,5-0,8 mm kattalikdagi bo'lak shimuvchanlik xususiyatini o'rganish uchun tanlanadi.

### Grek po'chog'ini kimyoviy tarkibi

| Komponent                                       | Miqdori, % |
|---|------------|
| Suv   | 9 %        |
| Kul moddasi                                     | 0,5        |
| Ekstrakt moddalar                               | 3,4        |
| Suvda eruvchi va oson gidrolizlanuvchi moddalar | 21,8       |

Grek po'chog'i tarkibidagi shish xususiyatiga ega bo'lgan komponentlar

| Komponent (quruq massa hisobiga) | Miqdori, % |
|----------------------------------|------------|
| Tanin                            | 0,4 %      |
| Xolotsellyuloza, jumladan        | 68,2       |
| α-tsellyuloza                    | 38,2       |
| Pentoza va gemotsellyuloza       | 30         |

|        |      |
|--------|------|
| Lignin | 27,9 |
|        |      |

Ishlov berilguncha

